

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI**

“TASDIQLAYMAN”

Filologiya fakulteti dekani;

_____A.Qurbonov

“ ____ ” _____2022 yil

**O'zbek tilshunosligi kafedrası dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi**

Abdurahmanov Shavkatjon Ashurovichning

**«NUTQ MADANIYATI VA MUTOLAA SAN'ATI»
fanidan tayyorlagan o'quv-uslubiy majmua materiallari
2022/2023 o'quv yili 2-kurs o'zbek tili yo'nalishi talabalari uchun**

Mazkur majmua materiallari Namangan davlat universiteti kengashining 2022-yil ____ .08. dagi 1- sonli majlisida muhokama qilinib, ma'qullangan namunaviy fan dasturi asosida tuzilgan.

Tuzuvchi:

f.f.n., dots: Sh.Abdurahmanov

Taqrizchi:

f.f.n., dots: D.Boboxonova

Fanning o'quv-uslubiy majmua materiallari o'zbek tili va adabiyoti kafedrasining 2022-yil __-avgustdagi 1-sonli yig'ilishida muhokamadan o'tgan va fakultet Kengashida ko'rib chiqish uchun tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri:

PhD, katta o'qit. U. Qo'ziyev

O'quv-uslubiy majmua materiallari filologiya fakultetining 2022-yil __-avgustdagi 1-sonli Kengashida ko'rib chiqilgan va foydalanishga tavsiya etilgan.

Fakultet kengashi raisi:

MUNDARIJA

I. Ma’ruzalar matni	
II. Amaliy mashg‘ulot ishlanmalari.....	
III. Mustaqil ta’lim mashg‘ulotlari.....	
IV. Glossariy.....	
V. Ilovalar:	
Fan dasturi.....	
Ishchi fan dasturi	
Tarqatma materiallar.....	
Slaydlar	
Nazorat variantlari.....	
Nazorat testlari.....	

RITORIKA VA ZAMONAVIY ADABIYOT

Reja:

1. Ritorika, mutolaa zamonaviy adabiyot rivojini ta'minlovchi, o'quvchi va badiiy asar munosabatini mustahkamlovchi vosita ekanligi
2. Badiiy asarni o'qish, tushunish, tushuntirish jarayonida ritorika me'zonlarining muhim ahamiyat kasb etishi.
3. Zamonaviy epik, dramatik, lirik janrlarga xos sematik-struktural mohiyatning bevosita mutolaa san'ati va ritorika bilan bog'liqligi.
4. Adabiy turlar va janrlarda mutolaa madaniyati.

Tayanch so'zlar: *nutq madaniyati, notiqlik san'ati, komil notiklik, notiqning vazifalari, voizlik, vz, harbiy notiqalar, notiqlik tarixi, til boyligi, foydalanish yo'llari, nutqning g'oyaviy mazmuni, notiqlikning shartlari.*

Movarounnahr hududida o'rta asrlarda keng amalda bo'lgan eski o'zbek adabiyoti va adabiy tilining eng yuqori cho'qqiga ko'tarilgan, barq urib gullab- yashnagan davri XV – XVI asrlar, yahni buyuk o'zbek san'atkorlari Lutfiy, O'toyi, Sakkokiy, Alisher Navoiy, Zahi-riddin Muhammad Bobur va boshqalar ijodiy faoliyat ko'rsatgan davr hisoblanadi. Bu davrning boshlanishi temuriylar davri bo'lib, shundan boshlab eski o'zbek tilida juda ko'p miqdorda yozma adabiyot, tarixiy va ilmiy asarlar yaratildi.

XIV-XVI asrlar o'zbek poetik adabiy tili deganda «poetik adabiy til» atamasining ishlatishimizda asos bor. Adabiy tilning shakllanish va taraqqiyotini davrlashtirganda, olim-lar bu davrlar adabiy tilini eski o'zbek poetik adabiy tili davri deb nomlaydilar. Chunki Alisher Navoiydan sal avval o'tgan shoirlarning asarlari, Oltin O'rda tsikliga kiruvchi asarlar XV asr oxiri va XVI asr boshidagi klassik eski o'zbek poetik adabiy tili oralig'idagi o'rinni egallagan. Bu va bundan keyingi davrlarda yaratilgan asarlarning deyarli aksariyati poetik asar-lar hisoblanadi. Jumladan, Mavlono Lutfiyning g'azallari, Haydar Xorazmiyning «Gul va Navro'z» dostoni, Atoiy va Sak-kokiy g'azallari, Amiriyning g'azallari va «Dahnoma»si, Mir Haydarning «Mahzan ul-asror» dostoni, Kamol Xo'jandiyning «Latofatnoma»si, Husayniy devoni, Mir Said (Navoiyning togapasi), Muqimiy, Ubaydiy, Omoniy, G'aribiy (Husayn Boyqaro-ning o'g'li SHoh G'arib Mirzo), Gadoiylarning nazmiy asarlari bu davr adabiy tilini poetik adabiy til deyishimizga asos bo'luvchi manbalardir. SHuningdek, Alisher Navoiyning «Xamsa» va «Xazoyin ul-maoniy»siga kiruvchi nazmiy asarlar, Zahi-riddin Muhammad Bobur poetik asarlari ham shunday asar-lardan.

Bundan keyin (XVI-XIX) yashab ijod etgan ijodkorlar Majlisiy, Poshshoxoja, Turdi, Huvaydo, Mashrab, Nishotiy, Fazliy, Gulxaniy, Maxmur, Nodira, Uvaysiy, Munis, SHavqiy, Ogahiy, Miriy, Kamol Xorazmiy, Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Feruz, Avaz O'tarlarning nazmiy asarlari klassik eski o'zbek poetik adabiy tilning shu davrlar namunasi va uning rivoj-lanishiga katta hissa qo'shgan manbalardir.¹


SHu davr eski o'zbek poetik adabiy tili o'ziga xos fonetik, morfologik va leksik xususiyatlari, xarakterli poetik belgi-lari bilan alohida ajralib turar edi. Bu davr adabiy tili ancha qayta ishlangan, silliqlangan, badiiy leksik-semantik tasviriy vositalariga boy, uslubiy jihatdan rang-barang til edi. Mazkur adabiy tilni mahalliy ziyolilar (shoir,yozuvchi va olimlar) «o'zbek tili» atamasi bilan emas, balki «chig'atoy tili» atamasi bilan va, shuningdek, «turk tili», «turkiy», «turkcha» kabi leksik atamalar bilan tilga olgan edilar. Jumladan, Alisher Navoiyda «chig'atoy lafzi», Mirza Mehdixonda «Lug'ati chig'a-toyi», Abdulg'ozi Bahodirxonda «chig'atoy turkisi» degan adabiy terminlar uchraydi. «CHig'atoy» adabiy tilida Navoiydan sal ilgari, XIV asrda o'tgan shoirlar yozishni boshlab bergan bo'lsalar, Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi shoir va boshqa olimlar uni yanada rivojlantirib, yuqori pog'onaga ko'tardilar.

Lutfiy, Atoiy, Sakkokiy va ularning zamondoshlari asar-lari tilida ishlatilgan leksikaning turkiy tilga tegishli qatlamini ,avvalo, fe'llar tashkil qiladi, chunki fe'l turku-miga kiruvchi so'zlar odatda bir tildan ikkinchi tilga kamdan – kam hollarda o'tishi mumkin.




Lutfiy, Atoyi, Sakkokiylar tomonidan ishlatilgan sodda fe'llar semantik jihatdan aniq, bo'lib, ularning qariyb hammasi hozirgi o'zbek tilida ham bor. Bunday sodda fe'llar tilda ko'p va tez-tez ishlatiladigan so'zlar bo'lib, ularning aksariyati harakat, nutq, ko'rish, his etish fe'llari ekanligi bilan xarak-terlanadi.

Qo'shma fe'llar esa sal boshqacharoq. Analitik tipga kir-uvchi tarkibli bunday fe'llarning birinchi komponenti ko'proq arabcha va forsha so'zlardan, qisman turkiy so'zlardan, yordamchi (ikkinchi) komponenti esa har doim turkiy ko'makchi fe'llardan tashkil topgan. SHoirlarimiz ko'makchi fe'llardan ayrimlariga, xususan **aylamoq, etmoq, qilmoq, bo'lmoq, o'lmoq, surmak** so'zlariga ko'proq murojaat qilganlar.

Ba'zan shoirlar birinchi komponenti bir xil arabcha yoki forsha bo'lgan qo'shma fe'lning ikkinchi komponenti sifatida boshqa-boshqa, lekin o'sha mahnodagi ko'makchi fe'llardan foy-dalanadilar. Masalan, Lutfiyda:



¹.Бу ҳақда.қаранг: Ҳамдамов Ж. Ўзбек тили тарихи, I қисм.- Самарқанд: СамДУ нашри, 1999. 3-14-бетлар.



Xuddi shunday holat Atoiyda ham, Sakkokiyda ham bor. Uchala shoir tilining leksikasida alohida bir qatlamni arxaik soʻzlar tashkil etadi. Ularga, asosan, Urxun-Enisey, eski uygʻur yozma yodgorliklarining tiliga xos boʻlgan va XIV-XV asrlarga kelib eskirgan, ishlatilish doirasi ancha torayib qolgan soʻzlarni koʻrsatish mumkin: **ajun** // **aʿʿun** (dunyo), **ilik**(qoʻl), **tapugʻ** // **taʻugʻ** (xizmat), **taʻuugʻchi** // **tabugʻchi** (xizmatkor), **qamuq** // **qamugʻ** (hamma, barcha), **qobmoq** // **qoʻmoq** (oʻrnidan turmoq), **qoʻarmaq** (turgizmoq, Faqat Lutfiyda), **qolmaq** (soʻramoq, iltimos qilmoq), **yazuqsizqz** (gunohsiz, begunoh), **yazi** (dala), **yigʻi** (yigʻi), **üküch** (koʻp), **idi** (xoʻjayin, ega, xudo), **iglig** (bemor, kasalmand), **edgü** (yaxshi), **bitimək** (yozmoq), **tamuq** (doʻzax), **tura** (qonun, urf – odat, qoida), **nagʻu** (chechuk, qanday), **yavuchmaq** (yaqinlashmoq), **yavutmqq** (yaqinga yoʻlatmoq) va boshqalar.

SHoirlarimiz tilida yana shunaqa soʻzlar istehmolda boʻl-ganki, bunday soʻzlar ham eski uygʻur va eski turkiy til yozma yodgorliklariga xos boʻlsa-da, ular XIV-XV asrlar eski oʻzbek adabiy tili uchun arxaik (eskirgan) soʻz hisoblanmaydi, chunki oʻshanday soʻzlar bizning shoirlarimiz tilida ham faol ishla-tiladi. SHunday soʻz-lardan namuna sifatida **asru** (koʻp), **ey**(yuz, bet), **mej**, (xol), **azmaq** (yoʻldan ozmoq, adashmoq), **yazgʻur** (yoʻldan ozdir, adashtir), **enəgə** (enaga), **körk** (chiroy, goʻzallik) kabi leksik birliklarni keltirish mumkin.

Lutfiy, Atoiy, Sakkokiy asarlari tilining leksikasini tahlil qilar ekanmiz, yana bir jihatga ham ehtiborni qaratish lozim deb hisoblaymiz. Gap shundaki, oʻsha davr shoirlari tilida istehmolda boʻlgan leksik birliklarning ayrimlari turkiy tillarning ayrim guruhlariga, aytaylik, oʻgʻuz va qipchoq guruh-lariga tegishli ekanligi bilan xarakterlanadi. Jumladan, shoirlarimiz tilida uchraydigan **əl** (qoʻl), **dudaq** (lab), **delu** (telba), **ittürmək** (yoʻqotmoq), **süchük** (shirin, chuchuk), **uyumaq** // **uyuqlamaq** (uxlamoq) kabi soʻzlar turkiy tillarning janubi- gʻarbiy, yahni oʻgʻuz guruhiga mansub usmonli turk, ozarbayjon kabi tillarga xos leksik birliklar boʻlsa, **üsruk** (mast), **iyəmənmək** (tortinmoq, uyalmoq), **bosagʻa** (boʻsagʻa, oston), **telbə** (telba), **erin** (lab),

kəzgü (oyna), **chiroy** (chiroy, chehra, bet), **yirav** (jirov, shoir, baxshi) kabi soʻzlar qipchoq tillariga xosdir.

Baʼzan soʻzlarning qaysi til yoki dialektga (lahjaga) mansub ekanligini aniqlash qiyin, chunki ular oʻgʻuz tillarida ham, qipchoq tillarida ham barovar ishlatilaveradi. Masalan: **uyat** (uyat), **eski** (eski), **tuzaq** (tuzaq), **qoldash** (oʻrtoq, doʻst, yordamchi), **arī** (sof, toza).

Ayniqsa, Lutfiy asarlari tilida oʻgʻuzcha va qipchoqcha ayrim feʼl shakllari parallel ishlatilganligini koʻramiz: **olmaq** va **bolmaq**, **uynamaq** va **uygʻanmaq**, **oturmaq** va **olturmaq** kabi.

SHunday qilib, Lutfiy, Atoiy, Sakkokiy asarlarida biz ancha taraqqiy qilgan va boy leksik nazmiy adabiy tilni koʻramiz. Bu adabiy tilning qoraxoniylar davri mumtoz uygʻur adabiy tili bilan va XIII-XIV asrlarda Oʻrda atroflarida amalda boʻlgan turkiy adabiy tilning oʻgʻuz-qipchoq koʻrinishi bilan maʼlum darajada aloqasi boʻlgan. Mazkur poetik adabiy til taraqqiyotining yuqori choʻqqisi esa Alisher Navoiy va Bobur asarlari tilida koʻrinadi.

Badiiy nutqning estetik taʼsiri. Obrazli til. Poetik til. Badiiy til va adabiy norma. Obraz va obrazlilik. Badiiy asar tili oʻz mohiyati bilan obrazli tildir. Demak, badiiy obrazlilik tushunchasi ifoda vositalariga bogʻliq, soʻzlardagi emotsionallik, buyokdorlik, taʼsirchanlik kabi holatlar ham muhim oʻrin tutadi..

Tashna yashadik biz mehrga mutloq

Ishqqa, muhabatga tashna oʻtdik biz (A.Oripov)

Keltirilgan parchada ishq - muhabbat soʻzlari garchi oʻzaro mahnodosh boʻlsa-da, bir-biridan farq qiladi. Yahni ishq soʻzida belgi- xususiyat mahnosi muhabbat soʻziga nisbatan kuchliroq.

SHuning uchun ularning yonma-yon qoʻllanilishi tashna soʻzi-ning misrada takror keltirilishi ifodaviy taʼsirchanlikka va obrazlilikka xizmat qilgan.

Xuddi shuningdek, H.Olimjonning quyidagi misralari badiiy obrazlilikni vujudga kelishi uchun mahnodosh soʻz-larning takror qoʻllanilishi asosiy vosita boʻlib kelgan.

Balo, ofatlarni yengib oʻrgangan,

Muhabbating ulugʻ, yuraging kengdir.

Bunday xususiyat badiiy asarning yoki badiiy nutqning asosiy vazifasi boʻlgan estetik taʼsirchanlikni kuchaytiruvchi vositalar qatoriga kiradi. Badiiy nutqning yoki badiiy asar tilining yana bir xususiyati maxsus nutq qurilishiga ega ekanligidir.

Badiiy adabiyot tili adabiy matn bilan uzviy bog'liq holda o'sha matn badiiy adabiyotining asosini tashkil etadi: «Yo'q, hech kimdan sazo chiqmadi. Hamma jim, o'z ishi bilan band» (X.To'x-taboev «Sariq devni minib»). Keltirilgan parchada uchta til vositasi inkor uchun xizmat qilyapti. Ular bir - birini kuchaytiradi. (Yo'q, hech kim, - ma)

Keltirilgan parchada **sazo** so'zi o'rniga uning paronimi **sado** qo'llanilishi lozim edi. Lekin bu matnda so'zlarning bunday noo'rin almashinuvi fikrning aniqligi, matnning ta'sirchan-ligini oshirishga xizmat qilgan.

S.Siyoevning yozishiga qaraganda badiiy til deganda biz avvalo timsolni, majozni tushunamiz. «Adabiyotimizda - deb yozadi yozuvchi,-ko'payib borayotgan illatlardan yana biri ezma-likdir».

Umuman, badiiy asar tilini umumxalq tilining negizi deb tushunish va idrok etish lozim.

«... Hamma jim qoldi. Bu sukunatni yetmish yoshlardagi bir chol buzdi. U, mulla Norqo'ziga qo'lni paxsa qilib dedi:

- Sadqai odam keting-e, ayb emasmi?! Xotin qilish qo'lingizdan kelmasa, taloq qiling! Qo'ying-e, ko'chib keting mahalladan, yo biz ko'chib ketamiz!

Devor ustida turgan 12 yoshdagi bir qiz devordan kesak ko'chirib olib mulla Norqo'ziga o'qtaldi

- Ha, o'l, turqing qursin! Boshinga solaymi shu bilan! Mahallada sasib, o'quvchi qizlarga kun bermaysanu, o'zing noto'g'ri ish qilasan...»

Keltirilgan parchada og'zaki so'zlashuv tilining vositalari- chol tilidagi «**sadqai odam keting-e**», «**ko'chib keting mahal-ladan, yo biz ko'chib ketaylik**», yosh qizcha tilidan aytilgan «**o'l, turqing qursin**», «**boshinga solaymi shu bilan**», «**o'quvchi qizlarga kun bermaysanu, o'zing noto'g'ri ish qilasan**» kabilarning qo'llanishi bilan asarning xalq so'zlashuv tiliga yaqinligi ta'minlangan. Bu keksa chol va yosh bola nutqining o'ziga xosligini berishda va uning ravon hamda aniq ifodalash uchun zamin hozirlagan.

Adabiy til normasining shakllanib, rivojlanib bori-shida badiiy asar tili alohida o'rin tutadi, yahni badiiy asar tili, umuman, badiiy adabiyot uchun o'ziga xos laboratoriya sana-ladi. U shunday laboratoriyaki, umumxalq tilining nutqiy vosi-talari badiiy asar tarkibida qayta ishlanadi:

*«Unsin yelkasiga maymun mingan **daqiqada** naqadar qo'rqqan bo'lsa, hozir shu qadar **tinchidi, xotirjam** bo'ldi: demak, qandoq berahm bo'lsa ham shu atrofda odam bor!*

*Unsin go'ristondan chiqib, katta yo'lga tushib oldi, yarim yo'lga borganida chap qo'lga qattiq og'riq kirganini sezdi. Og'riq qumg'onni eslatdi. CHap qo'lida qumg'on bor edi, qani? Unsin bir to'xtadi-yu, choynakni ikala qo'li bilan bag'riga bosib, **darmoni yetguncha jadalladi.***

*Tushida yuugurganday uning yo'li ko'paymas, **ikki oyog'i** gavdasidan keyinda qolar, qo'lidagi choynak tobora og'irlashib borar edi».*

Daqiqa o'rnida **payt, vaqt, darmon** o'rnida **kuch yoki quvvat, jadalladi** o'rnida **tez yurdi, ikki oyog'i** o'rnida **oyoqlari** so'zlarini ishlatga bo'lar edi. Lekin yozuvchi ishlatmadi. Chunki muallif tanlagan so'zlarning ushbu matndagi jozibasi, kuchi, estetik vazifasi boshqacharoq. Bu so'zlarda yozuvchi ko'nglidagi mahnolar mujassamlashgan. Keltirilgan parchada mahnodosh so'zlar (**tinchidi, xotirjam bo'ldi**) va antonimlar (**qo'rqdi - tinchidi**) yonma-yon qo'llanilishi badiiy matnning uslubiy qimmatini ta'minlagan, obrazlilikni kuchaytirishga vosita bo'lgan.

Nabilar, rasullar, dohiylar oldida

Qabrlar, qasrlar turgandi qator

(A.Oripov «Ona sayyora»)

Nabilar, rasullar, dohiylar - sinonim, **qabrlar, qasrlar** -antonim. Bu parchada o'zaro ohangdosh so'zlar bilan yonma - yon mazmun jihatdan zid bo'lgan paronim so'zlar qo'llanilgan bo'lib, uslubiy ta'sirchanlikni vujudga keltirgan, bu o'rinda **qabr** va **qasr** so'zlari kontekstual antonimlar sanaladi.

O'qilur sevgingga qora janoza ...

Sen bormasang, qora mozor.

(H.Olimjon «Ofeliyaning o'limi»)

Bu parchalarda mozor va janoza so'zlari musibat, o'lim qayg'u alamni ifodalaydi. Lekin shoir bu so'zlar yonida qora so'zini keltirish bilan ularning mahnosini bo'rttirish va kuchaytirishga muvaffaq bo'ldi.

Bu ham badiiy asar tilining adabiy til uchun o'ziga xos ijtimoiy laboratoriya ekanligidan dalolat beradi.

Til paydo bo'lishidan va insoniyatga baxshida etilganidan buyon jamiyatning mahsuli sifatida insonga, uning ezgu-niyatlariga, kelajagiga, hoziriga, taraqqiyotiga, jamiyatning gullab yashnashiga, ilm-fanning ravnaq topib kelishga xizmat qilmoqda. Inson dunyoni til va ongi orqali tanidi va bildi. Tabiat va uning inhomlarini til vositasida o'zlashtirdi. Inson til vositasida turli tillarda va dillarda so'zlashuvchi kishilar qalbiga yo'l topdi. Bir so'z bilan aytganda til – tengi yo'q boylik, bebaho xazina, «ko'ngil mahza-nining qulfi va ko'ngul mahzaning qulfi va ul mahzanning kali-ti»dir.

O'zbek adabiy tilining asoschisi, g'azal mulkining sul-toni – Mavlono Nizomiddin Mir Alisher Navoiy nafaqat she'riyat osmonidagi quyosh, nafaqat nazm bahridagi g'ovvos, balki til va so'z bilag'oni, til madaniyatini keng mahnoda tushungan olim ham edi. Shoirning tahbircha:

Ma'dani inson gavhari so'z durur,

Gulshani odam samari so'z durur.

Navoiy o'z davrida notqlik san'atini yuksak darajaga ko'tardi. So'zning estetik darajasini va vazifasini to'g'ri angla-gan shoir, so'z qudratiga juda katta baho beradi. Notiq yaxshi so'zlashi, fikrini bexato yetkazishi, suhbatdoshi yoki tinglov-chisini o'ziga qarata olishi uchun har bir so'zning salmog'ini o'lchab gapirish, tushunarli va ta'sirchan tilda so'zlash lozimligini qayd qiladi. Buning uchun fikr bayonidagi gaplar tarki-bidagi so'zlar ta'sirchan va kishi ruhiyatiga bevosita yetib boradigan va uni «qitiqlaydigan» bo'lishi kerakligini uqti-radi. Har bir so'z badiiyligidan tashqari, tushunarli va chuqur mahnoli bo'lishi lozimligini aytadi.

Nazorat savollari.

1. Nutqning uslubiy turlarining shakllanishiga qanday asoslar sabab bo'lgan?
2. So'zlashuv uslubining asosiy xususiyatlari nimalardan iborat?
3. Rasmiy uslubning qanday xususiyatlari bor?
4. Ilmiy-uslubning qanday xususiyatlari bor?
5. publitsistik va badiiy uslubning qanday jihatlarini bilasiz?

DRAMADA RITM VA OHANG

Reja:

1. Dramatik asarda ritm va ohangning yetakchi mavqeda turishi. Dramatik asardagi muallif nutqi asosiy ritm va ohang regulyatori vazifasini bajarishi.
2. Qahramonlararo dialogda monolog va ichki nutq talqinida notqlik san'atiga xos marom o'zgarishlarining muqarrarligi.
3. Shu nuqtayi nazardan voizlik va dramatik janrlarning mustahkam aloqadorligi.
4. Dramatik asarlarda notqlik va deklorativ bayonning ahamiyati.

Tayanch so'zlar: *drama, nutq madaniyati, ritm, ohang, muallif nutqi, ritm va ohang regulyatori, qahramonlararo dialog, monolog, ichki nutq, notqlik san'ati, voizlik, dramatik janrlar.*

Notiqning umumiy nutqiy madaniyatining eng muhim uzvlaridan biri ovozning sifati, tovush qurilishi bilan bog'liq xususiyatlardir. Jonli, tovushli nutq va uning barcha unsurlarini to'g'ri voqelantirish ko'nikma va malakalarining jami tilshunoslikda nutq texnikasi deb umumlashtiriladi. Bunda ovozning sifati, nutq jarayonida to'g'ri nafas olish, tovush va tovush qo'shilmalarini aniq talaffuz qilish, aniq diktsiya kabi bir qator hodisalar nazarda tutiladi. Albatta, bundagi bosh masala ovoz masalasidir. Asosiy quroli nutq bo'lgan har qanday odam uchun ovoz hal qiluvchi ahamiyatta molikdir.

XIII asr SHarqining ulkan adibi SHayx Sahdiy SHeroziyning mashhur «Guliston» asarida shunday bir hikoyat bor: «Sanjariyya masjidida bir kishi rag'bat bilan azon aytar erdi, bir ovozi bilanki, eshitganlar andin nafrat etardilar. Masjidning sohibi bir amir erdi, odil va xushxulqlik. Xohlamas erdiki, aning ko'nglini mukaddar aylasa, aydi: «Ey javonmard, bu masjidning qadimgi muazzinlari borki, har birining besh tillo vazifasi bordur. Senga o'n tillo berurmen, tokim bo'lak mahallaga ketarsen». Bu so'zg'a ittifoq ayladilar va muazzin ketdi. Bir muddatdin so'ngra amirning huzuriga qaytib keldi va aydi: «Ey amir, menga zulmu sitam ayladingki, o'n tillo bilan meni bu mahalladin jo'natding. Ul mahallaki, men bordim, menga yigirma tillo berdilarki, bo'lak mahallaga ketsam qabul etayurmen». Amir kuldi va aydi: «Aslo olmag'aysen, zero ki ellik tillog'a ham rozi bo'lurlar». (Sahdiy SHeroziy. Guliston (Mullo Murodxo'ja tarjimasini). - Toshkent: Fan, 2005. — 177—179-betlar.) Yoqimsiz ovoz kishilarni o'ziga jalb qilmaydi, chaqirmaydigina emas, balki bunday ovozdan barcha qochadi, hamma vaqt har kim undan qutulmoq payidan bo'ladi.

Mashhur rus olimi M.V.Lomonosov o'zining «Notqlik bo'yicha qisqacha qo'llanma»sida notiq bo'lish uchun, avvalo, tabiiy qobiliyat zarurligini, tabiiy qobiliyat esa ruhiy va jismoniy turlarga bo'li-nishini aytadi. Olim jismoniy qobiliyat deganda baland va yoqimli ovoz, uzun nafas va baquvvat ko'krak, shuningdek, sog'lom tana va kelishgan qomatni nazarda tutadi. (Lomonosov M.V. Sochineniya. — M.: Sovremennik, 1987. — 238-bet.)

Butungi kunda siyosatchilarning imiji («qiyofasi»)ni yaratishda bir qancha tashqi omillar qatorida ularning ovoz temбри ham muhim ekanligi alohida ta'kidlanadi. (Abdullaev B. «Qiyofalar» jangi yoxud imijni kim yaratadi? — «Hurriyat», 2006 yil 6 dekabrg'.) Umumam siyosatchimi, o'qituvchimi, aktyormi, jurnalistmi, kim bo'lishidaya qathi nazar, uning og'zaki nutqida barcha kommunikativ sifatleri mavjud bo'lsayu ovozida u yoki bu nuqson sezilsa, bunday nutq ta'sir| kuchini kamida yarmiga yo'qotadi. Aytish mumkinki, bir kishigami, yuz kishigami, boringki, ming kishigami, buning farqi yo'q, o'zgaga xitoban aytilgan har qanday nutqda ovozning, ovoz sifatining o'rtnsh favqulodda muhimdir.

«Tabiiy jismoniy qobiliyat» sifatidagi, aytaylik, xirqiroq, chiyildoq, shang'iroq kabi ovozlarining yoqimli bo'lolmasligi, yahni tinglovchi qulog'ini qiynashi tayin. Bunday yoqimsiz ovozdan «libos kiygan» fikrning kattagina qismi nutq idrokining o'ta sezgir va nozik darvozasi bo'lmish quloqdan o'tolmay tashqarida qoladi. Bu, albatta, nutq egasi ko'zlagan maqsad - muayyan bir axborotni tinglovchiga tugal va ta'sirli tarzda yetkazish uchun qulay sharoit yaratmaydi, balki unga monelik qiladi. Bu eski haqiqatni aslo; yoddan chiqarmaslik lozim. Tabiatan ana shunday «quloqni qiynaydigan» ovozga ega bo'lgan odam o'z ishining samarasidan chinakam huzur tuyishi, SHayx Sahdiyning «Guliston»idagi muazzin holiga tushmasligi uchun faoliyatining asosiy quroli nutq bo'lmagan boshqa kasblarning etagini tutgani mahqul.

Sir emaski, faoliyatining asosiy quroli nutq bo'lgan kasblar orasida aktyorlik birinchi o'rinda turadi, buning ustiga, aktyorlar soni ham ayni tur kasblarning boshqalarida mashg'ul bo'lganlar sonidan sezilarli darajada ortikdir.

Aktyorning ovozi, talaffuzi, diktsiyasi, umuman, tirik nutqi hamisha tinglovchilar, ayniqsa, teatrdagi tinglovchilar uchun o'ziga xos etalon, namuna vazifasini bajaradi. Aktyorning tirik nutqidagi kattadir, kichikdir, har qanday nuqson tinglovchi nazaridan chetda qolmaydi, darhol uning diqqatini tortadi. Bunday nuqson aktyor nutqida muntazam kuzatilsa, tinglovchi aktyordan nohaq bo'lsa-da, ranjigan hollarida mazkur nuqson asosida uni sirtdan kalaka, mazax qilishgacha borishi mumkin. Masalan, tinglovchilar o'zaro ana shunday aktyor haqida gaplashganda, uni mazkur nuqsonli ovoz, talaffuz yoki diktsiya bilan eslashadiki, bu umumiy tarbiya jarayoni uchun ham ijobiy holat emas, albatta.

Kasbga sadoqatli aktyor o'z tinglovchisi ko'zi o'ngida qusursiz va qadrli ideal imijini yaratish, uni saqlash uchun hamisha nutqining fonetik rasoligi haqida qayg'urishi zarur. To'g'ri,

tug'ma xirqiroqlik, chiyildoqlik kabi ovozni yoqimsiz qiladigan jihatlardan tamoman qutulishning iloji yo'q. Ammo nutq texnikasini yetarli darajada bilmaslik oqibatida yuzaga keladigan nuqsonlardan fonetik bilimlardan xabardorlik, ovozni yo'lga qo'yish (ruschada «postanovka golosa»), aniq talaffuz qilish, nutq jarayonida to'g'ri nafas olish bo'yicha turli mashqlar yordamida imkon qadar xalos bo'lish mumkin. Mashhur qadimgi yunon notig'i Demosfenning dastlab ovozi past, talaffuzi yomon, nafasi qisqa bo'lganligidan chiroyli va ta'sirli nutq ayta olmaganligi haqida tarixchilar yozganlar. Bu sohani chuqur o'rgangan olim S.Inomxo'jaev ta'kidlaganidek (Inomxo'jaev S. Notiqlik san'ati asoslari. - Toshkent: «Aktyor», 1982. - 86-87-betlar.), keyinroq Demosfen nutq texnikasi asoslarini egallashga juda jiddiy kirishgan. U bir yerto'la qazib, shu yerto'lada ovozin rivojlantirish, diktsiya, deklamatsiya bo'yicha oylab mashqlar qiladi. Talaffuzidagi nuqsonlar, «r» tovushini aytolmaslik, ba'zi tovushlarni noaniq aytish kabilarni bartaraf etish maqsadida og'ziga mayda toshlarni solib, she'rlar, turli matnlarni o'qish bilan shug'ullanadi. Ovozini rivojlantirish, ovoz apparatlarini chiniqtirish uchun esa tepaliklarga yugurib chiqib, yugurib tushib, nafasini ushlab turgan holda she'rlarni deklamatsiya qiladi. Demosfen gapirayotganda bir yelkasini hadeb ko'taraverish odatidan qutulish uchun yerto'lasining shiftiga uchi o'tkir xanjarni osib qo'yib, yelkasini xanjarning ayni uchiga to'g'rilab turib, mashqlarini davom ettiradi. Ana shunday mashaqqatli va muntazam mashqlar tufayli Demosfen notiqlikning yuksak cho'qqisini zabt ettan.

Aktyor nutqida kuzatiladigan kamchiliklardan biri fonatsiya jarayonida, yahni nutq hosil bo'lish paytida nafas olishdagi tartibsizliklar bilan bog'liq. Fonatsiya jarayonida nafas olish va nafas chiqarish fazalari shunday yo'lga qo'yilishi kerakki, nafas olish zo'riqishsiz, bir qadar jadalroq, nafas chiqarish esa tekis, bir me'yorda va davomliroq kechishi lozim. Nafas chiqarish qanchalik davomli, uzun bo'lsa, shunchalik yaxshi. Zotan, tovush, nutq ayni shu nafas chiqarish jarayonida hosil bo'ladi.

Fonatsiyada nafas olish va nafas chiqarish fazalarining ketma-ketligi, almashinish tartibini to'g'ri tasavvur etmoq kerak. Bu fazalar bilan nutqning hajmiy va, albatta, mazmuniy-estetik qurilishi o'rtasidagi mutanosiblikni to'g'ri belgilamaslik oqibatida nafasning yetmay qolishi, shunga ko'ra bir nafas bilan yaxlit aytilishi lozim bo'lgan nutq parchasining bo'linib ketishi, mantiqiy mazmunni buzadigan noo'rin pauzaning paydo bo'lishi kabi nuqsonlar o'rta qiqadi. Masalan, Qadimiy va boy tilimizning sofliginsh sakdash xdr birimizning burchimizdir jumlas i aytilarkan, masalan har so'zidan keyin nafas tugab qolsa, ilojisiz, nafas olish uchun to'xtalish majburiyati paydo bo'ladi, bu esa jumlaning noto'g'ri bo'linishiga olib keladi. Yoki ba'zan noto'g'ri taqsimlangan nafas, jumlaning oxiriga borib yetmay qolsa, jumladagi so'nggi so'z «yamlanib» talaffuz qilinadi, so'zlovchi xuddi bo'g'ilib qolganday, juda qiynalganday tuyuladi, bu tinglovchi uchun ham sezilarli darajada qiyn oq tug'diradi.

Yana bir misol. Odam o'ta hayajonlanganida, qattiq qo'rqqanida yoki og'ir musibat ichida bo'lganida, umuman, turli hissiy holatlarga tushganida so'zlarkan, nafas olish va nafas chiqarish fazalarini nazorat qila olmay qoladi. Buning natijasida normal fonatsiya uchun nafasi to'g'ri taqsimlanmaydi, ko'pincha oddiy bir so'z uchun ham nafasi yetmay qoladi. Tabiiyki, uning nutqi, so'zlari, tovushlari g'ayriodatiy bir shakllarda voqelanadi. Aktyor bunday holatlarni ham hisobga olishi maqsadga muvofiq. U namoyish jarayonida keraksiz hissiyot va hayajonlarini jilovlab olishi kerak, aks holda bu holatlar uning nutqiga o'zining salbiy ta'sirini o'tkazishi mumkin.

Nutq texnikasini egallashda umumiy tarzda bo'lsa-da, fonetik bilimlardan boxabarlik zarur. Ma'lumki, tovushning fizik-akustik xususiyatlari uning balandligi, kuchi, tembri (bo'yoqdorligi), cho'ziqligi kabi sifatlardan tarkib topadi. Har qanday og'zaki nutqning yashashini ta'minlaydigan intonatsiyaning prosodik unsurlari bo'lmish nutq melodikasi, nutq ritmi, nutq tempi (tezligi), nutq tembri kabi tushunchalar asosida ham mazkur fizik-akustik xususiyatlar yotadi. Masalan, «nutqda ovozning (tonning) baland-past tarzda to'liqlanishi melodikani yuzaga keltiradi, melodika esa gapning ifoda maqsadiga yoki emotsionallikka ko'ra turlarini belgilashda, sintagmalarni, kirish so'z yoki kiritma gaplarni ifodalashda muhim vosita sanaladi. SHuni alohida ta'kidlash kerakki, tebranish chastotasi nutqda boshqa akustik vositalar (urg'u, tembr, temp kabilar) bilan munosabatga kirishib, murakkab tovushni hosil qilishi ham mumkin, bunday murakkab tovushlardan esa turli ekspressiv-stilistik maqsadlarda, ayniqsa, she'riy misralardagi tovush tovlanishlarini tarkib toptirishda foydalaniladi» (Jamolxonov X., A. Hozirgi o'zbek adabiy tili. 1-qism. — Toshkent, 2004. — 23-bet.). Aktyor o'z nutqida bu fonetik imkoniyatlar va qonuniyatlarni to'g'ri va o'rinli namoyon eta bilishi lozim.

Ayrim aktyorlar ko'pincha namoyish jarayonida boshqa joylardagiga qaraganda anchayin baland ovozda gapiradilar. Bu yo'l bilan go'yoki sinfdagi shovqinni «bosib» qo'yganday bo'ladilar. Ammo bu usulning ta'siri baribir u qadar katta bo'lmaydi, faqat aktyorning ovoz apparati keraksiz zo'riqadi, o'zi tez charchaydi. Yana ba'zi aktyorlar borki, ular namoyishda deyarli past ovozda so'zlaydilar. Bunda ham aktyorning o'zi qiynaladi, ammo sezilarli samaraga erishmaydi, faqat bunday ovoz bo'g'iqlik, tussiz eshitiladi va tinglovchining diqqatini ushlab turmaydi.

Tajribali aktyor faqat baland yoki faqat past ovozda namoyish o'tmaydi. Tovushlarning balandligi, kuchi, tembri va cho'ziqligidan iborat akustik sifatlarining turli darajalari (bu darajalarning diapazoni juda keng)ni bayon qilayotgan axborotning mazmuni va tabiati, ayni paytda sinfdagi tinglovchilarning ruhi-kayfiyatiga muvofiq ravishda modulyatsiya qiladi, yahni almashtirib turadi. Ana shu tarzda monoton, quruq, ifodalilikdan mahrum nutq shaklidan qutuladi va nutqning ohangdorligi, ta'sirchanligiga erishadi.

Aktyorning nutq texnikasi bilan bog'liq nuqsonlardan yana biri nutq tempi, tezligini to'g'ri belgilamaslik yoki tezlik-sekinlikning maqsadga ko'ra mo'htadilligini saqlay olmaslikdan iborat. Nutqning tempi, albatta, bayon qilinayotgan materialning mohiyatiga, ifoda-lanayotgan fikr strukturasiga uyg'un bo'lishi maqsadga muvofiq, aks holda, yahni aktyor materialni faqat jadal tempda bayon qilsa, tinglovchi axborotni o'ziniki qilib olishga, axborot tarkibidagi muhim jihatlarni o'z vaqtida ilgashga, to'la idrok etishga qiynaladi. Boshqacha qilib aytganda, tinglovchining idrok surhati aktyorning nutqi tezligidan orqada qoladi, unga «etib yurolmaydi». Zotan, aktyor nutqidagi me'yoridan ortiq jadal temp namoyish berish meto-dikasi qoidalari uchun ham begonadir. Aktyor tinglovchilarning o'zlashtirish qobiliyatlari, ayni namoyish paytidagi ruhiyati, charchagan yoki charchamaganligi, materialni kanday qabul qilayotganligidan kelib chiqqan holda nutq tempini tanlasa, uni o'rni bilan o'zgartirib tursa, ham pedagogik, ham psixologik jihatdan to'g'ri bo'ladi.

Nutq texnikasida diktsiya masalasi ham aloxida o'rin tutadi. Har bir tovush, so'zning to'g'ri va aniq talaffuz qilinishi, nutq oqimida so'z shakllari va gaplarning «chaynalmaligi», ayniqsa, aktyor nutqi uchun jiddiy talablardandir. Taassufki, ba'zan aktyorlar nutqida ham diktsiya noaniqligi bilan bog'liq nuqsonlar kuzatiladi. Masalan, ba'zan «z» tovushini jarangsiz «s» tovushiga moyil tarzda talaffuz qilish uchraydi: siz ~ sis, eshitdingiz — eshitdingis kabi. Bu va bu singari nuqsonlar nutq tovushlarining hosil bo'lish o'rinlarini yaxshi bilmaslik va artikulyatsion apparat (tovush hosil qilishda ishtirok etadigan nutq ahzolari)ning yetarli darajada faol emasligi natijasida paydo bo'ladi. Noto'g'ri yoki noaniq talaffuz qilinadigan tovushning hosil bo'lishida ishtirok etadigan nutq ahzolarining faolligini oshirish yo'li bilan kishi nutqidagi ana shunday diktsion xatolarni tuzatish mumkin. Buning uchun xilma-xiya mashqlar yaxshi yordam beradi. Masalan, turli tez aytishlar, maqssh va matallar, turli mazmundagi matnlarni muntazam ovoz chiqarisi takrorlash ana shunday mashqlarning bir ko'rinishidir.

Xulosa shuki, notiq, xususan, aktyor o'zining nutk texnikasinya takomillashtirish borasida doimiy qayg'urishi, tilning tovunn qurilishi bilan bog'liq bilimlardan umumiy tarzda bo'lsa-da,,, xabardor bo'lishi, kerak bo'lganda, o'z nutqidagi nuqsonlarni| bartaraf etishga yordam beradigan mashqlardan muttasil foydalanib) borishi maqsadga muvofiq. CHunki tugal nutq texnikasisiz aktyorning, har bir nutq tuzuvchining og'zaki nutqi madaniyatini) aslo raso deb bo'lmaydi.

Savollar:

1. Nutq texnikasi deganda nimani tushunasiz?
2. **Notiq (aktyor)ning talaffuzi qanday bo'lishi kerak?**
3. **Nutq texnikasi necha xil bopladi?**
4. **Kognitiv ta'lim tizimi afzalliklari nimada?**

5. Sahna odobi deganda nimani tushunasiz?
6. Fikrni qanday ifodalash usullari mavjud?
7. Aktyorning nutq odobi bilan o'zining odobi haqida qanday bog'liqlik bor?

EPIK IJODDA NUTQ VA MUTOLAA MASALASI

Reja:

1. Epik ijod namunalarining mutolaa san'ati bilan mushtarak holatda yashashi qonuniyligi.
2. Mutolaa jarayonida notqlikka xos marom, ohang, urg'u, talaffuz va shakllari, pafos bilan bog'liq nutq ko'rinishlari uchrashi.
3. Epik asarlarda badiiy nutq masalasi. Qahramon etikasi va notqlik munosabati haqida. Personaj nutqida muallif axloqiy qarashlarining aks etishi.
4. Epik asarlarni ifodali o'qish. Liro-epik asarlar mutolaa qilishda ritmning o'rni. Epik asarlarni mutolaa qilishda ritmli nasr-sa'jning o'rni. Sa'jli o'qish-notqlik madaniyatini rivojlantiruvchi muhim omil sifatida.

Tayanch so'zlar: *epik ijod, mutolaa san'ati, marom, ohang, urg'u, talaffuz va ifoda, retseptiv vazifa, obraz, personaj, ifoda shakllari, pafos.*

Mohir so'z san'atkor har bir so'zning xalq orasidagi, muayyan sotsial tabaqa, kattalar va bolalar o'rtasidagi qo'llanishidagi mahno qirralarini ham muntazam ko'rsata oladi. Mana, «Mayiz yemagan xotin» hikoyasidan parcha: Xu o'l, turqing qursin! Boshingga solaymi shu bilan! Mahallada sasib, o'kuvchi qizlarga kun bermay-san-u, o'zing noto'g'ri ish qilasan...

Parchadagi gaplar o'n ikki yoshlardagi o'quvchi qizning gaplari, ayniqsa, oxirgi gapdagi noto'g'ri so'zining o'quvchi tasavvuriga xos bir mahno qirradi yaqqol sezilib turibdi. Ayni o'rinda noto'g'ri so'zining mahno hajmi anchayin katta. Yosh o'quvchi tasavvuriga ko'ra jamiki yomon, nomaqbul ishlar noto'g'ri ishlardir, shuning uchun ham o'quvchi nutqidagi bu so'zda ham nafrat, ham kichik bir o'ch mujassam. Kattalar nutqida ayni so'z mazmunan bunday hajmga ega emas, yozuvchi bu kabi farqlarni ziyraklik bilan his qiladi.

A.Qahhorning bir jumlasida qo'llangan so'z keyingi jumla mazmuni fonida yana ham tiniqlashadi, naqadar o'z o'rnida ekanligi ravshanlashadi. «Bemor» hikoyasining birinchi jumlasida shunday: Sotiboldining xotini og'rib kirdi. Ma'lumki, og'rib kolmok fe'lining anchagina sinonimi bor (betob bo'lmoq kasal bo'lmok) tobi qochmoq mazasi qochmok va hokazo), lekin yozuvchi aynan shu fe'lni qo'llaydi. Hikoyadagi ikkinchi jumla: Sotiboldi kasalni o'qitdi bo'lmadi, tabibga ko'rsatdi. Bu jumla og'rib qolmok fe'lining mahnosini yanada ta'kidlaydi, og'riqning - ham tan, ham qalb og'rig'ining chuqurligi va bu og'riq oldida Sotiboldining chorasizligi alohida urg'u oladi.

Endi yozuvchining «Tomoshabog'» hikoyasiga ehtibor qilaylik. Hikoya shunday boshlanadi: Hamroqulning tobi qochdi. Tabiiyki, tobi qochmoq iborasi ham og'rib qolmoq fe'li

mansub bo'lgan sinonimik katorga kiradi, lekin yozuvchi bu o'rinda ayni iborani tanlagan. Hikoyaning ikkinchi jumlasida bunday: *Kim biladi, kecha kechkurungi xudoyi osh yokjadimi, yo ertalab choynak qadaqlatib ketgan kishining nosida bir gap bor ekanmi...* Mana shu ikkinchi jumlaning o'ziyoq mazkur o'rinda tobi qochmoq iborasining joiz ekanligini ko'rsatib turibdi.

CHunki bu tip qo'shma gap uzvlarining o'zaro bog'lanishi bog'langan qo'shma gaplardagiga qaraganda ancha zich va mustahkam bo'ladi. Umuman, gaplarning lisoniy va mantiqiy bog'lanishi A.Qahhor hikoyalarida benihoya raso, bir gap o'zidan keyingi gapni, albatta, mazmuniy-mantiqiy jihatdan qathiy taqozo etib turadi. Bu qathiy bog'lanish esa hikoyadagi voqea va aytilmoqchi bo'lgan g'oyaga mutlaqo uyg'un bo'lib tushadi, hikoyadagi umumiy intonatsiyaning, biror darajada bo'lsin, susayishiga yo'l qo'ymaydi. Ana shular uchun bo'lsa kerak, Abdulla Qahhorning benazir hikoyalarini hatto xuddi she'riy asar kabi to'laligicha yod olish mumkin.

Badiiy tasvir vositasi sifatida nutqqa olib kiriladigan o'xshatish ham fikr mantig'i va hissiy-ruhiy holat bilan to'liq uyg'unlik kasb etmasa, nutqning jo'yaliligi haqida gapirish qiyin. Atoqli rus adibi M.Yu.Lermontov o'zining mashhur «Zamonamiz qahramoni» romanining dastlabki variantida oshiq ofitser Grushnitskiyning mundiridagi epoletlar (maxsus pogon) ni kotletga o'xshatadi. Romanning keyingi tahririda esa adib bu o'xshatishdan voz kechadi va oshiq Grushnitskiyning epoletlarini Amurning qanotchalariga o'xshatadi. Albatta, birinchi o'xshatish juda ham aniq va konkret, chindan ham, epoletlar shaklan kotletga juda ham o'xshaydi, ammo oshiq qahramonning hissiy-ruhiy holati bilan mutlaqo bog'lanmaydi; ikkinchi o'xshatish esa oshiqning ruhiy holati bilan hissiy aloqadorlikka ega, yahni Amur - yunon afsonalarida sevgi xudosi demakdir. SHuning uchun ham ayni shu keyingi o'xshatish bejo yoki beta'sir emas, balki behad jo'yali va ta'sirlidir.

Nutqdagi har qanday qiyoslash ham o'z o'rnida bo'lishi lozim. Noo'rin qullangan qiyoslash nutqning jo'yaliligiga salbiy ta'sir qiladi. Masalan mana bu jumladagi qiyoslashni jo'yali deb bo'lmaydi: Kishi hayotini saqlab qolish yetti qavatli imorat qurishdan ham murakkabrok, deyishadi («Xurriyat», 2006 yil 5 iyulg'). Avvalo, hech kim bunday demaydi, xalq orasida bunday matalnamo ibora yo'q, demak, deyishadi so'z shakli joiz emas. Bunday qiyoslashning jo'yali emasligi shundaki, kishi hayotini saqlab qolish, albatta, murakkab va sharafl*ish, ammo uning murakkabligini aynan yetti qavatli imorat qurish bilan solishstrishning biron-bir mantiqiy asosi ham, me'yorga daxldor mahnosi ham yo'q. Nega olti yoki sakkiz, o'n, Yirirma qavatli imorat qurish qiyos etaloni sifatida olinmagan? Ko'rinadiki, mazkur jumlada nutqning jo'yalilik sifati oqsoq.

Mana bu parchaga ehtibor beraylik:

— *Kechirasiz, o'zingizni tanishtirmadingiz.*

— *Asli fargonalikman. Ismim Kamola. Hozirda ikkinchi oilam bilan Toshkentda yashayman.*

— *O'z tugilgan joyingdan olisda yashashning ham azoblari bor...*

— *Albatta. O'zga yurtida shox, bo'lguncha, o'z yurtida gado bo'l deganlari haq ekan («Xonadon», 2006 yil 24 avgust).*

Bu nutqiy parchadagi O'zga yurtida shox bo'lguncha, o'z yurtida gado bo'l maqoli o'z o'rnida qo'llanmagan, chunki bu kabi vaziyatlarga maqolning mazmuni muvofiq kelmaydi. Tabiiyki, Farg'ona va Toshkent boshqa-boshqa yurtlardagi shaharlar emas. Nutqqa olib kiriladigan maqol-mataldir, turli hikmatli so'zlardir yoki asarlardan olingan iqtiboslardir, albatta, nutq vaziyati, ruhiyati va mantig'i bilan uyg'un bo'lsagina, jo'yali nutq sifatini ola biladi.

Kichkintoylar nutqini o'stirishga bag'pishlangan bir qo'llanmada (S.Jo'raev, H.Qodirov) jo'yalilik sifatidan mahrum bo'lgan ancha-muncha jumalarni ko'rish mumkin. Masalan, bog'cha bolalari uchun Sog'likda ko'rishaylik! Omon bo'lsak, albatta, ko'rishamiz! kabi iiboralarni o'rganish tavsiya etilgan. Holbuki, bu jumlar bog'cha yoshidagi bola nutqi uchun mutlaqo xos emas, bola tilida ular jo'yali nutq sifatiga sohib bo'la olmaydi. Ular bola nutqida hatto chuchmal, kulgili eshitilishini isbotlash kerak emas. Bunday jumlar kattalar, keksalar nutqidagina mazkur sifatni ola biladi. Yoki yana bir jumlani ko'raylik: Mashg'ulot davomida «yaxshi» va «ahlo» baqolar olgan bolalarni pedagog o'z oldiga chakirib, minnatdorchilik bildiradi. Bu jumlada minnatdorchilik bildirmoq iborasi noo'rin qo'llangan, shuning uchun nutqni jo'yali deb bo'lmaydi. Bog'cha bolasi va pedagog o'rtasidagi yosh va maqom farqi mazkur iborani | qo'llashga monelik qiladi, bunday o'rinda jo'yalilik sifati rag'bat-] lantirmoq so'zini ishlatishni taqozo etadi.

Qisqasi, nutqning jo'yalilik sifatini ta'minlash uchun nutq tuzuvchi nutqiy vaziyatni, ifodalanmoqchi mazmunni, tinglovchi xususiyatlarini, muloqotning axloqiy-estetik jihatlarini yetarli darajada tasavvur etmog'i lozim.

Nazorat savollari.

1. Til vositalari deganda nimalarni tushunasiz?
2. Tilning tasviriy vositalaridan foydalanishda qanday shartlarga rioya qilinadi?
3. Trop nima? Uning qanday turlari bor?
4. Uslubiy figuralarning qanday turlari bor?

LIRIK JANRLARDA MAROM VA OHANG

Reja:

1. Lirik janrlar asosida marom va ohang turishi, voiz nutqida ham marom va ohang ishtirokiga alohida e'tibor qaratilishi.
2. Ritor tanlagan mavzuga qarab lirik janrlarga xos tez, sekin, yuqori yoki past ohanglarning o'rin almashib turishi.
3. She'r vaznlariga xos maromning nutq materiali semantikasiga bevosita ta'sir etishi.
4. Ifodali o'qish va mutolaa san'ati. Aruz alifbosi. Aruz vazni nazariyasi. Aruz vaznida lirik asarlarni ifodali o'qish.
5. Barmoq va sarbast she'rlarini ifodali o'qish muammolari. Badiiy asar mutolaasi. Badiiy asar mutolaasiga qo'yiladigan talablar.

Tayanch so'zlar: *Lirik janrlar, marom, ohang, voiz, ritor, ohang, she'r, vazn, turoq*

Ma'lumki, ifodali o'qiladigan asar matni qanchalik mukammal bo'lmasin, u talqin etilishiga qarab, muayyan ta'sir kuchiga ega bo'ladi, talqin jarayoni esa asarni ifodali o'quvchining jismoniy va ruhiy holatlaridir. Demak, talqin jarayonida ifodali o'quvchining butun vujudi talqin vositasi bo'lib xizmat qiladi. Ijrochining jismoniy va ruhiy holatini chiniqtiruvchi mashqlar kom'leksni nutq texnikasi deyiladi.

Nutq texnikasi, o'z ob'yekti va funktsiyasiga ko'ra to'rt muhim qismga bo'linadi: ovoz, nafas artikulyatsiyasi va diktsiya.

Ovoz inson oily nerv sistemasining msuli bo'lib, uning manbai tomoqda joylashgan tovush 'oychalaridir. Oliy nerv sistemasining muayyan signali bilan tovush paychalari titraydi, cho'ziladi, qisqaradi, g'oyat nafis harakatlar kom'leksini bajaradi, natijada tovush paydo bo'ladi, tashqariga chiqqunchga qadar turli qaytargich (rezenator) larga urilib chiqqan tovush ovoz deyiladi.

Nutq so'zlash jarayonida ovozning balandlashi va pasayib turishi modulyatsiya deb yuritiladi.

Ovoz baland-pastligi, yo'g'on-ingichkaligiga qarab tepor, bariton, bas, soprano, messo-soprano, alt kabi turlarga bo'linadi.

Ovozning nutq, tovush doirasida va muayyan vaqt birligi davomida tovlanishi ohang (intonatsiya) deyiladi.

Nafas nutq texnikasining muhim qismidir. Nafas ovoz va nutqni tinglovchiga yetkazish, ovoz kuchini tashkil etish vositasidir. Nafas uch turga – ko`krak, qorin yoki o`rta va diafrag`mal nafas turlariga bo`linadi.

Artukulyatsiya deb, nutq a`zolarining faol, passiv, normal harakat qilinishiga qarab artikulyatsiya yaxshi, yomon, normal bo`lishi mumkin.

Nutq so`zlanayotgan vaqtda nuqsonsiz bo`lgan artukulyatsiya normal hisoblanadi. Ammo ifodali o`qish uchun uning o`zi kifoya qilmaydi. Shunga ko`ra normal artikulyatsiya mashqlar vositasida takomillashtiriladi. Artikulyatsiyani yaxshilash uchun o`tkaziladigan mashqlar artikulyatsion gimnastika deyiladi. Ular quyidagilardir:

1. Lab mashqlari
2. Til mashqlari
3. Jag` mashqlari

Diktsiya nutq mashqlarining talaffuz etish me`yorlaridir. Nutq tovushlaridagi nuqsonlarni bartaraf etish, talaffuzni aniq va yorqinlashtirish maqsadida uyushtirilgan mashq diktsion mashq deyiladi.

Ifodali o`qishning ruhiy-grammatik asoslari

Sur`at. Nutqning muayyan tezlikda matn mazmuniga mos ravishda aytilishi sur`at deyiladi.

Sur`at uch turga ajratiladi:

- a) o`rtacha;
- b) tezlanuvchan;
- c) pasayuvchi sur`at (o`qituvchi she`riy va nasriy asarlardagi sur`at turlariga amal qilib ifodali o`qib izohlaydi).

TO`XTAM To`xtam (pauza) ovozning vaqtincha to`xtatish (to`xtab qolish, dam olish, oraliq) bo`lib, bu davrda nutq a`zolari artukulyatsiyadan to`xtaydi va nutq oqimi uziladi. To`xtam davrida nafas olinadi va nutqning navbatdagi qismini talaffuz etishga hozirlik ko`riladi.

To`xtamdan turli maqsadlarda foydalaniladi. Shunga ko`ra u quyidagi turlarga bo`linadi:

- a) nafasni rostlash to`xtami.

Nutqning bir nafas tugaguncha aytilgan qismidan so`ng yangi nafas olish uchun qilingan to`xtamni nafasni rostlash to`xtami deyiladi. Bu to`xtamda o`kaga havo olinadi. Shuni ta`kidlash joizki, matnning duch kelgan joyida nafas rostlanmaydi.

- b) mantiqiy to`xtam.

Mantiqiy to'xtam nutqning mantiq tomoni bilan bog'liq bo'lib, so'z guruhlarini bir-biridan aniq ajratish, matnning ma'nosini to'la ochish uchun xizmat qiladi. Bu to'xtam mantiq qonunlariga bo'ysunib, sintaktik talablarga rioya qilinmaydi.

Orazin yo'g'och ko'zimdin sochilur har lza yosh,
Bo'ylakim paydo bo'lur yulduz nihon bo'lg'och quyosh.

c) ruhiy to'xtam

So'zlovchining kuchli hayajonini, borliq voqea hodisalaridan olgan taassurotlarin ifodalovchi to'xtam ruhiy to'xtam deyiladi. (misollar she'riy va nasriy matnlar asosida keltiriladi).

d) normal to'xtam.

Ritmik birliklarning bog'lanish o'rniga mos keladigan to'xtam normal to'xtam deyiladi. Normal to'xtam nutqning hajm va ohang jihatidan bir-biriga teng qismlari orasidagi to'xtalishdir. Normal to'xtam she'riy nutqda ko'zlangan mazmunni ohangni yuzaga chiqarishda muhim ahamiyatga ega.

Tog'lardagi qip-qizil lola!
Bo'lib go'yo yoqut payola!
Buloqlardan uzatadi suv!
El ko'zidan qochadi uyqu!

e) tobe to'xtam

Tobe to'xtam sintaktik tobelik munosabatini ifodalaydi. Odatda, ergash gaplar tobelik to'xtami orqali bosh gapdan ajratiladi: Kimning aravasiga o'tirsang, o'shaning qo'shig'ini ayt.

f) ogohlantiruvchi to'xtam.

O'zidan keyin nutqqa yangi qism kiritilishini ko'rsatish uchun xizmat qiladigan to'xtam ogohlantiruvchi to'xtam deb yuritiladi. Yozuvda bunday to'xtamni ko'rsatish uchun ikki nuqta qo'yiladi:

Bir qaraysan: bog'u ko'lda qayiqalar suzar,
Qayrag'ochlar soyalarin suvlarga cho'zar.

g) ajratuvchi to'xtam.

Nutqda ishtirok etuvchi sintaktik birliklarni bir-biridan farqlashni ifodalaydigan pauza ajratuvchi to'xtam deyiladi. Bu to'xtam ikki xil.

1. Sintaktik birliklarni ajratuvchi to'xtam.
2. Gaplarni ajratuvchi to'xtam (misollar she'riy yoki nasriy asarlar yordamida keltiriladi).

h) Kesim to'xtami

predikativlik aloqasini ifodalovchi to`xtam kesim to`xtam deyiladi:

Uning otasi – tadbirkor.

i) Birlashtiruvchi to`xtam.

O`rnida biriktiruvchi bog`lovchilarni qo`shish mumkin bo`lgan to`xtam birlashtiruvchi to`xtam deyiladi.

Tildagi eng sodda, tabiiy va qadimiy so`zlar tovushga yoki obrazga taqlid asosida yuzaga kelgan so`zlar hisoblanadi. Tilshunoslikda tilning paydo bo`lishi bilan bog`liq talqinlarda taqlidiy so`zlar masalasiga ham alohida o`rin beriladi. Hatto til tabiatdagi mavjud xilma-xil tovushlarga taqlid qilish asosida yuzaga kelgan degan qarash ham yo`q emas. Aytish mumkinki, muayyan predmetta xos bo`lgan tovushli harakat, asosan, taqlidiy fe`l bilan ifodalanadi. Bunday so`zlar tegishli predmetni juda aniq-tiniq tasavvur qilish imkonini beradi, o`sha predmetning ovozi yoki obrazi quloqlar ostida aks sado berib turadi. Ana shu mahnoda taqlidiy so`zlarning badiiylik quvvati beqiyosdir. Xuddi shunday so`zlar she`riy misralarda qofiyalanib kelganda, bu quvvat yanada bo`rtib ko`rinadi. Mana Alpomishning Barchinni ozod qilishga otlanib, shijoat bilan yelib borayotgani tasviri:

«Dubulg`a boshda dungullab,
Kark qubba qalqon qarqillab,
Tilla poyanak urilgan
Uzangilarga sharqillab,
Bedov otlari dirkillab,
Olg`ir qushdayin charqillab,
Qo`lda nayzasi so`lqillab,
Yurmoqchi uzoq yo`liga,
Qaramay o`ngu so`liga,
Yetsam deb yorning eliga
Siltab yuradi Boychibor...
Yo`l yurar davlatli shunqor...»

Asardagi deyarli barcha she`riy satrlar til badiiyati jihatidan shu qadar sayqallangan, mantiq va mahno teranligi jihatidan shu qadar ishlangan, majozlar mazmun ko`lamdorligi va hayotiy voqelikka mutanosibligi jihatidan shu qadar pishiqtirilganki, ularning aksariyati xalq donoligining qoliqlangan durdonalari - hikmatlar shaklini olgan. Ulardagi xalqimiz ming mashaqqatlar bilan ko`rib-ko`rib boshidan o`tkazgan tajribalar asosida yuzaga kelgan xulosalar qaymog`ining quyuqligi, qayralgan mantiq va so`z salobati kishini hayratga soladi:

«To o`lguncha so`ylab qolgan til bo`lsin,
G`animning shavkati kuyib kul bo`lsin»;

«Kuchuk bosmas yo'lbars - sherning izini,
Esi bor biladi gapning tuzini»;
«Dam shu damdir, o'zga damni dam dema,
Boshing eson, davlatingni kam dema»;
«Davlat qo'nsa bir chibinning boshiga,
Semurg' qushlar salom berar qoshiga»;
«Sozandalar sozin chertar qo'l bilan,
Yomon odam kuydiradi til bilan»;
«Xazon bo'lsa zog'lar qo'nar gulshanga»;
«Gul ketar bo'lsa, guliston emranar,
SHahar vayron bo'lsa, sulton tebranar,
Mol borida hamma odam do'st edi,
Boshdan davlat qaytsa, tuqqan emranar».

So'z san'atkori muayyan bir tilda dunyoni badiiy obrazlar orqali qayta gavdalantiradi, ammo dunyoni bunday badiiy qayta gavdalan-tirish barcha ijodkorlarda aynan bir xil, aynan bir yo'sinda bo'ladigan bo'lsa, buning oddiy taqlidchilikdan farqi qolmaydi. SHuning uchun ham muayyan bir tilda ijod qiladigan ikki ijodkorning dunyoni ko'rishi, eshitishi va badiiy idrok qilishida o'ziga xos farq mavjud bo'lishi lozimligi barkamol badiiyatning azaliy talabidir. Zotan, ana shu farq ijodkor mahorati, uning til va uslubdagi ustaligi, o'ziga xosligi tarozisining shayini bo'lib keladi. Tabiiyki, dunyoni o'ziga xos ko'rish, eshitish va badiiy idrok etish, eng avvalo, badiiy tilda zuhur etadi. SHayxzoda she'riyati benazir so'z mo'hjizalari sifatida buning to'liq va bo'liq shahodatidir.

SHayxzodaning «SHoir qalbi dunyoni tinglar» she'rida shunday misralar bor:

SHoir qalbin darchalaridan
talay tovush kelib kiradi.
Tovushlarning kichik, ulug'i,
tovushlarning hidi — bo'yi bor.
Tovushlarning sovuq, ilig'i,
tovushlarning rangi-ro'yi bor.
Tovushlarning shirin-achchig'i,
bordir hatto yumshoq, qattig'i.
SHoir rassom bo'lsaydi agar,
chizar edi shundan lavhalar.

SHoirning «Tovushlar» she'ridan olingan quyidagi parchalarda bunday so'zlar yaratgan simfoniyani tinglab, huzurlanmaslikning imkoni yo'q:

SHo'rtepaning alohida bir gashti bor kechasi...

Alalxusus avgust chog'i

Oy suzilib kularkan...

Undan ko'ra xastaga

Ko'roydin tunlar mahqul.

Ko'rmayсан, lekin eshitasan olamni.

Kezmaysan, lekin sezasan olamni..

Razm solib tinglayman...

Har tovushning bor hikmati va o'z sababi...

Ana ko'ppak esnab-esnab uvullaydi...

Ana mashinaning o'lchovlik nafasi...

Balki jar yoqasidan

Havolandi ashula...

Ana tovush:

Sinchalaklar chiyillar,

CHigirtkalar charchamasdan chirillar..

Ana boshqa tovushlar bor hovuzda,

Vak.irlar qurbaqalar...

Q,axshxalar yangrab ketar olisdan...

Vizillaydi endi yuvosh shabboda.

Tovushida uyqularning Ipak xiromonligi...

Faqat bu savolning aksi sadosi —

«Ki-im ke-raaaak...»

Borib qo'nar teraklarning shoxiga...

SHarillaydi suvlari shirin-shirin...

Traktor tarillaydi dalada...

Tovushlar bor, demak, hayot bor...

Demak, biz hammamiz tirikmiz...

Ko'zlarni yumib, uyg'oq dunyoni Tinglamoq lozim!..

Nozik kuzatishlar natijasida yaratilgan o'xshatishlar Oybek she'riyatida juda ko'p, mana ulardan yana ayrimlari:

Do'konlar qalashgan ari iniday,

Qay tomon qarasang - ziynat buyumlar... («Bayrut»)

Mana suvga tushar polvon qiz,

To'lqinlarni hech pisand qilmay...

Sochlar suvda krra ilonday («Kizlar»).

Oltin go'za po'choklar

Singari ochilgandi

Ko'kda g'uj-g'uj yulduzlar («Yangi oy chikkanda»).

Nazorat savollari

1. Suhbat oldiga qanday talablar qo'yiladi?
2. Muhokama nutqi oldiga qanday talablar qo'yiladi?
3. Munozara nutqi oldiga qanday talablar qo'yiladi?
4. Notiqlik va uning oldiga qo'yilgan talablar haqida ma'lumot bering.
5. Ifodali o'qish deb qanday o'qishga aytiladi?
6. Ifodali o'qishning texnik asoslari deb nimalarga aytiladi?
7. Ifodali o'qishning ruhiy-grammatik asosi nimalardan iborat?

MUTOLAA JARAYONIDA JUMLA, SO'Z VA TOVUSHNING VAZIFASI

Reja:

1. Mutolaa jarayonida jumla, so'z va tovushning vazifasi bir nechta bosqichlardan iborat ekanligi.
2. Birinchi bosqichning psixologik funksiyaga yo'naltirilishi. Bunda jumla va so'zning psixologik ta'sir kuchiga ega bo'lishi, ikkinchidan, ayni matn bo'laklarining semantik-struktural vazifalarni bajarishi.
3. Obraz mohiyatini ochishda va tushunib yetishda jumla, so'z va tovushning zarur retseptiv komponent vazifasini bajarishi.

Tayanch so'zlar: mutolaa, jumla, so'z, tovush, psixologik funktsiya, ohang.

Badiiy asar tili haqidagi fanning bosh masalasi til va obraz (xarakter) munosabati masalasidir. CHunki badiiy nutq obrazli nutq ko'rinishi sanaladi. So'z bilan obraz o'zaro bog'liq bo'lsa ham ular bir-birini qoplaydigan, bir-biriga teng kela-digan tushunchalar emas. CHunki so'z til birligi, obraz esa san'at hodisasidir.

Badiiy adabiyotda so'z va gap obraz manzara yaratishning o'ziga xos libosi, materiali bo'lib xizmat qiladi. Yozuvchining qalami sehri ostida so'zlar hayotdagi narsa va hodisalarni biz-ning ongimizda aniq tiklaydigan, o'ziday qilib gavdalan-tiradigan vositaga aylanadi. Masalan, "Ming bir jon" (A.Qah-hor) asarida o'n yillik og'ir kasallikdan sog'aygan, hayotga cheksiz muhabbati tufayli o'limni ham yenga olgan obraz, yahni Mastura obrazi yaratilgan.

Yozuvchi bu obrazning og'ir dardini va bu darddan g'olib chiqqanligini ta'kidlash uchun so'zlarning badiiy xususiyat-laridan unumli foydalangan: *"Palataga kirdik. SHu payt oftob yana bir bulut ostiga kirdiyu palatani shom - qorong'iligi bosdi. Oftob yana yorishdi. Masturani baralla ko'rdik ... Ko'z o'ngimizda xasta emas, o'lik, haqiqiy o'lik, sap - sariq teriyu suyakdan iborat ko'zlarini katta ochib botib ketgan ko'zlarini katta ochib yotar edi..."* Bu parchada yozuvchi kashf etgan oddiy bir detal (nim qorong'i palataning birdan yorishib ketishi) va bu detalni ravshan ifodalaydigan so'zlar palatani, uning burchagidagi kat-takon krovatni, bu krovatda yotgan Masturani kitobxonga aniq yorqin ko'rsatishga imkon bergan.

Badiiy nutq faqat ko'chma mahnodagi so'zlardan iborat bo'lmaydi. CHunki majoziy vositalar, so'zlarning ko'chma mahnoda qo'llanishi badiiy nutqning o'ziga xos yordamchi, ko'makchi vosita-laridir, xolos.

Agar adabiy til umumiy me'yorlardan, qonun - qoidalaridan tashqari chiqmasa bunday qonun - qoidalar chekinish hollari tez -tez ko'zga tashlanadi. CHunki badiiy nutq janr va uslub jihatdan yagona tamoyillarga bo'ysinuvchi nutq emas. Badiiy nutqda xilma -xil ko'rinishlar

mavjud ("Bemor" asaridagi yosh bola, "SHay-tanat"dagi o'g'rilar, otarchilar nutqining o'ziga xos xususiyat-larini eslang).

O'zbek prozasining nutqi davrlar o'tishi bilan o'zgarib, rivojlanib bordi. Tom mahnodagi o'zbek proza nutqi 20- yil-larda "O'tgan kunlar", "Mehrobdan chayon" asarlari zahirida shakllangan. Lekin bu asarlar leksikasida poetik nutq leksika-sining ayrim ko'rinishlari ko'zga tashlanadi. Chunki bu asarlarda badiiy obrazlarning lirik tasviri ham mavjud. To'y tasvirini ko'z oldingizga keltiring.

30-yillarga kelib A.Qahhorning asarlarida epik tasvir-ning his tuyg'udan ko'ra hikoya bayonining ustunligi yorqin seziladi. Bunday epik tasvirda betaraflik, xolislikka intilish muallif nutqida aniq ko'zga tashlanadi: *"Siddiqjon oilaviy mojarosini hozircha aytmoqchi emas edi. Buni kayfiyatidan, biror gapidan bildirib qo'ymaslik uchun ertalab to'ydan keyin yor jo'ralarini ko'rib kelish bahonasi bilan uydan chiqib ketdi ..."* A.Qahhor bu asarda Siddiqjon obrazining o'sish dinami-kasini mantiqan to'g'ri aks ettirishda til vositalaridan foydalanadi. Masalan, bunda yozuvchiga "etagini ushlamoq" iborasi katta yordam bergan.

Badiiy asarda leksik va frazeologik vositalar obrazning xatti - harakatini boshqa obrazlar bilan munosabatini ko'rsatishga xizmat qiladi. Masalan, Oybekning "Qutlug' qon" romanida butun tasvir xalq orasidan chiqqan, hayotni ob'ektiv baholaydigan ziyoli nuqtayi nazaridan olib boriladi: "Qahraton qishda yalangoyoq muz bosib, saratonda qizigan qum kechib, issiqda sovuqda obdon pishgan yigitni (Yo'lchi) kun hiyla betoqat qilgan edi". Bu romanda barcha voqealar, obrazlar ana shu ziyoli nutqi nuqtayi nazari va ruhiga moslab tanlanadi.

Badiiy asarda muallif nutqining personajlar nutqiga hamohang bo'lishi ham alohida ahamiyatga ega.

Badiiy nutq muallif nutqi, personajlar nutqi va hikoyachi bayonidan iboratdir. Badiiy nutqning bu elementlari tuzilishi, ohang va tarkibidagi til vositalarining qo'llanilishiga ko'ra bir - biridan farq qiladi. Agar badiiy ijodda bu elementlar birlashtirilsa, ma'lum bir badiiy asarning yagona uslubi vujudga keladi. Ana shu uslubning shakllanishida muallif nutqi obrazi asosiy o'rin egallaydi.

Badiiy asar stilistikasining markaziy muammolaridan biri muallif nutqi va personaj nutqining o'zaro aloqador-ligidir. Masalan, Oybekning "Qutlug' qon" romanida butun tasvir ziyoli nuqtayi nazaridan olib borilsa ham unda juda xilma xil personajlar nutqi ham ishtirok etadi. Ana shu personajlarning voqea - hodisaga bo'lgai munosabatini yaxlit holda aks ettirishda asardagi bayonchi nuqtayi nazari muhim o'rin tutadi. XX asr o'zbek adabiyotida Oybek va G'.G'ulom tasvirda bayon elementlaridan o'rinli foydalangan yozuvchilar hisoblanadi: *"Yozning issiq kunlari. Egnimda yengilgina ko'ksi ochiq, yoqasiga pilta oshgan surp yaktak. Boshimda*

cho'st do'ppi, belimda shohi qiyiq, oyog'imda nimposhna xrom etik. Uzun, tor, bog' ko'chalarning birisida ketmoqdaman"

Keltirilgan bu parcha hikoyachi nutqining namunasi bo'lib, bayonning uziga xos shaklidir. Bu yerda ham hikoyachining, ham personajning nutqi bor. Xalq og'zaki so'zlashuv nutqida oddiy muomala nutqiga xos so'zlar mavjud. Lekin bu parchani sof og'zaki nutq namunasi deb bo'lmaydi. Chunki bu parchada badiiy tasvirning kuchli nafasi seziladi. G'.G'ulomning "Yodgor" qissasi boshdan oxirigacha ana shu usulda yozilgan.

Personaj nutqi esa bunday xususiyatga ega emas. Chunki personaj nutqi boshdan oxirigacha individual og'zaki nutqi namunasi sanaladi. Bu nutq o'zining tuzilishi, ohangi bilan muallif nutqidan va hikoyachi bayonidan farq qiladi.

XX asr o'zbek adabiyotida har bir personaj nutqini individual shaklda ifodalashda yozuvchi A.Qahhor juda ulkan namuna ko'rsatgan.

Badiiy asar qahramonlarining xarakterlarini ularning nutqi, gapirish usuli orqali ochib berish A.Qahhor talantining eng kuchli tomoni sanaladi. Masalan, "O'g'ri" hikoyasidagi oddiy dehqon Qobil bobo, amaldorlar, ellikboshi va Aminning nutq-lari buning yorqin dalillari bo'la oladi. Bu o'rinda Aminning tabiati, uning Qobil boboni ortiqcha sensirashdan hayiqishi nutqi orqali ochib berilgan (Yig'lanmasin).

A.Qahhorning "Millatchilar" hikoyasida ziyolilar Mirzo Bahrom va Tahvidiylarning har biri o'ziga xos ohangda gapira-dilar. O'zlarini ziyoli deb hisoblovchi, umrini millat xizma-tiga sarf etgan Mirzo Bahromning silliq kitobiy so'zlari, uning o'ziga xos xarakterini ochishga xizmat qiladi. Bundan ko'rinadiki, A.Qahhorning hikoyalaridagi turli tabaqa vakil-larining nutqlari bir - biridan o'ziga xos til vositalari yordamida farq qiladi. Yozuvchi esa bunday vositalardan o'rinli foydalanadi.

A.Qahhor personaj nutqini individuallashtirishda yirik asarlarida ham mahorat namunalarini ko'rsatgan. "Sinchalak" qissasidagi Saida, Eshon, Huriniso kabilarning nutqlarida ularning xakteri va tabiati o'zining yorqin ifodasini topgan. Masalan, Saidaning nutqida xushmuomala odamning samimiy so'zlari ko'p uchraydi. Eshonning nutqida esa boshliqlarga nisbatan laganbardorlik yaqqol sezilib turadi: bir yil, nihoyat bir yil ishlab berar emishman xolajon (Saida nutqi)

Eshon nutqida esa biz uning ovozi eshitgandek bo'lamiz. Yozuvchining Eshonga bo'lgan salbiy munosabati "Xuddi xumga yo'talganday do'ngillab" kabi so'zlar bilan ifodalanadi. Eshon xotini haqida so'zlaganda ham uning qo'rsligi, o'z qadr-qimma-tini mutlaqo bilmasligi ochiq ko'rinadi. Eshon boshliqlariga xushomad qilishda o'ziga xos yo'l tutadi. Yahni uning har bir so'zidan ovqat qilishga ustaligi va shu bilan mulozimati ko'rsa-tishi yorqin ifodalangan. A.Qahhor yaratgan personajlar o'z nutqlarida xalq og'zaki so'zlashuv tili

elementlarini ko'proq qo'llashga urinadilar. Tilimizda *"panja orasidan qaramoq"* degan ibora mavjud. SHu iboraning *"barmoq orasidan qaramoq"* shakli personajlar tilida ko'p uchraydi. Birinchisi muallif nutqida *ko'proq uchraydi. Xuddi shunday holat "Elkasiga oftob tegsin", "Orqasiga oftob tegsin", "Peshonasini silamoq", "Boshini silamoq"* kabi iboralarni qo'llashda ham seziladi. Bu iboralarning birinchisi A.Qahhor asarlarida muallif nutqida, keyingisi personaj nutqida uchraydi.

A.Qahhor komediyalarida ham personajlar nutqiga alohida ahamiyat beradi. Masalan, Xolniso bilan Hamrobuvi 40 yillik devor darmiyon qo'shni, ularning xulq-atvorlarida, gapirishida umumiylik ko'p («SHohi so'zana»). Lekin ularning har biri dialoglarda o'z nutqiy xususiyatlarini namoyon etgan. Bu komediyada Hamrobuvi eski urf - odatlar, diniy ehtiqodlarga ko'proq amal qiladi, shuning uchun uning nutqida *"Bandai mo'min", "astaxfurullo"* degan so'zlar ko'proq uchraydi. Xolniso *"gazeta" "shezd", "agitator"* kabi so'zlarni ko'p qo'llaydi. AQahhorning keyingi dramatik asarlarida (*"Og'riq tishlar", "Tobutdan tovush"*) personaj nutqini individullatirish sohasida boshqacha yo'l tutilgan. Bu komediyalarda personajlar o'z so'zlari bilan o'zlarini fosh etadilar.

Nazorat savollari

1. Nutq madaniyati bilan notiqlik san'atining qanday bog'liqlik tomonlari bor?
2. Notiqlik san'atining asosiy vazifalari nima?
3. Notiq bilishning qanday asosiy yo'llari mavjud?
4. Komil notiq tushunchasi?
5. Har qanday shaxs ham notiq bo'lishi mumkinmi?
6. Sharqda notiq qanday nom bilan atalgan?
7. Notiqlik san'atining o'rganilish tarixi bormi?
8. Bugungi kunda notiqlik san'atiga bo'lgan munosabat?

RITORIKA VA ADABIYOTNING O'ZARO MUNOSABATI.

Reja:

1. Ritorikaning adabiyot bilan bevosita bog'liqligi, unda badiiy adabiyotga xos poetic uslub va badiiy san'at shakllarining izchil qo'llanilishi.
2. Ritorikada ham adabiyotdagi kabi obrazli tafakkurning yetakchi ekanligi.
3. Qadim yunon ritorika faninining bevosita epos va dramalar tahlili asosida shakllanganligi.
4. Sharq voizligi mohiyatida ham sharq mumtoz badiiy tafakkuri turishi.

Tayanch so'zlar: *Og'zaki nutq texnikasi, yozma nutq texnikasi, o'qituvchining ovozi, o'qituvchining talaffuzi, o'qituvchining diktsiyasi.*

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng, o'tmish hayoti-miz, adabiyotimiz va tarixiy asarlarimizni o'rganish, tadqiq etishga to'g'ri, adolatli yondashish muhim ahamiyat kasb eta bosh-ladi. Birinchi Prezidentimiz I. A.Karimovning «Asrlar mobaynida xalqimizning yuksak madaniyati, adolatparvarlik, ma'rifat-sevarlik kabi ezgu fazilatlarini SHarq falsafasi va islom dini tahliloti bilan uzviy ravishda rivojlandi. Va o'z navbatida bu falsafiy – axloqiy tahlilotlar ham xalqimiz dahosidan bahra olib boyib bormoqda.

Bizning kelajagi buyuk davlatimiz ana shu falsafaga uyg'un holda Xoja Ahmad Yassaviy, Xoja Bahoviddin Naqshband, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo singari mutafakkir ajdodlarimizning dono fikrlariga uyg'un holda shakllanishi lozim»², degan fikri o'tmish milliy qadriyatlarimizning bugungi davr, zamon, yuksa-lish, mustaqillik mezoni bilan tadqiq etish vazifasini oldi-mizga qo'ydi. Madaniyatimiz va ma'naviyatimiz tarixida o'tmish-ning har bir davri o'zining sermahsulligi bilan alohida ajralib turadi. Xalqimiz insoniyatga tarixan beqiyos ilm va adabiyot daholarini, olimu ulamolarni yetkazib bergan. O'zbek adabiyotida xalqimiz o'tmishini, adabiyotini, madaniyatini, san'atini, mehmorchiligini aks ettiruvchi qator tarixiy mavzu-dagi badiiy asarlar yaratildi.

«Navoiy» (Oybek), «O'tgan kunlar» (Abdulla Qodiriy), «Mehmor» (Mirmuhsin), «Ulug'bek xazinasi», «Ko'hna dunyo» (Odil Yoqubov), «Avlodlar fojeasi» (Mirkarim Osim), «Yulduz-li tunlar. Bobur», «Avlodlar dovoni. Humoyun va Akbar», «Ona lochin vidosi» (Pirimqul Qodirov), «Sarbadorlar», «Ulug' saltanat» (Muhammad Ali), «Samarqand xayoli» (Xurshid Davron), «Imom al- Buxoriy» (Dushan Fayziy Zarafshoniy) romanlari, «Alisher

² .Каримов И.А. Истиљлол ва маънавият. -Тошкент: Ўзбекистон, 1994. 7-8-бет.

Navoiy» (Izzat Sulton va Uyg'un), «Mirzo Ulug'bek», «Jaloliddin Mangu-berdi» (Maqsud SHayxzoda), «Muqanna» (Hamid Olimjon) dramalari, «Navoiynoma» (Barot Boyqobilov) va boshqalar shular jumlasidandir. Bu asarlar nazm, nasr va dramatik janrlarda yaratilganligi va tarixiy mavzuni yoritishda janrlar imkoniyati keng ekanligidan dalolat beradi.

Tarixni jonlantirish, o'tmishni bugungi kitobxonga badiiy jilolarda, tasviriy vositalarda yetkazish yozuvchidan nihoyatda katta mashuliyat va mehnatni, mahoratni talab qiladi: tarixiy voqeani, fakti obdon o'rganish, davrning ijtimoiy-siyosiy ahvolini tahlil qila bilish, xolisona baholash, davr tili haqida mukammal tasavvur va bilimga ega bo'lish (fonetikasi, leksikasi, grammatikasi, dialekti va boshqalar), tarixiy shaxslar, joy nomlari, sanalarni aynan keltirish muhimdir.

Bu talablar tarixiy mavzudagi badiiy asarni yaratishda ehtibor qaratiladigan sohalar, xolos. Asosiysi va muhimi – tarixiy fakti haqqoniy, ishonchli, badiiy, ifodalash. Badiiyligni yuzaga keltiruvchi til birliklaridan, tasviriy- ifoda vositalardan foydalana bilish, real voqelikni kitob-xonga san'atkorona va estetik zavq beradigan darajada tasvir-lab berishdir.

Tarixiy badiiy asar o'tmishning turli davrlariga oid bo'lishi mumkin. Masalan, «Bobur» romani XV asrning oxirgi choragi va XVI asrning birinchi yarmi voqealarini o'z ichiga oladi. Bu davr xalqimiz madaniyati tarixida alohida davr sanaladi. Xuroson va Movoraunnahrdagi Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy xomiyliklarida o'nlab shoirlar, adiblar, tarixchi va musiqashunoslar yetishdi va sermahsul ijod qildi. Alisher Navoiy nasriy asarlaridan so'ng turkiyda (o'zbek tilida) yaratilgan Zahiriddin Muhammad Boburning «Bobur-noma»si shu davr mahsulidir.

Tarixiy, mehmuar, badiiy – estetik ko'lamga ega bo'lgan bu asar, shuningdek, Bobur hayoti va faoliyatini aks ettiruvchi ayrim tarixiy manbalar Pirimqul Qodirovning «Bobur» romanini yaratilishida tarixiy fakt va manba rolini bajardi.

Tarixiy roman tilida davr tarixi, urf-odati, madaniyati, san'ati, dunyoviy qarashlari, xalq tili elementlari, adabiy tilning o'sha davrdagi holati namoyon bo'ladi.

Har bir davr tilining o'z nozikliklari, xususiyatlari, tasvir ifoda usuli bo'ladi. Tarixiy fakti badiiy-estetik jihatdan ifodalash uchun yozuvchidan katta mahorat talab qilinadi. Tarixiy roman tilini o'rganishning muhim tomonlaridan biri - davr tili birliklarining berilishi va ifodalani-shidagi haqiqiyligi hamda haqqoniyligini aniqlashdir. Chunki tilda davr koloriti, kishilar ruhiy holati butun borlig'i bilan aks etadi.

Tarixiy mavzuda yaratilgan badiiy asarlar tili va uslubi-ni o'rganishda ularni bir qolipga solib bo'lmaydi, albatta. Chunki ularning har biri turli davr voqea- hodisalarini aks ettiradi. Masalan, «Navoiy» romani XV asr, «O'tgan kunlar» XIX asr voqealarini o'z ichiga oladi. Bu davrlar tilida ham katta farq bor. Har bir davr tilining o'ziga xos ifoda – gapirish uslubi bo'ladi.

SHuning uchun har bir tarixiy badiiy asarni tadqiq etishda unga shu nuqtayi nazardan yondashish lozim.

O'zbek adabiyotida yozuvchi Pirimqul Qodirovning alohida o'rni bor. Adibning ijodi yuzasidan matbuotimizda anchagina yaxshi fikrlar bayon qilingan bo'lsa-da, romanda davr tili qanday darajada berilganligi haqida alohida monografik planda ilmiy ish olib borilmagan. XV-XVI asr o'zbek poetik adabiy tili o'z nozikliklariga va jilolariga ega bo'lgan til sifatida ehtirol etiladi. Bu davrda yaratilgan nasriy va nazmiy asarlar ham ana shundan dalolat berib turadi.

«Bobur» romani haqida matbuotda turlicha fikrlarni qamrab olgan maqolalar ehlon qilindi. Asar tahlilida ayrim-lar o'ng tomondan, ayrimlar esa so'l tomondan yondashdilar. Fikrlarni solishtirganda, pirovardida romanning o'zbek ada-biyotida muhim o'rin egallaganligi, qolaversa, Navoiydan so'ng badiiy ijodda va turkiy nazmda alohida o'rin egallagan shoh va shoir Boburning hayoti va ijodini yaqqol namoyon etuvchi shoh asarlardan biri sifatida qaralganligi bahosi ustun ekanligi yaqqol seziladi.

CHop etilgan kitob va maqolalarda romanning adabiyotshunoslik nuqtayi nazardan tahlili ustunlik qiladi. Bildirilgan fikrlarning aksariyati romanning badiiy xususiyati va yozuvchi mahoratiga bagpishlangan. Roman sof lingvistik, lingvoestetik va lingvostilistik jihatdan, unda davr tilining berilishidagi mehzon nuqtayi nazari bir oz chetda qolgan. Bundan tashqari, romanda XV-XVI asr o'zbek poetik adabiy tilining qaydarajada namoyon etilganligi tahlil etilmagan. Asar tilining leksik-semantik, grammatik va stilistik asoslari yoritilmagan Ushbu tadqiqotda ana shu masalalarga ma'lum darajada ehtibor berildi.

Romanda Bobur yashagan davr tilining berilishida yozuvchi mahoratini belgilash va asar tilini lingvoestetik jihatdan o'rganish tadqiqotning asosiy vazifasi sifatida belgilandi. Tarixiy roman-larning filologiya ilmida o'rganilishi va uning tahlili, asar voqealari tasvirlanayotgan davr o'zbek poetik adabiy tilining ko'rinishi, tarixiy mavzuda yozilgan badiiy asarlar leksik qatlamlari o'rganilishining muhimligi, tarixiy romanlar tiliga xos bo'lgan lingvistik holatlarni belgilash, romanda davr tili leksik qatlamlarining berilishini tavsif-lash va yozuvchi mahoratini belgilash singarilarni o'rganish maqsad qilib qo'yildi.

Romanda davr tilining aks ettirilishini taqqoslashda Zahiriddin Muhammad Boburnning «Boburnoma», Muhammad Solihning «SHayboniynoma», Sakkokiy, Atoyi, Ogahiy asar-lari, shuningdek, Bobur Mirzo haqida yaratilgan boshqa ilmiy, badiiy adabiyotlardan, o'zbek adabiyotshunosligi va tilshunos-ligida qo'lga kiritilgan yutuqlar, qarashlar, fikrlardan ham foydalanildi. SHu asosda romanda davr tilining berilishini o'rganishda tegishli ilmiy xulosa chiqarish imkoni tug'ildi.

Ijod rang-baranglikka ega. Ifodalash usuli ham har xillikka ega. Agar ijodda bir xillik hukmron bo'lganda, uslublar ham bir xil bo'lardi. Har bir shoir va yozuvchining har bir asari o'ziga xos uslubga, ifodaga ega. Garchi mavzu bir – biriga yaqin bo'lsa-da, undagi ifodalash usuli, syujet va kompozitsiyasi, voqelik, obrazlar va obrazlilik, personajlar tili zamon va makon doirasida, davr koloritida ifodalanadi. Qahramonlar psixologiyasi ham shunga mos holda beriladi. O'ylashi, fikrlashi, munosabat va muomalasida ham farq bo'ladi. Masalan, Pirimqul Qodirovning «Yulduzli tunlar. Bobur», «Avlodlar dovoni. Xumoyun va Akbar», «Ona lochin vidosi» romanlari tarixiy mavzuga bag'pishlangan. Mavzuning tarixiy-ligi romanlarni o'zaro birlashtirib turadi. Lekin ifodalash usuli, obrazlar galeriyasi, voqelikning zamon va makon nuqtayi nazardan katta farq qilishi, qahramonlar dunyoqarashining davr taqozosi bilan bog'liq holda bir-biridan farq qilishi, badiiy to'qimalar va badiiy konfliktlar, asar tilidagi ifoda-vositalaridagi farqlar (juda katta bo'lmasa-da), ko'hna so'zlarning qo'llanilishida bir-biridan farq ko'rinib turadi. Garchi bu uch roman ichki, o'ziga xos uslubi jihatidan bir-biridan farqlansa-da, ularning uchalasini birlashtirib turuvchi bir uslub – yozuvchi Pirimqul Qodirovning romanchilikdagi uslubi bo'rtib turadi. Tarixiy mavzuni, undagi g'oyani berishda til va uslub deyarli bir-biriga yaqin. Bu yozuvchining individual uslubidir.

Yozuvchini so'z san'atkori deb aytamiz. Ko'pgina kitob-larimiz ana shu go'zal tilimizning ohanglaridan, serjilva bo'yoq-laridan mahrum bo'lib qolayotgan paytlari va tomonlari ham bor. Chunki hamma yozuvchi ham tildan bir xil foydalana olmaydi. Hamma yozuvchining asarlari tili ham ohangli bo'lavermaydi. Ayrim asarlarning tili pishiq bo'lmagani uchun o'quvchining qalbiga kirib bormaydi. Ayrim asarlar oddiygina tasvirdan iborat bo'lib qolgan hollari ham bor. Olimlarimiz esa har bir asarni chuqur tahlil qilayotganda uning tiliga alohida ehtibor-ni qaratishlari va yozuvchiga kerakli ko'rsatma va tavsiyalarni berishlari kerak. Ana shundagina til jihatdan va badiiy jihatdan pishiq asarlar yaratiladi. Badiiy asarda voqelik tasvirlanayotgan muhit, davr ob-havosi, odamlari, kishilar psixologiyasi aks etishi lozim. Buni badiiy asarda faqatgina davr tili orqali berish mumkin. Asarda qaysi davr voqeligi tasvirlanmasin, unda o'sha davr tili bo'rtib turishi talab qilinadi.

Umuman olganda, uslub yozuvchining voqelikni individual obrazli o'zlashtirishi, uni estetik- obrazli tasvirlash, individual badiiy talqin qilish usuli bo'lib, uni o'rganish bir qator filologik, psixologik va falsafiy sohalarning o'zaro hamkorligini talab qiluvchi murakkab jarayon sanaladi. Badiiy asar tilini o'rganish esa yozuvchi uslubi, individualligi, va mahoratini aniqlashning muhim bir tomoni hisoblanadi. Agar «til – yozuvchi uslubining qalbi» ekanini hisobga olsak, badiiy asarning til xususiyatlarini uning temasi, g'oyasi, va obrazlari bilan bog'liq holda tekshirish yozuvchi uslubining eng muhim qirralarini aniqlashga yordam berishi, shubhasiz.

Hozirgi zamon o'zbek adabiyotining yirik vakillaridan biri Pirimqul Qodirovning «Yulduzli tunlar. Bobur» romani eng sara badiiy asarlardan biridir. Bu roman 1972 yilda yozib tugallangan va nashrga topshirilgan edi. Lekin sobiq sovet tuzumi davrida, turli sabablar bilan roman olti yil chop etilmay yotdi. 1979 yildagina u «Yulduzli tunlar» nomi bilan ilk bor nashr qilindi, 1981 yilda unga Davlat mukofoti berildi. «Bobur» tarixiy-biografik roman. Agar «O'tgan kun-lar» (Abdulla Qodiriy), «Qutlug' qon» (Oybek), «Qo'hna dunyo» (Odil Yoqubov), «Qullar» (Sadriiddin Ayniy) kabi romanlar o'z mazmun-mundarijasiga ko'ra umuman tarixiy janrda ijod qilingan bo'lsa, «Navoiy» (Oybek), «Ulug'bek xazinasi» (Odil Yoqubov), «Beruniy» (Maqsud Qoriev), «Hamza» (Komil Yashin), «Amir Temur» (Bo'riboy Axmedov) hamda «Bobur» (Pirimqul Qodirov) kabi romanlar biror buyuk tarixiy shaxs obrazini yaratish, uning hayoti va ijtimoiy faoliyatini tasvirlash asosida ma'lum tarixiy davrdagi mamlakat va xalq tarixini ko'rsatishni maqsad qilib olganligi jihatidan tarixiy – biografik roman hisoblanadi.

Darhaqiqat, roman mamlakat, xalq, ayrim mashhur shaxslar hayotini keng ko'lamda, chuqur va atroflicha tasvirlash imkoniyatini beradigan ommabop, o'qimishli adabiy janr bo'lib, unda haqqoniylik, g'oyaviy aniqlik kabi realizm belgilari yaqqol mujassamlashgan bo'ladi. Ana shunday xususiyatlari bilan alo-hida ajralib turadigan tarixiy-biografik romanlardan biri Pirimqul Qodirovning «Bobur» romani bo'lib, unda buyuk bobokalonimiz, ajoyib lashkarboshi va sarkarda, yirik davlat arbobi, tarixchi olim, shoir va yozuvchi Zahiriddin Muhammad Bobur (1483-1530) ning ongli hayot yo'li juda mohirlik bilan badiiy aks ettirilgan. Roman voqeasi Bobur Mirzoning Axsi va Andijonda kechgan yoshlik chog'larini tasvirlashdan boshlanib, uning Temuriylar sulolasini halokatdan qutqarib qolish, SHayboniyxon hujumlariga qarshi kurashda goh yengilib, goh zafar quchib, nihoyat, Afg'oniston va Hindistondagi tarqoq xon-liklar ustidan g'alaba qozonishi, Hind zaminida «Boburiylar sulolasi» nomi bilan mashhur bo'lib, uch yuz yildan ortiqroq hukm surgan yirik feodal davlatini barpo etish kabi tarixiy voqealar asar syujetining asosini tashkil etadi. Bobur hayoti va faoliyati bilan bog'liq bo'lgan tarixiy voqealarni badiiy tasvirlashda Pirimqul Qodirov Boburning «Boburnoma», Gulbadanbegimning «Humoyunnoma» asarlaridan oziqlangan-ligi, ularda bayon qilingan tarixiy fakt va haqiqatga asoslan-ganligi yaqqol sezilib turadi.

O'zbek adabiyotida madaniyatimiz tarixining Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Bobur Mirzo kabi ulug' siymo-lari haqida ajoyib epik polotnolar yaratildiki, ularda buyuk allomalar hayoti va faoliyati bilan bog'liq holda XIV-XVI asr tarixiy sharoiti to'liq va haqqoniy tasvir etiladi. SHu tarixiy sharoitda yashagan bu ulug' zotlarning murakkab, ruhiy kechinma-larga, dramatik voqealarga boy hayot yo'li chizib beriladi. Bu romanlarda yaratilgan obrazlar harakatda, kurashda chiniqib, takomillashib, rivojlanib boruvchi dinamik obraz-lardir.

Pirimqul Qodirovning «Bobur» romani kitobxonlar hukmiga havola qilingandan keyin bu

asar to'g'risida adabiyot-shunosligimizda ko'plab fikrlar bayon qilindi. Asar haqida G'.Karimov, U.Normatov, P.S.Hermammedov, A.Kattabekov, N.Xudoyberganov, M. Qo'shjonov, Yu. Surovtsev kabi adabiy tanqidchilar tomonidan aytilgan turlicha mulohazalar matbuotda ehlon qilindi. H.Umurov va A.Nosirovlarning «Yulduzli tunlar» va adabiy tanqid» (2000) nomli monografiyasida bu roman atrofida bo'lgan munozaralar chuqur va atroflicha tahlil qilib berildi. «Bobur» romanini «XVI asr haqiqatini, Bobur va boburiylarning o'lmas siymolarini asosli va chuqur, obhektiv va haqqoniy badiiylashtirilgan realistik tarixiy roman» deya baholadilar. Bu fikrga so'zsiz qo'shilish lozim deb hisoblaymiz.

Agar gap Pirimqul Qodirovning «Bobur» tarixiy-biogra-fik romanining tili to'g'risida ketadigan bo'lsa, hech qanday ikkilanmay dadil aytish mumkinki, bu asar tili (muallif bayoni ham, personajlar nutqi ham) badiiy asarlar tili va usulubi oldiga qo'yiladigan zaruriy, asosiy talablarga to'la-ligicha javob bera oladi. Biz bunga ushbu o'qimishli romanning har bir jumlasini hijjalab, mag'zini chaqib, diqqat bilan o'qib chiqqanimizda amin bo'ldik.

Bu o'rinda avvalo shuni alohida ta'kidlash lozimki, tarixiy mavzuda yozilgan asarlarda, xususan, tarixiy – biogra-fik romanlarda til va uslub masalalari alohida ahamiyat kasb etadi. Nega deganda, roman voqeasi sodir bo'layotgan tarixiy davr koloritini saqlash, personaj va xarakterlarni o'sha davr sharoitiga mos qilib chizish va boshqalar, shubhasiz, asar tili va yozuvchi uslubiga bog'liq bo'ladi.

Agar roman mavzusi uzoq o'tmishdan olingan bo'lsa, personajlar o'sha zamon, o'sha davr tilida so'zlashishi shart, aks holda tarixiy koloritga putur yetadi. SHunday ekan, bunday paytda tarixiy roman muallifi ikki xavfdan himoyalanmog'i kerak bo'ladi. Birinchisi –tarixiy koloritni beraman deb tildagi eskilik unsurlariga berilib ketish, hozirgi zamon adabiy tili normalaridan tamoman uzilib qolish, arxaizm quli bo'lib qolish. Ikkinchisi–arxaizmdan qochaman, uzoqlashaman deb, tamoman hozirgi zamon tiliga o'tib ketish, tarixiy kolorit masalasini esdan chiqarib qo'yish.

Mana shu eng muhim tamoyillardan biriga Oybekning «Navoiy» romani hamda Pirimqul Qodirovning «Bobur» romanlari muntazam amal qilib yozilgan. Uzoq o'tmish hayotini, XV-XVI asrlar davri hayotini badiiy tasvir qilishga bag'pishlangan ushbu roman tilida, xususan, personajlar tilida tarixiy kolorit juda yaxshi, o'z me'yorida saqlangan. Bu roman-larda personajlar tili o'sha tarixiy davr ruhini esga tushirib turishi bilan birga, hozirgi zamon kitobxonidan uzilib ham qolmaydi. Bir misol. Pirimqul Qodirov romanning ikkinchi qismi, «Qunduz. Samarqand. Ikki qilich orasida» degan bobida uzoq davom etgan ayriliqdan so'ng Bobur Mirzoning o'z egachisi Xonzoda begim bilan hayajonli uchrashuvi epizodini tasvir-laydi. Afg'onistonning Qunduz shahrida sodir bo'lgan bu uchra-shuvda Boburning rafiqasi Mohim begim va uch yashar o'g'li Humoyun ham ishtirok etadilar. Bobur Mirzo, Xonzoda begim va

Mohim begim o'rtasida bo'lib o'tgan g'oyat samimiy suhbat ular tabiatidagi nafasatni, xarakterlaridagi ajoyib ulug'vorlikni ko'rsatishdan tashqari tarixiy kaloritni anglash, sezish imko-niyatini ham beradiki, bu nihoyatda muhimdir.

Yozuvchi ushbu suhbat jarayonini shunday tasvirlaydi: *«Xonzoda begim keliniga yana bir qarab oldi-da, keyin Boburga sho'x nazar tashladi :*

- Tole sizga endi kulib boqibdi, amirzodam! O'zingizga bunchalik munosib malikani qanday uchratdingiz! Mohim begim, qajerliksiz?

- Xurosonlik, hazrat begim.

Mohim begim Boburga: «Bog'ko'cha devoridan gul tashlaganimni aytib meni uyaltirib qo'ymang yana!» degandek ilti-moskorona qarab oldi. Bobur uning bu qarashidagi mahnoni sezib, zavqli jilmaydi. So'ng Mohim begimning Husayn Bayqaroga qarindoshligi borligini, otalari bundan to'rt yil burun Badiuzzamon Mirzo bilan chiqisholmay G'aznaga kelib qolishganini opasiga aytib berdi. Bobur Mohimning ota va og'alarini G'aznadan Qobulga taklif qilgan, keyin bu yerda Mohim bilan yana ko'rishib, unga uylangan edi.

- Hirot bilan Murg'ob oralig'ida Hazrati Jom degan shahar bor, ko'rganmisiz?- so'radi Bobur opasidan.

- Ko'rganmen! Ulug' shoir Ahmad Jomiyning nomlariga qo'yilgan.

- Begimning ona avlodlari ana o'shal Hazrat Jomiyga xesh ekan-lar. Ustod Abdurahmon Jomiyga hamshahar ekanlar.

Bobur hazilomuz kulib qo'shib qo'ydi:

- Begimning o'zlari ham shunday shoirparvaru she'rshunoslarki, Jomiy bilan Navoiyning barcha g'azallarini yod bilurlar. Ammo biz she'r yozsak, munaqqidlik qilib, nuqsini ko'rsaturlar.

Mohim erining haziliga hazil bilan javob berdi:

-Munaqqid bo'lmay ilojim yo'q, chunki hazratim mening tahrifimda ko'p mubolag'a qilurlar!

Xonzoda begim er-xotinning hazilkashligidan zavqlanib kuldi:

- Lekin tahrifingizda qancha mubolag'a qilsalar oz!

- Minnatdormen, hazrat begim! – Mohim endi hayajonli tovush bilan gapirdi: - Men sizning jasoratingizni, fidoyiligingizni hazratimdan eshitib, o'zingizni ko'rish orzusida edim. Tangrimga shukr, bugun shu orzuyim ro'yobga chiqdi. Hazrat begim, men sizni afsonaviy bir malika deb o'ylar edim. Biroq o'zingizni ko'rdimu, sizdagi mehriyo afsonaviy malikalarda ham bo'lmas, deb o'yladim! Endi uyimizning peshgohi ham, ko'nglimizning to'ri ham sizniki!

Mohim begim bu gaplarni samimiy bir ixlos bilan aytganini sezgan Xonzoda begim:

- Bizga sizdek kelin bergan tangrimga shukr! – deb qo'ydi»

(Bobur, 365-366).

Romandan olingan ushbu parchani o'qigan kitobxon befarq qolmaydi, o'zini roman personajlari o'rtasida bo'lib o'tayotgan suhbat doirasida, shu voqea sodir bo'layotgan uzoq o'tmish sharoitida his qiladiki, buni Pirimqul Qodirovning tarixiy koloritni saqlashdagi katta ijodiy yutug'i deb hisoblasa bo'ladi.

Tasvirlanayotgan tarixiy davr, o'tmish sharoit ruhini personajlar nutqi, ular orasidagi dialog va suhbat orqali aniq – ravshan berish hollari romanda anchagina.

Romandagi tarixiy koloritni faqat personajlar tilidagina emas, balki muallif tilida ham yuzaga keltirish mumkin ekanligini romanda ham yaqqol ko'rish mumkin. Yozuvchi o'z romanida Hirotning «Bog'i safid»ida Muzaffar Mirzo tomonidan Bobur sharafiga berilgan ziyofatni shunday tasvirlaydi:

«Bog'i Safidda Muzaffar Mirzo Bobur sharafiga katta ziyofat berdi. Hirotning eng zo'r pazandalari tayyorlagan g'izol kaboblari, ishtaha ochuvchi nordon ocharlar, Mohicha nomi bilan mashhur bo'lgan o'ta nozik xushtahm suyuq oshlar Muzaffar Mirzo mehmoni bilan o'tirgan tillakori ko'shkning yuqorigi qavatiga ketma-ket olib chiqilmoqda edi. Sozandalar poygahroqda o'tirib, qonun va uddo, g'ijjak va nayda etni jimirlatuvchi kuylar chalishardi» (306).

Keltirilgan parchadan ko'rinib turibdiki, muallif voqea-ning o'sha davr sharoitida o'tayotganini ko'rsatish uchun o'sha zamonga xos ovqat turlarini, cholg'u asboblari, Hirot saroyiga xos «tillakori ko'shk»larni tilga oladi. Bu parcha tarixiy koloritning muallif tiliga ham ta'sir qilishini ko'rsatib turadi. Muallif tilining bu xususiyati o'z-o'zidan muallif uslubi masalasiga kelib bog'lanadi.

Tarixiy badiiy asarlar, odatda, o'ziga xos uslubda o'sha tarixiy davr taqozo qilgan tasvir voqealarida yoziladi. «Bobur» romani ham bundan mustasno emas. Romanda badiiy to'qima bilan bir qatorda yozuvchi tarixiy ekskurslar, manbalarni, xususan, «Boburnoma»dan olingan aniq ma'lumotlar, tarixiy shaxslarning ijtimoiy va shaxsiy hayotiga oid detallar keltiradi. Tarix bilan badiiy to'qimaning shu taxlitda yonma-yon kelishi, shubhasiz, muallif uslubini ma'lum bir tomondan belgilaydi, badiiy to'qima tarkibida tarix soyasi aks etib turadi. Roman muallifining tarix bilan bog'langanligi uning uslubida aniqlik, fantaziyaga ortiqcha erk bermaslik, romantik parvozdan chekinish xususiyatlarini keltirib chiqaradi. «Bobur» kabi boshidan oxirigacha tarixiy voqealarini obhekt qilib olgan tarixiy-biografik roman uslubida bu xususiyatlar butun kuchi va to'laligi bilan saqlanadi.

Adabiyotshunos olim G'ulom Karimov tarixiy romanlarning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida gapirar ekan, «Bobur» romani-ni ham ko'zda tutib, shunday deydi: «Tarixiy romanlarning yana bir muhim fazilati shundaki, ular tarix ilmini juda muhim bir nuqtada

to'ldiradilar, boyitadilar. Tarixiy roman tarix ilmi emas, albatta. Lekin tarixiy roman badiiy asar sifatida o'tmishni konkret shaxslar orqali, jonli lavhalarda, kishilar faoliyatida ko'rsatib beradi. Tarixiy romanlarda tarixda bayon qilinadigan alohida voqealar, epizodlardan tashqari, kishilarning hayoti, ularning kechin-malari, kayfiyatlari, psixologik holatlari ham gavdalanib turadi. Tarix ilmi kechmish hayot qonuniyatlarini bergani holda, tarixiy romanlar bu qonuniyatlarni yaqqol ko'rsatib turuvchi jonli shaxslarni, ular faolliyatini gavdalandirib beradilar. SHu mahnoda tarixiy romanlar tarix ilmiga qara-ganda kengroq mazmunni aniqroq va konkretroq formada ifoda etadilar».

Tarixiy romanlar uslubiga xos ana shunday tarixiylik, faktlar aniqligi, voqealar tafsilotining ishonarligi, personajlar nutqining individualligi, tilga olingan davrga xos bo'lgan til vositalaridan unumli foydalanish, eskirgan va ko'hna leksik birliklar hamda grammatik shakllarni hozirgi adabiy til normalari bilan sintez qilish kabi xususiyatlar roman tilining leksik-semantik va uslubiy asosini tashkil qiladi.

Nazorat savollari.

1. Til vositalari deganda nimalarni tushunasiz?
2. Tilning tasviriy vositalaridan foydalanishda qanday shartlarga rioya qilinadi?
3. Trop nima? Uning qanday turlari bor?
4. Uslubiy figuralarning qanday turlari bor?

NOTIQLIK SAN'ATINI EGALLASH OMILLARI

Reja:

1. Tilni o'rganish, o'rgatish orqali nutq madaniyatiga ega bo'lish. Notiqlikda tanqidning o'rni. Mutolaaning muntazam ravishda amalga oshirilishi.
2. Badiiy matn, she'rni ifodali o'qish. Nutqni nazorat qilish. Yozma nutq ko'nikmalarini shakllantirish. Notiq va auditoriya. Notiqning tashqi ko'rinishi va ichki olami. Auditoriya bilan muloqot o'rnatish.
3. Faoliyat, nutqiy malaka, savodxonlik, tema va rema, muammoli vaziyat, fikrlash, fikr ifodalash shakllari, og'zaki nutq, matn, yozma nutq shakllari.

Tayanch so'zlar: *nutq madaniyati, faoliyat, ohang, muallif nutqi, ritm va ohang regulyatori, qahramonlarning dialog, monolog, ichki nutq, notiqlik san'ati, voizlik, dramatik janrlar.*

Nutq odobi insonning loqini belgilovchi mezonidir. loq fan sifatida o'rta asrlarda yuzaga keldi. Kishining odobi, eng avvalo uning nutqida ko'rinadi. Nutq odobi – aytilishi zarur bo'lgan xabarlarini tinglovchiga hurmat qilgan holda, bilish, chunki ularni bilmaslik aniqlikning buzilishiga olib keladi: paronimlarni bilish, ulardan tovush yaqinliklariga e'tibor berish; tor muhitda ishlatiladigan dialektalizm so'zlarning ma'nolari yaxshi anglatgan holda nutqqa kiritish.

O'qituvchi o'z nutqidan keng foydalanadi. O'quvchilarga voqea hodisalar, shaxslar haqida ma'lumot berishda bu katta amiyat kasb etadi. O'qituvchilik kasbi bevosita ovoz xususiyatlari bilan bog'liq, yoqimli va jarangdor ovozga ega bo'lgan o'qituvchi o'z o'quvchilariga ovozining shiradorligi bilan ham ta'sir etadi. Bunday muvaffaqiyatga erishish uchun o'qituvchi o'z ovozinı kuchini, yoqimlilikini bilishi zarur.

O'qituvchining ovozidan quyidagi xususiyatlar bo'lishi lozim.

- jarangdorlik (tovushning tozaligi va tembrning yorqinligi);

Asarlarning ayrim parchalari darsda hikoya qilib beriladi. Hikoya qilib berishda voqealar batafsil yoki ma'lum qisqartirishlar bilan bayon etilishi mumkin.

Nutq texnikasi deyilganda nutqni tinglovchi yoki o'quvchiga yetkazishda qo'llanadigan vositalar tushuniladi. Nutq ikki xil ko'rinishda bo'lganda uni texnikasini ham ikki xil ko'rsatish mumkin:

1. Og'zaki nutq texnikasi.
2. Yozma nutq texnikasi.

Og'zaki nutq texnikasi tovush, bo'g'in, so'zlarni, uning shakllarini talaffuz etishni yaxshilash borasida nutq organlarini faollashtiruvchi mashqlarni anglatadi. Bunga ovozdan

foydalanish tovush fazilati sifatida yorqin ifodalash qobiliyati bilan nutq faoliyatining ma'nosi bilan, nutq ishlatilayotgan so'z ma'nolarini bilish bilan bog'liq bo'ladi. Agar notiq o'zi fikr yuritmoqchi bo'lgan nutq predmetining yaxshi bilsa, unga mos so'zlar tanlasa va o'zi tanlagan so'zlarning ma'nolariga vazifalar yuksala, nutqning aniq bo'lishi muqarrardir.

Nutqning sifati ma'nosidan aniqligining o'zi nimalardan iborat? Aniqlikni "nutq borlik", nutq – tafakkur munosabatlari asosida aniqlasa bo'ladi.

Ish qog'ozlarga xos bo'lgan xususiyatlar.

Yozma nutq ham huddi og'zaki nutq kabi tinglovchi uchun yaratiladi. Uning qulayligidan, o'quvchiga tez va butun mohiyati bilan yetib borishidan yozuvchi ham, o'quvchiga ham minnatdor. Shuni nazarda tutganda yozma nutq texnikasi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

a) har qanday yozma nutq xat boshidan, bosh harf bilan boshlanishi kerak, har bir gap mazmunan nisbatan tugallangan bo'lishi, yorqin fikr anglatishi kerak;

- keng diapazonlik (ovozning eng pastlikdan eng yuqorigacha bo'lgan darajasi);
- havodorlik (erkin so'zlaganda yaxshi eshituvchanlikka ega bo'lish);
- ixchamlik va harakatchanlik;
- chidamlilik (uzoq ishlash qobiliyatiga ega bo'lish);
- moslashuvchanlik (dinamika, tembr, melodikani eshitishtirish sharoitida moslasha olish);
- qarshi shovqinlarga nisbatan barqarorlik;
- suggestivlik (ovozni hayajon ifodalash va bu orqali tinglovchining hulqiga ta'sir qilish xususiyati).

a) ma'lum bir fikr bayon etilgandan so'ng, nutqni tarkibiy qismi bo'lgan boshqa fikr xat boshidan boshlanishi zarur.

Xat boshilar (abzaqlar) bir-biri bilan mantiqiy bog'langan bo'lishi lozim.

b) Dialoglardan tashkil to'gan yozma nutqda har bir shaxsni gapi teri orqali yoziladi;

c) ko'chirma gaplar, ko'chirmalar, o'z ma'nosida ishlatilmagan so'zlar, birikmalar qo'shtirnoq ichiga olinadi;

d) nutq uchun ikkinchi darajali hisoblangan, undagi gaplarning tarkibiy qismi hisoblanmaydigan narsalar teri yoki qavs bilan ajratiladi;

e) ot kesim, izohlovchi, undalma, ajratiladigan bo'laklar tegishli tinish belgilari bilan ajratiladi;

f) nutqning xat boshidan yirik qismlarga boblarga bo'lib ko'rsatiladi.

Ish qog'ozlarga ham yozma nutq hisoblanadi.

Ularning yozilishi ham nutqqa xos umumiy talablardan chetga chiqmaydi.

T a s v i r. Nutqda ifodalangan narsa yoki hodisani maxsus til vositalari orqali xarakterlash, uning xususiyatlarini, sifatlarini ko`rsatish usuli tasvir deyiladi. Tasvir fikr yuritiladigan yorqin shakllantirish uchun ishlatiladi.

Hikoya qilish. Bo`lib o`tgan va yuz beradigan voqea hodisalarning batafsil so`zlash hikoya qilish hisoblanadi. Kichik hajmdagi nasriy asarlar, katta asarlarning ayrim parchalari darsda hikoya qilib beriladi. Hikoya qilib berishda voqealar batafsil yoki ma'lum qisqartirishlar bilan bayon etilishi mumkin.

Savollar:

1. Mutolaa madaniyati deganda nimani tushunasiz?
2. Fikrni qanday ifodalash usullari mavjud?
3. Nutq odobi bilan mutolaa odobi o`rtasida qanday bog`liqlik bor?
4. Adabiy me`yor tushunchasiga izoh bering.
5. Nutqiy faoliyat va nutqiy malaka o`rtasidagi munosabatni tushuntirib bering
6. Nutq madaniyatida savodxonlik qanday amiyatga ega?
7. Tema va remaga ta`rif bering.
8. Mutolaada fikrlashning qanday asosiy shakllari mavjud?

NOTIQLIK SAN'ATINI EGALLASH OMILLARI

Reja:

1. Tilni o'rganish, o'rgatish orqali nutq madaniyatiga ega bo'lish. Notiqlikda tanqidning o'rni. Mutolaaning muntazam ravishda amalga oshirilishi.
2. Badiiy matn, she'rni ifodali o'qish. Nutqni nazorat qilish. Yozma nutq ko'nikmalarini shakllantirish. Notiq va auditoriya. Notiqning tashqi ko'rinishi va ichki olami. Auditoriya bilan muloqot o'rnatish.
3. Faoliyat, nutqiy malaka, savodxonlik, tema va rema, muammoli vaziyat, fikrlash, fikr ifodalash shakllari, og'zaki nutq, matn, yozma nutq shakllari.

Tayanch so'zlar: *nutq madaniyati, faoliyat, ohang, muallif nutqi, ritm va ohang regulyatori, qahramonlarning dialog, monolog, ichki nutq, notiqlik san'ati, voizlik, dramatik janrlar.*

Nutq odobi insonning loqini belgilovchi mezonidir. loq fan sifatida o'rta asrlarda yuzaga keldi. Kishining odobi, eng avvalo uning nutqida ko'rinadi. Nutq odobi – aytilishi zarur bo'lgan xabarlarini tinglovchiga hurmat qilgan holda, bilish, chunki ularni bilmaslik aniqlikning buzilishiga olib keladi: paronimlarni bilish, ulardan tovush yaqinliklariga e'tibor berish; tor muhitda ishlatiladigan dialektalizm so'zlarning ma'nolari yaxshi anglatgan holda nutqqa kiritish.

O'qituvchi o'z nutqidan keng foydalanadi. O'quvchilarga voqea hodisalar, shaxslar haqida ma'lumot berishda bu katta amiyat kasb etadi. O'qituvchilik kasbi bevosita ovoz xususiyatlari bilan bog'liq, yoqimli va jarangdor ovozga ega bo'lgan o'qituvchi o'z o'quvchilariga ovozining shiradorligi bilan ham ta'sir etadi. Bunday muvaffaqiyatga erishish uchun o'qituvchi o'z ovozinı kuchini, yoqimlilikini bilishi zarur.

O'qituvchining ovozidan quyidagi xususiyatlar bo'lishi lozim.

- jarangdorlik (tovushning tozaligi va tembrning yorqinligi);

Asarlarning ayrim parchalari darsda hikoya qilib beriladi. Hikoya qilib berishda voqealar batafsil yoki ma'lum qisqartirishlar bilan bayon etilishi mumkin.

Nutq texnikasi deyilganda nutqni tinglovchi yoki o'quvchiga yetkazishda qo'llanadigan vositalar tushuniladi. Nutq ikki xil ko'rinishda bo'lganda uni texnikasini ham ikki xil ko'rsatish mumkin:

3. Og'zaki nutq texnikasi.
4. Yozma nutq texnikasi.

Og'zaki nutq texnikasi tovush, bo'g'in, so'zlarni, uning shakllarini talaffuz etishni yaxshilash borasida nutq organlarini faollashtiruvchi mashqlarni anglatadi. Bunga ovozdan

foydalanish tovush fazilati sifatida yorqin ifodalash qobiliyati bilan nutq faoliyatining ma'nosi bilan, nutq ishlatilayotgan so'z ma'nolarini bilish bilan bog'liq bo'ladi. Agar notiq o'zi fikr yuritmoqchi bo'lgan nutq predmetining yaxshi bilsa, unga mos so'zlar tanlasa va o'zi tanlagan so'zlarning ma'nolariga vazifalar yuksala, nutqning aniq bo'lishi muqarrardir.

Nutqning sifati ma'nosidan aniqligining o'zi nimalardan iborat? Aniqlikni "nutq borlik", nutq – tafakkur munosabatlari asosida aniqlasa bo'ladi.

Ish qog'ozlarga xos bo'lgan xususiyatlar.

Yozma nutq ham huddi og'zaki nutq kabi tinglovchi uchun yaratiladi. Uning qulayligidan, o'quvchiga tez va butun mohiyati bilan yetib borishidan yozuvchi ham, o'quvchiga ham minnatdor. Shuni nazarda tutganda yozma nutq texnikasi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

a) har qanday yozma nutq xat boshidan, bosh harf bilan boshlanishi kerak, har bir gap mazmunan nisbatan tugallangan bo'lishi, yorqin fikr anglatishi kerak;

- keng diapazonlik (ovozning eng pastlikdan eng yuqorigacha bo'lgan darajasi);
- havodorlik (erkin so'zlaganda yaxshi eshituvchanlikka ega bo'lish);
- ixchamlik va harakatchanlik;
- chidamlilik (uzoq ishlash qobiliyatiga ega bo'lish);
- moslashuvchanlik (dinamika, tembr, melodikani eshitishtirish sharoitida moslasha olish);
- qarshi shovqinlarga nisbatan barqarorlik;
- suggestivlik (ovozni hayajon ifodalash va bu orqali tinglovchining hulqiga ta'sir qilish xususiyati).

g) ma'lum bir fikr bayon etilgandan so'ng, nutqni tarkibiy qismi bo'lgan boshqa fikr xat boshidan boshlanishi zarur.

Xat boshilar (abzaqlar) bir-biri bilan mantiqiy bog'langan bo'lishi lozim.

h) Dialoglardan tashkil to'gan yozma nutqda har bir shaxsni gapi teri orqali yoziladi;

i) ko'chirma gaplar, ko'chirmalar, o'z ma'nosida ishlatilmagan so'zlar, birikmalar qo'shtirnoq ichiga olinadi;

j) nutq uchun ikkinchi darajali hisoblangan, undagi gaplarning tarkibiy qismi hisoblanmaydigan narsalar teri yoki qavs bilan ajratiladi;

k) ot kesim, izohlovchi, undalma, ajratiladigan bo'laklar tegishli tinish belgilari bilan ajratiladi;

l) nutqning xat boshidan yirik qismlarga boblarga bo'lib ko'rsatiladi.

Ish qog'ozlarga ham yozma nutq hisoblanadi.

Ularning yozilishi ham nutqqa xos umumiy talablardan chetga chiqmaydi.

T a s v i r. Nutqda ifodalangan narsa yoki hodisani maxsus til vositalari orqali xarakterlash, uning xususiyatlarini, sifatlarini ko`rsatish usuli tasvir deyiladi. Tasvir fikr yuritiladigan yorqin shakllantirish uchun ishlatiladi.

Hikoya qilish. Bo`lib o`tgan va yuz beradigan voqea hodisalarning batafsil so`zlash hikoya qilish hisoblanadi. Kichik hajmdagi nasriy asarlar, katta asarlarning ayrim parchalari darsda hikoya qilib beriladi. Hikoya qilib berishda voqealar batafsil yoki ma'lum qisqartirishlar bilan bayon etilishi mumkin.

Savollar:

1. Mutolaa madaniyati deganda nimani tushunasiz?
2. Fikrni qanday ifodalash usullari mavjud?
3. Nutq odobi bilan mutolaa odobi o`rtasida qanday bog`liqlik bor?
4. Adabiy me`yor tushunchasiga izoh bering.
5. Nutqiy faoliyat va nutqiy malaka o`rtasidagi munosabatni tushuntirib bering
6. Nutq madaniyatida savodxonlik qanday amiyatga ega?
7. Tema va remaga ta`rif bering.
8. Mutolaada fikrlashning qanday asosiy shakllari mavjud?

YOZMA NUTQ ME'YORLARI

Reja:

1. Yozma nutqning nisbatan to'g'ri va aniqligi. Me'yoriylik ko'rinishlari: umumiy me'yorlar, xususiy me'yorlar; orfografik, orfoepik me'yorlar.
2. Imlo me'yorlari. Imlo qoidalarini o'zlashtirish.
3. Leksik me'yorlar. Sinonim, omonim, antonim, paronimlarning qo'llanilishi.
4. Grammatik me'yorlar. Grammatik me'yorga amal qilish fikr ifodalashdagi o'rni. Sintaktik me'yorlarning xususiyatlari. Sintaktik konstruksiyalar va ularning turli adabiy til uslublaridagi ko'rinishlari. Gapdagi so'zlar tartibi. Gapni to'g'ri tuzish.

Tayanch so'zlar: yozma nutq, me'yoriylik, umumiy va xususiy me'yorlar; orfografik, orfoepik me'yorlar. Imlo me'yorlari. Imlo qoidalarini o'zlashtirish. Leksik me'yorlar. Sinonim, omonim, antonim, paronim, grammatik me'yorlar. Grammatik me'yorga amal qilish fikr ifodalashdagi o'rni. Sintaktik me'yorlarning xususiyatlari. Sintaktik konstruksiyalar va ularning turli adabiy til uslublaridagi ko'rinishlari. Gapdagi so'zlar tartibi. Gapni to'g'ri tuzish.

Lug'aviy, grammatik, uslubiy me'yorlar adabiy tilning hamma ko'rinishlari uchun xarakterli, imlo va tinish belgilarga oid me'yorlar adabiy tilning faqat y o z m a shakli uchun, to'g'ri talaffuz me'yorlari esa faqat og'zaki nutq shakli uchun xosdir.

Leksik uslubiyat

OMONIMLARNING USLUBIY XUSUSIYATLARI

Nutqda omonimlardan foydalangan holda turli so'z o'yinlari hosil qilinadi: *Qo'lingdan kelgancha chiqar yaxshi ot, YAxshilik qil, bolam, yomonlikni ot, Nasihatim yod qilib ol, farzandim, YOlg'iz yursa chang chiqarmas yaxshi ot*. Bu o'rinda *ot* omonim so'zlari turlicha ma'nolarni ifodalayapti. Omonim so'zlardan foydalangan holda so'z o'yinlarini yaratish tajnis (jinos) san'ati deyiladi. Badiiy adabiyotda shu badiiy san'at qo'llanib yaratilgan to'rt qator she'r esa tuyuq deb ataladi.

SINONIMLARNING USLUBIY XUSUSIYATLARI

Sinonimlarni qo'llashda hissiy-ta'siriy bo'yoq mavjudligi jihatidan farqlanadi: *yuz, aft, bashara, bet, chehra, jamol, ruxsor, diydor* sinonimik qatoridagi *yuz* so'zi ma'nosi betaraf so'z bo'lsa, *bet, aft* so'zlari salbiy bo'yoqqa ega, *bashara* so'zida esa salbiy bo'yoq yanada kuchli, *turq* so'zida *bashar* so'ziga nisbatan ham kuchliroqdir; *chehra* ijobiy bo'yoqqa ega, *jamol* so'zida bu bo'yoq yanada kuchli. SHuningdek, sinonimlarning ishlatilish doirasi chegaralangan yoki chegaralanmagan bo'lishi mumkin: *keksa, qari, oqsoqol, nuroniy,*

mo'ysafid sinonimik qatoridagi *qari* so'zining ishlatilish doirasi keng, qolganlariniki esa chegaralangan. Sinonimlarni o'rinsiz ishlatish oqibatida turli uslubiy xatolar kelib chiqadi: *Buldozer ko'chamizda yiqilay deb turgan devorlarni bir chekkaga surib yo'l ochar edi* gapida *yiqilay* so'zi noo'rin qo'llangan, chunki bu so'z odamlarga nisbatan ishlatiladi; bu gapda devorga nisbatan *qulamoq* so'zi ishlatilishi kerak edi.

ANTONIMLARNING USLUBIY XUSUSIYATLARI

Antonimlardan to'g'ri foydalana olmaslik ham uslubiy xatoliklarni keltirib chiqaradi: *CHoyxona mudiri YUsuffon Nozimov turmushning issiq-chuchugini totigan kishiga o'xshaydi*. Bu gapdagi *issiq-chuchugini* juftligi o'rnida *achchiq-chuchugini* juftligi ishlatilishi kerak edi. Antonimlardan foydalangan holda yaratiladigan badiiy san'at tazod (antiteza) deb ataladi.

PARONIMLARNING USLUBIY XUSUSIYATLARI

Paronimlarni to'g'ri qo'llamaslik natijasida ham xatoliklar kelib chiqadi: *CHanoqlardagi lo'ppi ochilgan paxtalar quyoshda yarqirab kumushdek toblanadi*. Bu gapdagi *toblanadi* so'zi o'rnida *tovlanadi* so'zi ishlatilishi kerak edi.

TURLI SABABLARGA KO'RA QO'LLANISHI CHEGARALANGAN SO'ZLARNING USLUBIY XUSUSIYATLARI

Bunday so'zlarga eskirgan va yangi so'zlar, sheva, kasb-hunarga oid so'zlar, atamalar, jargonlar kiradi. Nutqda bu kabi so'zlar ham muhim uslubiy vazifalar bajaradi. Arxaizmlardan badiiy yoki ommabop asarlarda nutqqa kinoya, hajv ruhini kiritish uchun foydalanilsa, tarixiy so'zlardan o'tmish voqeligini ifodalash maqsadida foydalaniladi. Sheva so'zlari mahalliy ruhni ifodalashda ishlatilsa, atamalar ilmiy va badiiy asarlarda fan-texnikaga oid tushunchalarni ifodalash uchun ishlatiladi, jargonlar esa ma'lum toifaga mansub kishilar nutqini berish uchun zarurdir.

Albatta, bu guruh so'zlardan foydalanganda, chegaradan chiqmaslik lozim, aks holda nutqda g'alizlik paydo bo'ladi:

1. *Terilgan paxtani tashib turish uchun ko'tarimchi ajratildi.*
2. *Buning ustiga tokarlik stanogining reztsoderjateli o'rniga maxsus moslama tayyorlanib unga grebenlarni tozalovchi frez o'rnatildi.*

Birinchi gapda *ko'tarimchi* degan o'rinsiz yasalgan yangi so'z ishlatilgan bo'lsa, ikkinchi gapda atamalar me'yordan ortiq ishlatilgan.

Nutqda ibora, tasviriy ifoda va maqollar ham ma'lum uslubiy vazifa bajaradi. Iboralardagi omonimlik, sinonimlik, antonimlik xususiyatlari, tasviriy ifodalardagi balandparvozlik, maqollardagi mazmuniy ixchamlik katta uslubiy imkoniyatlar yaratadi: *Bir yoqadan bosh chiqarmoq* iborasi badiiy nutqqa mansub bo'lsa, *bir jon, bir tan bo'lmoq* iborasi

umumnutqqa xosdir. YOzuvchi va shoirlarimiz ham ibora va maqollar ijod qilishadi: *O`likning yog`ini, tirikning tirnog`ini eydi bu. (Abdulla Qahhor) O`qsiz soldat – qilichsiz qin. (Oybek)*

MUBOLAG`A

*Mubolag`a* (yoki *giperbola*) uslubiy vosita bo`lib, ifodalangan tushunchaning ko`pirtirib, orttirilib tasvirlanishidir. Mubolag`a xalq dostonlarida, ertaklarda, aytishuv va loflarda faol ishlatiladi: *To`qson molning terisidan kavushi...* (“Alpomish” dostonidan)

SIFATLASH

Sifatlash (yoki *epitet*) narsa, shaxs, hodisalarning belgisini ifodalash vositasidir. Bu vazifada tilimizdagi belgi bildiruvchi so`z turkumlari (asosan, sifatlar) qo`llanadi: *Zolim jallod, bilmaganim bildirgin...* (“Kuntug`mish” dostonidan)

Nazorat savollari.

1. Til vositalari deganda nimalarni tushunasiz?
2. Tilning tasviriy vositalaridan foydalanishda qanday shartlarga rioya qilinadi?
3. Trop nima? Uning qanday turlari bor?
4. Uslubiy figuralarning qanday turlari bor?

NUTQ MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHDA MUTOLAANING O'RNI.

Reja:

1. Badiiy uslubning tasviriy vositalardan foydalanish imkoniyati kengligi.
2. Badiiy matnning tafakkur, dunyoqarash rivojida ahamiyati.
3. Badiiy matndagi ko'chimlar tilning tasviriy vositalari, obrazlilikning olam manzarasini ta'sirchan ifodalashdagi o'rni.
4. Mutolaa, she'r yod olish, matn tahlili og'zaki nutqni rivojlantirish omili sifatida.

Tayanch so'zlar: *epik ijod, mutolaa san'ati, marom, ohang, urg'u, talaffuz va ifoda, retseptiv vazifa, obraz, personaj, ifoda shakllari, pafos.*

Kitob o'qiydigan odamning qalbi go'zallikka moyil bo'ladi, – deydi O'zbekiston Milliy universiteti dotsenti, adabiyotshunos olim Uzoq Jo'raqulov. – Bu yaxshi, albatta. Kitobxonlar toifasi har xil. Ko'pincha badiiy adabiyot bilan oshno tutingan zamondoshlarimizni boshqalar bilan taqqoslayman. Ularning ayrimlari kitobni tanlab, saralab, muallifi kimligini bilib o'qiydi. Ayrimlari duch kelgan roman, qissani mutolaa qiladi.

Sir emaski, bugun dunyoda adabiyot ham biznesga aylanib boryapti. Bozor adabiyoti rivojlanishida, do'konlar to'lib ketgan. Badiiy adabiyot namunalari ichida haqiqiy mahnodagi ma'naviy ozuqani bera oladiganlari bormi? Ayrim adiblar o'z ruhiyatidagi tushkunlikni asarga ko'chirib, tahsirli jumlar bilan uni o'quvchi ongiga singdirishga urinmoqda. Qiziq, “ommaviy madaniyat” kun sayin o'z auditoriyasini kengaytirib borayotgan bir davrda kishilarda ma'naviy immunitetni shakllantirish o'rniga aksincha, ularning ruhiyatiga salbiy tahsir ko'rsatishdan maqsad nima? Tilga tushish, mashhur bo'lishmi?

Kitobxon o'qigan kitobidan o'ziga qandaydir xulosa ola bilishi kerak. Bora-bora bu xulosalar yig'ilib, ulkan kuchga – ma'naviyatga aylanadi. Ma'naviyatli shaxs esa kitob do'koniga kirganida, o'z didiga, ehtiyojiga mos kitoblar xarid qiladi. Uning ma'naviy didi yuksakligi shu joyda foyda beradi, bu esa unda yillar davomida shakllangan. Oila muhitining ham bu borada o'rni katta. Avvalo, ota-onaning o'zi kitobxonmi? Bolasi kitob o'qimayotganida uning aybi bormi?

TANLAB O'QISH SAN'ATI

SHarq xalqlarida azaldan ilm olishga, mahrifatga intilish yuqori bo'lgan. Hazrat Alisher Navoiy besh-olti yoshligidayoq Fariddin Attorning “Mantiq-ut tayr” asarini mutolaa uchun tanlagan, qisqa muddatda o'qib ulgurgan, uni satrma-satr yod olgan. Mazmunini murg'ak diliga jo aylagan. SHuning tahsirida shoirning kitob tanlab o'qishga nisbatan did-farosati shakllangan.

Har bir davrning olimu fozillari, shoiru adiblari ko'p. Ular kitob mutolaa qilib shaxs darajasiga yetishdilar. Bugungi avlodning barkamolligi uchun yaratilayotgan shart-sharoitni sanab adog'iga yetish mumkinmi? Yo'q. O'quv muassasalarining moddiy-texnik bazasi mustahkam. Har birida kutubxona mavjud. O'quvchi-yoshlarning kasbiy bilimlarni puxta egallashini kutubxonalar xizmatidagi tasavvur qilish mushkul.

– Kutubxona – ikkinchi uyim, – deydi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti biologiya fakul'teti talabasi Laziz Hamroev. – Biz talabalarning ixtisosligiga tegishli bo'lgan o'quv adabiyotlari bu yerda behisob. Ilmiy kitoblarning eng yangisini, badiiy asarlarning esa eng qadimiysini o'qigan mahqul, deya ko'rsatma beradi bizga kitob tanlash bo'yicha ustozlarimiz. Biologiya fani organizmlarni o'rganadi. Bitta kitobni o'qib chiqish, mag'zini chaqquncha bahzida oylab vaqt ketadi. Agar undagi mahlumotlar sal eskirgan bo'lsa, bundan hushyor bo'lishimiz kerak. Kutubxonaga kirarkanman, doimo shu qoidaga amal qilaman. Agar ancha yil avval nashr qilingan bo'lsa, keyingi nashrini so'rayman. Har qalay oxirgi nashridagi mahlumotlar talabaning oldiga qo'yilgan maqsadga mosroq tushadi. Axir, menga yangi kitoblar kerak. Hozir "Odam anatomiyasi", "Biologiya nazariyasi" kabi kitoblarning eng so'nggi nusxasini o'qiyapman.

Kitob bosib chiqarishning mashaqqati ham, xarajati ham oz emas. U qog'ozdan, qog'oz esa daraxtdan yasaladi. Bu ishga minglab kishilarning mehnati, kuchi va albatta, qimmatli vaqti sarf bo'lishi hech kimga sir emas. Kitob do'konlarida tizilib turgan bosma mahsulotlarning har biri ortida ko'plab insonlarning mehnati yotadi. Tahbir joiz bo'lsa, har bir kitobning o'z xaridi bor.

"SHarq ziyokori" kitoblar do'koni gavjum. Har bir xaridor o'zini qiziqtirgan badiiy, ilmiy-ommabop asarni tanlash bilan band. Kimdir ertaklar javonida to'xtasa, kimdir jahon adabiyoti durdonalariga ko'z yugurtiradi. Ayrimlar o'z kasbiga oid ilmiy-ommabop kitoblar, turli qo'llanmalar bilan tanishmoqda.

– Universitetimiz o'qituvchilaridan o'rgangan eng katta saboqlarimdan biri kitobni tanlab mutolaa qilishdir, – deydi kitobxon xaridor Sitara Rahmonova. – Uyimizda kitob ko'p, aksariyati jahon adabiyoti durdonalari. Farzandlarim bahzan bu kitoblarni qo'lga olib ko'rishadi. Ularni kitobni tanlab o'qishga o'rgatayapman. Ma'naviyatni shakllantirishdan oldin kishining ruhiyati sog'lom bo'lishi haqida bosh qotirish lozim. Hayotni erta anglashga o'rgatish – muhim masala. Buning uchun bola ertak tinglashi, o'qishi, shu orqali hayotni o'rganishi lozim.

– O'qituvchi kitobni tanlab o'qishga majbur, u oddiy kitobxon singari huda-behudaga vaqt sarflab, kitob varaqlamasligi keraq – deydi xalq tahlimi ahlochisi Baxtiyor Abdiev. – Uning oqsashga ham haqqi yo'q, o'z fani doirasida doimo izlanishda bo'lishi shart. Men jahon matematiklarining kitoblarini ko'p o'qiyman. Ular asosida qo'llanmalar qilib, o'quvchilarimga

tarqataman. Foydalangan manbalarim ro'yxatini ko'rsataman. Bolalar mazmunan shu adabiyotlarga yaqin bo'lgan boshqa kitoblarni topib o'qishadi, buni ko'rib ich-ichimdan sevinaman. Ularda kitob tanlashdek didni shakllantira olibman, deb hursand bo'laman. Ikki nafar o'quvchim xalqaro olimpiadada ishtirok etib, bu fandan faxrli o'rinlarni qo'lga kiritdi.

Atoqli adib Asqad Muxtor "Kitob – boyliq sotib olingani emas, o'qilgani", deya bejiz aytmagan. U faqat insonga xos bo'lgan ilmiy-ma'naviy ehtiyojni qondiruvchi vosita. Kitob chop etilar ekan, u albatta, kitobxonlarning dunyoqarashini kengaytirish uchun xizmat qiladi. Kimdir ijtimoiy-siyosiy, yana kimdir ilmiy-ommabop asarlarni o'qiydi. Ayrimlar esa ichki ehtiyojdan kelib chiqib badiiy adabiyotlarni mutolaa qiladi. Boshqa birovlar ilmiy-ommabop qo'llanmalarni o'rganib, uning mag'zini chaqishga intiladi. Muhimi esa, har bir kitob o'z auditoriyasiga yetib borishi, o'z o'quvchisini topishidadir.

Insoniyat ikki o'lcham — makon va zamonda cheklangan bo'lib, o'zining butun taraqqiyoti davomida mazkur cheklovlarni yengil utitsla intilib kelgan. Mana shu intilishning samarasi ularoq yozuvlar, kitoblar va shu kabi boshqa axborot vositalari yaratilgan. Turli davrlarda axborot tashish va unga ega bo'lish bilan bezliq bilimlar tuplanib, kishilarda mutolaa madaniyatining shakllanishiga olib keldi. Bugungi kunda mutolaa madaniyati kitobga qiziqishni, odamlarning adabiyotlar bilan kengroq tanishish ragbatini, kitob bilan ishlashda maxsus bilimlarga ega bo'lishni, shuningdek, axborot manbalaridan tuliq foydalanishga yordam beruvchi kunikma va malakaga ega bo'lishni taqozo etadi. Kitobni tanlash, uni tez uqish, avaylab saqlash, shaxeiy kutubxona tashkil etish, o'qilgan kitoblarni boshkdlarga tavsiya eta olish ham mutolaa madaniyatiga kiradi. Demaq mutolaa madaniyati insonni bevosita amaliyotga kirishish, hayot bilan uygunlashish, ma'naviy foyda olishga yo'naltiradi. "Mutolaa" so'zi arabcha o'qish, degan mahnoni anglatsa-da, bizningcha bugungi kunda kitob uiqshdan kura kengroq tushunchani kamrab oladi. Mutolaa madaniyati ijtimoiy guruhlar, uyushmalar va alohida individlarning umumiy ma'lumot olishga yo'naltirilgan jarayon, xulk;-atvor va faoliyatlari mazmuni hamda tarkibiy tizimlarida yuz beruvchi o'zgarishlar majmuini ifodalovchi bilimlar, me'yorlar, ijtimoiy hodisalardir. Ayni 40Fda, mutolaa madaniyatini ta'lim tizimlari orkdli maxsus shakllantiradigan ixtisoslashgan ma'lumotni inson hayoti davomida turli manabalar — kitoblar (badiiy, ilmiy, uquv, entsiplopedik va boshha), ommaviy axborot vositalari (gazeta, jurnal, televidenie, radio va shu kabilar), zamonaviy axborot texnologiyalari (internet, elektron gazeta, jurnal, qo'llanma va hokazolar), shuningdek, subyekt bilan bevosita mulokotga kirishuvchi shaxslar (oila ahzolari, ish yoki uqish joyidagilar, quni-qushni va boshha insonlar) orkali egallanadigan har xil yo'nalish va shakldagi umumiy ma'lumotdan fark/lash lozim. Mutaxassis N.Rubakin tahkidlaganidek, "Ixtisoslashgan ta'lim insonga bir soha doirasida cheklangan bilim va malakani beradi. Umumiy ta'lim insonga keng va tuliq dunyokdrashga ega bo'lish, hayotning turli tomonini tushunish

imkonini beradi”. Demaq mutolaa madaniyatining muhim tarkibiy jihatlari undagi ixtiyoriylik ta’lim olishdagi anglash, faoliyatni erkin tanlash, takomillashuvga bulgan ongli ragbat, ichki dahvat tamoyillari b’lib, ular insonning takomillashuvida uziga xos harakatlantiruvchi omillar sanaladi. Mutolaa madaniyati tahrifi borasidagi manbalarni tax/shlidan kelib chihib, ularni quyidagi tartibda guruhlash mahsadga muvofih: — mutolaa madaniyatidan kuzatilgan ijtimoiy maqsadlar ustuvorligini tahkidlash asosidagi guruhlash; — dunyo taraqqiyotida gumanitar-ma’naviy yondashuvlar zaruratini anglashning kuchayishi, ijtimoiy ehtiyojlar ustuvorligini anglash muhimligiga asoslangan guruhlash; — ma’naviy takliflar ijtimoiy taraqqiyot yo’nalishlarini belgilashning asosiy tamoyili, deb qarashga asoslangan guruhlash. Ilmiy adabiyotlarda mutolaa madaniyatiga berilgan tahriflar mazmuini ularning umumiy mohiyatiga kura quyidagicha tasniflash mumkin: — mutolaa madaniyati mutolaa darajasi, mutolaa amaliyoti va mutolaa imkoniyatlari uygunligini ifoda etadi; — mutolaa madaniyati ijtimoiy ong, ijtimoiy amaliyot va ijtimoiy istihbol hodisalari tadridiy o’zgarishlarining ifodasi sifatida maydonga keladi; — mutolaa madaniyati har bir tarixiy madaniy muhit, etno hududiy uziga xosliklar tahsirida tarkib topuvchi hodisa sifatida yuzaga chikdtsi; — mutolaa madaniyati insoniyatning anhanaviy jamiyatdan industrial va postindustrial jamiyat sari tadrijiy rivojlanishi oqibatida jarayon sifatida talqin etiladi; — mutolaa madaniyati insoniyat taraqqiyotida mahsulotlar, tovarlar, munosabatlar hamda axborotlar almashuvining bevosita holatdan bilvosita holatlarga tamomila kuchishining tabiiy-mantihiy mahsuli sifatida kuriladi; — mutolaa madaniyati insoniyat umumiy taraqqiyoti jarayonlarining asosan talab va taklif munosabatlari tamoyili asosiga kurilishining mantiqiy hosilasi sifatida tushuntiriladi; — mutolaa madaniyati axborotlashgan jamiyatda insoniyat ongi favkulodda yuksalishining uziga xos tarzla namoyon bo’lishi sifatida talhin etiladi; — mutolaa madaniyati jamiyatdagi siyosiy tuzum yo’nalishi, mafkuraviy tahsir tizimlari bilan bogliq ravishda shakllanuvchi ijtimoiy-siyosiy hodisa, deb qaraladi; — mutolaa madaniyati bashariyat taraqqiyotining omili — yangilikka intilish, ilm-fan, ta’lim, madaniyatni mislsiz yuqori takomil kulamlariga olib chiqish vositasi sifatida izohlanadi; — ayrim manbalarda mutolaa madaniyati ta’lim bilan bevosita boglik ijtimoiy jarayon sifatida talqin etiladi. Mutolaa madaniyatini urganishga bagishlangan tadqiqotlarning deyarli barchasida mazkur xodisada “kitob-kitobxon-kutubxona” tizimidan iborat, deb karaladi. Mazkur jarayon “obyekt-subyekt-obyekt” yo’nalishlarida tadqiq etiladi. Mutolaa madaniyati mutolaa texnolgiyasi, darajasi hamda intensivligi tizimida tadjik etilmaydi. Yoki mazkur tizim yasovchi belgilar alohida-aloxida, ya’ni muayyan uygunliksiz talqin etilayotir. Bu esa, mutolaa madaniyati hodisasini urganish jarayonlarini pirovard natijaga yo’naltirishga monelik qilib kelmokda. “Obyekt-subyektobyekt” tizimi “subyekt-subyekt-obyekt” tizimi bilan uygunlasha olmasligi tabiiydir. Ana shu anhnaviy “obyekt-subyekt-obyekt” tizimida kitob-kitobxon, muallif-kitobxon,

kitobxon-kutubxonasi, tajribali kitobxontajribasi kam kitobxon munosabatlari tarzida urganishga ehtibor kdratilmaydi. Ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot natijalariga kura, ijtimoiy subyektga Karaganda ijtimoiy obyekt urnini sunhiy ravishda oshirishga urinib kelgan markscha nazariya va totalitar mafkura inkirozga uchradi. Mustaqillik natijasida mamlakatimizda ilm-fan taraqqiyoti erkinlik moxiyatini kasb etgan bo'lishiga kdramay, kutubxonashunoslik hamda mutolaa sotsiologiyasi, psixologiyasi yo'nalishlaridagi ilmiy tadqiqotlarda hamon yuqorida aytilgan kamchiliklar davom etmokda. Bizningcha, mutolaa xodisasini "subyekt-subyekt obyekt" tizimida tadqiq etish lozim. Zero, rus olimi N.Rubakin XX asrning boshida aytib utganidek, "har qanday kitob inson uchun, inson kitob uchun emasdir" . Rivojlangan Fa'6 davlatlaridagi mutolaa sotsiologiyasi va psixologiyasi tadqiqotchilari allakachon mazkur tizimga utganlar. Bu tizimdagi muxim belgilar: mutolaa texnologiya m , mutolaa darajasi hamda mutolaa intensivligidir. Mutolaa texnologiyasi o'quvchi tomonidan amtnni uzlashtirish usullarini anglatib, bu jarayonning sifat va miqdor yo'nalishlariga ega. N.Rubakin fikricha, kitobxon tomonidan matnning kdnchalik sifatli uzlashtirilgani uning matn mazmunini kanchalik darajada anglaganligi hamda anglagan tushunchalarni hayotga kanchalik tatbiq kila olishi bilan belgilanadi. Mutolaa texnologiyasining miqdoriy jixati esa, o'quvchining tez yoki sekin o'qishida kurinadi. Tez o'qishning mutolaadagi ahamiyati yuqoridir. Bu jarayonida shaxsning tezkor xotirasi hamda diqqatning mukimligi shakllanadi. Ushbu xususiyatlar esa, uz navbatida, shaxsning ak/shy kamolotini ta'minlaydi. Jamiyatning har bir ahzosini aklan rivojlantirish komil inson kontseptsiyasi hamda har tomonlama soglom avlodni shakllantirish borasidagi sahy-harakatlarimizning asosiy maksadidir. Mutolla tezligi tarbiya jarayonida ham muxim ahamiyatga ega. Psixologik tadqiqotlarning kursatishicha, o'rta maktabning 6-7 sinflariga kelib, o'qishdagi faollik keskin pasayadi. Bunga tahsir qiluvchi asosiy omillardan biri — o'quvchilarda shaxsiy mas'uliyatning pasayishidir. Bu holat 5-sinfda, ayniqsa, aniq kuzatiladi. Uz navbatida, mas'uliyatsizlikning shakllanishiga 3-4 sinflarda darslarning uz vaqtida uzlashtirilmaslgi sabab bo'lib, bu esa, turli muraqqab matnlarni tez o'qiy olmaslik natijasidir. Bundan kelib chikdtsigan ilmiy-hayotiy saboq shuki, boshlangich-sinflarda tez o'qish kobiliyatini egallay olgan o'quvchilar keyinchalik ham saboqlarga mas'uliyat bilan yondashadigan, faol hamda har tomonlama yetuk insonlar bo'lib yetishish imkoniyatlarini oshiradilar. Tez o'qishning iqtisodiy samaradorligi ham yuqoridir. Tadqiqotchilar fikricha, yapon mo'jizasining asosiy omillaridan biri ham ishchilarning o'qishga moyilligi yuksakligi, yuqori ma'lumotga ega bulganligidadir. Rasmiy ma'lumotlarga Karaganda, o'qishga layoqatning ustuvorligi natijasida XX asrning 90 yillaridayoq katta yoshdagi yapon aholisining 38 foizi oliy ma'lumotga ega bo'lishgan. Bu yutukning ahamiyatli tomoni shundaki, aksariyat yaponlar bunga mustaqil ravishda erishishgan. AQSH korxonalarida esa, minutiga 400 tadan kam so'z o'qiydiganlarni raxbar lavozimlarga tayinlashmaydi. CHunki ularda tez o'qiy olmaydigan

raxbar, kogozga kumilib koladi, deb hisoblasharkan. Ma'lumki, fukarolarimizda mafkuraviy immunitetni shakllantirishda gazeta-jurnallar muhim ahamiyat kasb etadi. Agar "Xalk so'zi" gazetasi o'rtacha 40 ming so'zdan iborat, gazetxonlarimiz o'rtacha minutiga 80 ta so'zni o'qiy oladi, deb hisoblasaq bir kishi mazkur gazetaning bitta sonini o'qish uchun 500 minut yoki 8 soat sarflashi kerak bo'ladi. Agar tezroq o'qisa, tabiiyki, kamroq vaqt sarflab, ko'proq ma'lumotga ega bo'ladi. Bundan kurinib turibdiki, tez o'qishni shakllantirishning mafkuraviy ahamiyati ham mavjud. Tadqiqotchilar mutolaa texnologiyasining sifat va miqdor yo'nalishlari o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlashi uchun optimal o'qishni tavsiya etishadi. V.Zaytsevning fikricha, "optimal o'qish so'zlashuv nutqi darajasidagi o'qishni anglatadi". Bu minutiga 120-150 ta so'z o'qish, demakdir. SHunda shaxsning ruhiy holati va intellektual imkoniyatlari ham ko'proq ma'lumotga ega bo'lish, ham o'qilgan ma'lumotni anglash imkonini beradi. Ilmiy xodimlar va raxbar lavozimidagilardan, albatta, tezroq o'qish talab etiladi. Mutolaa tezligi ma'lumotlarni kabul qilish tezligiga bog'lik. Bunda kitobxonning tahlil qilish tezligi va intellektual salohiyati kabi shaxsiy xususiyatlari ham muhim ahamiyatga ega bo'ladi. AQSHlik mutaxassislar mutolaa jarayonini o'qilayotgan matnni tushunish koeffitsienti 70 foizdan kam bulmagan "me'yoriy" hamda 50 foiz atrofida bulgan "saralab" o'qish turlariga ajratishadi. Me'yoriy hqish odtsiy (minutiga 200-300 ta so'z), tezroq (minutiga 300- 500 ta so'z) hamda juda tez (minutiga 550 tadan oshik so'z) uqishni anglatadi. Saralab uqish esa, karab chiqish, qidirish va saralab o'qishdan iborat. Saralab o'qishda uqish tezligi minutiga 800-1600 ta so'zni tashkil etadi. Ushbu o'qishni mutaxassislar diagonal uqish deb ham nomlashadi. , Mutolaa madaniyatining ikkinchi tizim yasovchi xususiyati — mutolaa darajasi mutolaa texnolgiyasi bilan bog'lik bo'lib, o'quvchi tomonidan ma'lumotni anglash darajasini bildiradi. Buning to'rtta bosqichi mavjud bo'lib, ular quyidagilardir: — birinchi daraja O'quvchi matnning mazmunini anglab, hikoya kylinayotgan voqeaning syujetini hamda uning asosiy jihatlarini eslab qoladi; — ikkinchi darajada o'quvchi matnning mazmunini hamda syujetni anglab, voqealar rivojini ma'lum darajada bashorat kila olish kobiliyatiga ega bo'ladi; — uchinchi darajada o'quvchi matnga va unda hikoya kylinayotgan voqeaga o'zining mustaqil munosabatini bildirib, qahramonlarning xatti-harakatlarini baholay oladi hamda asarning epizodlarini taxdil kila oladi; — turtinchi darajada o'quvchi matnning mazmunini tula anglab, voqeani mustaqil taxdil eta oladi. Voqea qahramonlarining xatti- harakatlarini tahlil qilib, uz munosabatini shakllantiradi. Yoshligidanoq mutolaaning mazkur darajalarini shakllantirib borish lozim. Komil insonni tarkib toptirishning asosiy maqsadlaridan biri ham har bir shaxsni yuqoridagi ketma-ketlikning turtinchi darajasiga chikarishdir. Mutolaa madaniyatining eng muhim tizim yasovchi xususiyati — mutolaa intensivligi bo'lib, bunda mutolaa manbalaridan davriy foydalanish sur'ati tushuniladi. Ya'ni bir o'quvchining bir hafta davomida nechta gazeta o'qigani yoki bir yil mobaynida nechta kitob

o'qigani mazkur uning mutolaa intensivligini belgilaydi. Mutolaa intensivligi jamiyatda mutolaa madaniyatining darajasiga mutanosib bo'lib, intensivlik kanchalik yuqori bulsa, mutolaa madaniyati ham shuncha yuqori bo'ladi. Mutolaa intensivligining yuqori bo'lishini ta'minlovchi omillar quyidagilardir. 1. Mutolaaga va ma'lumot olishga qiziqish daoajasining yuqoriligi. Bu xususiyat shaxsda yoshligidan — maktabda, hatto bolalar 6o f - chasida shakllanadi. Demaq jamiyatda barkamol shaxslarni kamol toptirishning muhim ji- hatlaridan biri — o'quvchi yoshlarda mutolaaga qiziqishni shakllantirishdir. 2. Mutolaa manbalarining qiziqarli, mazmunan boy bo'lishi. Buni ta'minlash uchun mutolaa manbalarining mazmundorligini oshirish, shuningdek, jahon hamda milliy mumkin adabiyot durdonalari namunalarini, yuksak istehdod va mayorat bilan yaratilgan zamonaviy asarlarni ko'proq chop etish lozim. 3. Mutolaa manbalariga oson ega bo'lishni ta'minlash. Buning ikkita omili bor. Birinchisi — iqtisodiy omildir. Ya'ni axolining harid kuvvati bilan mutolaa manbalarining xarid bahosi mos kelishi kerak. Axolining ijtimoiy himoyaga muhtoj katamlari, ya'ni kam ta'minlangan va nogironlarni bepul kitoblar bilan ta'minlash va gazeta-jurnallarga obuna qilishni tashkil etish lozim. Ikkinchi muhim jihat esa, mutolaa manbalari tarkatiladigan muassasalarining kulay joylarda joylashuvidir. Ya'ni kutubxonalar, internet-kafelar, kitob hamda gazeta aukonlarining joylashtirilishida kitobxon va gezatxonlarning manfaatlari hisobga olinishi lozim. 4. Bozor iqtisodi talablariga mos ravishda turli adabiyotlar va boshka mutolaa manbalarining reklamasini keng yulga kuyish. Fa'6 mamlakatlarida va xususan, Rossiyada utkazilgan sotsiologik tadqiqotlarning kursatishicha, anik maksadni kuzlagan holda oldindan reklama kilingan nashr mahsulotlariga talab har doim yuqori bo'ladi. Bu omildan rivojlangan davlatlar noshirlari ustalik bilan foydalanib kelmokdalar. CHunki bu ishlar, bu bir tomondan, iqtisodiy foydani kuzlab amalga oshirilayotgan bulsa, ikkinchi tomondan, jamiyatda mutolaa intensivligining usishiga, demaq mutolaa madaniyatining rivojlanishiga yordam beradi. Yuqoridagi uch omil — mutolaa texnologiyasi, mutolaa darajasi hamda mutolaa intensivligini amaliyotda muvaffakiyatli kullay olish mutolaa madaniyati uchun zarur alomatlardan hisoblanadi. Mutolaa madaniyati ijtimoiy maksadlar, ehtiyojlar hamda mutolaa subyektlari intilishlarining uziga xos uygunlashuvidir. Mazkur hodisani jamiyatda ma'naviy-intellektual yuksalishga bulgan intilishlarning uziga xos namoyon bo'lish shakli, deyish mumkin. Mutolaa madaniyati fakat umuminsoniy va gumanitar milliy kadriyatlar uygunlashgan jamiyatlardagina yuksaladi. Bilaks, akidaparastliq millatchiliq shovinizm, diniy ekstremizm yoki etnik biryoklamalik ustuvor bulgan jamiyatlarda mutolaa madaniyati amal kila olmaydi. Bunga milliy madaniyatimizning tanazzul davri bulgan va oxir-okibat mustamlaka ulkaga aylanishimizga olib kelgan XVIII-XIX asrlardagi paookandalik davri yakkol misol bo'la oladi. Usha davrdagi jaholatparastliq mutolaa hodisasining umumjamiyat mikyosidan ayrim insonlargagina xos holatga aylanib kolganligi oxir-okibatda yurtimizning ham siyosiy, ham

ijtimoiy-iqtisodiy, ham madaniy mavkeiga jidtsiy putur yetkazdi. Aholida mutolaa madaniyatini shakllantirishga maksadli tahsir kursatilishi, nazarimizda, oxir-okibat yurtdoshlarimizda umumiy madaniyat darajasining kutarilishga hamda jahon hamjamiyatining yuksak madaniyatli xalklari katoridan urin olishiga ko'maklashadi.

RITORIKA VA ZAMONAVIY ADABIYOT

Reja:

1. Ritorika, mutolaa zamonaviy adabiyot rivojini ta'minlovchi, o'quvchi va badiiy asar munosabatini mustahkamlovchi vosita ekanligi
2. Badiiy asarni o'qish, tushunish, tushuntirish jarayonida ritorika me'zonlarining muhim ahamiyat kasb etishi.
3. Zamonaviy epik, dramatik, lirik janrlarga xos sematik-struktural mohiyatning bevosita mutolaa san'ati va ritorika bilan bog'liqligi.
4. Adabiy turlar va janrlarda mutolaa madaniyati.

Tayanch so'zlar: *nutq madaniyati, notiqlik san'ati, komil notiklik, notiqning vazifalari, voizlik, vz, harbiy notiqalar, notiqlik tarixi, til boyligi, foydalanish yo'llari, nutqning g'oyaviy mazmuni, notiqlikning shartlari.*

Movarounnahr hududida o'rta asrlarda keng amalda bo'lgan eski o'zbek adabiyoti va adabiy tilining eng yuqori cho'qqiga ko'tarilgan, barq urib gullab- yashnagan davri XV – XVI asrlar, yahni buyuk o'zbek san'atkorlari Lutfiy, O'toyi, Sakkokiy, Alisher Navoiy, Zahi-riddin Muhammad Bobur va boshqalar ijodiy faoliyat ko'rsatgan davr hisoblanadi. Bu davrning boshlanishi temuriylar davri bo'lib, shundan boshlab eski o'zbek tilida juda ko'p miqdorda yozma adabiyot, tarixiy va ilmiy asarlar yaratildi.

XIV-XVI asrlar o'zbek poetik adabiy tili deganda «poetik adabiy til» atamasining ishlatishimizda asos bor. Adabiy tilning shakllanish va taraqqiyotini davrlashtirganda, olim-lar bu davrlar adabiy tilini eski o'zbek poetik adabiy tili davri deb nomlaydilar. Chunki Alisher Navoiydan sal avval o'tgan shoirlarning asarlari, Oltin O'rda tsikliga kiruvchi asarlar XV asr oxiri va XVI asr boshidagi klassik eski o'zbek poetik adabiy tili oralig'idagi o'rinni egallagan. Bu va bundan keyingi davrlarda yaratilgan asarlarning deyarli aksariyati poetik asar-lar hisoblanadi. Jumladan, Mavlono Lutfiyning g'azallari, Haydar Xorazmiyning «Gul va Navro'z» dostoni, Atoiy va Sak-kokiy g'azallari, Amiriyning g'azallari va «Dahnoma»si, Mir Haydarning «Mahzan ul-asror» dostoni, Kamol Xo'jandiyning «Latofatnoma»si, Husayniy devoni, Mir Said (Navoiyning togpasi), Muqimiy, Ubaydiy, Omoniy, G'aribiy (Husayn Boyqaro-ning o'g'li SHoh G'arib Mirzo), Gadoiylarning nazmiy asarlari bu davr adabiy tilini poetik adabiy til deyishimizga asos bo'luvchi manbalardir. SHuningdek, Alisher Navoiyning «Xamsa» va «Xazoyin ul-maoniy»siga kiruvchi nazmiy asarlar, Zahi-riddin Muhammad Bobur poetik asarlari ham shunday asar-lardan.

Bundan keyin (XVI-XIX) yashab ijod etgan ijodkorlar Majlisiy, Poshshoxoja, Turdi, Huvaydo, Mashrab, Nishotiy, Fazliy, Gulxaniy, Maxmur, Nodira, Uvaysiy, Munis, SHavqiy, Ogahiy, Miriy, Kamol Xorazmiy, Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Feruz, Avaz O'tarlarning nazmiy asarlari klassik eski o'zbek poetik adabiy tilning shu davrlar namunasi va uning rivoj-lanishiga katta hissa qo'shgan manbalardir.³


SHu davr eski o'zbek poetik adabiy tili o'ziga xos fonetik, morfologik va leksik xususiyatlari, xarakterli poetik belgi-lari bilan alohida ajralib turar edi. Bu davr adabiy tili ancha qayta ishlangan, silliqlangan, badiiy leksik-semantik tasviriy vositalariga boy, uslubiy jihatdan rang-barang til edi. Mazkur adabiy tilni mahalliy ziyolilar (shoir,yozuvchi va olimlar) «o'zbek tili» atamasi bilan emas, balki «chig'atoy tili» atamasi bilan va, shuningdek, «turk tili», «turkiy», «turkcha» kabi leksik atamalar bilan tilga olgan edilar. Jumladan, Alisher Navoiyda «chig'atoy lafzi», Mirza Mehdixonda «Lug'ati chig'a-toyi», Abdulg'ozi Bahodirxonda «chig'atoy turkisi» degan adabiy terminlar uchraydi. «CHig'atoy» adabiy tilida Navoiydan sal ilgari, XIV asrda o'tgan shoirlar yozishni boshlab bergan bo'lsalar, Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi shoir va boshqa olimlar uni yanada rivojlantirib, yuqori pog'onaga ko'tardilar.

Lutfiy, Atoiy, Sakkokiy va ularning zamondoshlari asar-lari tilida ishlatilgan leksikaning turkiy tilga tegishli qatlamini ,avvalo, fe'llar tashkil qiladi, chunki fe'l turku-miga kiruvchi so'zlar odatda bir tildan ikkinchi tilga kamdan – kam hollarda o'tishi mumkin.




Lutfiy, Atoyi, Sakkokiylar tomonidan ishlatilgan sodda fe'llar semantik jihatdan aniq, bo'lib, ularning qariyb hammasi hozirgi o'zbek tilida ham bor. Bunday sodda fe'llar tilda ko'p va tez-tez ishlatiladigan so'zlar bo'lib, ularning aksariyati harakat, nutq, ko'rish, his etish fe'llari ekanligi bilan xarak-terlanadi.

Qo'shma fe'llar esa sal boshqacharoq. Analitik tipga kir-uvchi tarkibli bunday fe'llarning birinchi komponenti ko'proq arabcha va forsha so'zlardan, qisman turkiy so'zlardan, yordamchi (ikkinchi) komponenti esa har doim turkiy ko'makchi fe'llardan tashkil topgan. SHoirlarimiz ko'makchi fe'llardan ayrimlariga, xususan **aylamoq, etmoq, qilmoq, bo'lmoq, o'lmoq, surmak** so'zlariga ko'proq murojaat qilganlar.

Ba'zan shoirlar birinchi komponenti bir xil arabcha yoki forsha bo'lgan qo'shma fe'lning ikkinchi komponenti sifatida boshqa-boshqa, lekin o'sha mahnodagi ko'makchi fe'llardan foy-dalanadilar. Masalan, Lutfiyda:



³.Бу ҳақда.қаранг: Ҳамдамов Ж. Ўзбек тили тарихи, I қисм.- Самарқанд: СамДУ нашри, 1999. 3-14-бетлар.



Xuddi shunday holat Atoiyda ham, Sakkokiyda ham bor. Uchala shoir tilining leksikasida alohida bir qatlamni arxaik soʻzlar tashkil etadi. Ularga, asosan, Urxun-Enisey, eski uygʻur yozma yodgorliklarining tiliga xos boʻlgan va XIV-XV asrlarga kelib eskirgan, ishlatilish doirasi ancha torayib qolgan soʻzlarni koʻrsatish mumkin: **ajun** // **aʿʿun** (dunyo), **ilik**(qoʻl), **tapugʻ** // **taʻugʻ** (xizmat), **taʻuugʻchi** // **tabugʻchi** (xizmatkor), **qamuq** // **qamugʻ** (hamma, barcha), **qobmoq** // **qoʻmoq** (oʻrnidan turmoq), **qoʻarmaq** (turgizmoq, Faqat Lutfiyda), **qolmaq** (soʻramoq, iltimos qilmoq), **yazuqsiz** (gunohsiz, begunoh), **yazi** (dala), **yigʻi** (yigʻi), **üküch** (koʻp), **idi** (xoʻjayin, ega, xudo), **iglig** (bemor, kasalmand), **edgü** (yaxshi), **bitimək** (yozmoq), **tamuq** (doʻzax), **tura** (qonun, urf – odat, qoida), **nagʻu** (chechuk, qanday), **yavuchmaq** (yaqinlashmoq), **yavutmaq** (yaqinga yoʻlatmoq) va boshqalar.

SHoirlarimiz tilida yana shunaqa soʻzlar istehmolda boʻl-ganki, bunday soʻzlar ham eski uygʻur va eski turkiy til yozma yodgorliklariga xos boʻlsa-da, ular XIV-XV asrlar eski oʻzbek adabiy tili uchun arxaik (eskirgan) soʻz hisoblanmaydi, chunki oʻshanday soʻzlar bizning shoirlarimiz tilida ham faol ishla-tiladi. SHunday soʻz-lardan namuna sifatida **asru** (koʻp), **ey**(yuz, bet), **mej**, (xol), **azmaq** (yoʻldan ozmoq, adashmoq), **yazgʻur** (yoʻldan ozdir, adashtir), **enəgə** (enaga), **körk** (chiroy, goʻzallik) kabi leksik birliklarni keltirish mumkin.

Lutfiy, Atoiy, Sakkokiy asarlari tilining leksikasini tahlil qilar ekanmiz, yana bir jihatga ham ehtiborni qaratish lozim deb hisoblaymiz. Gap shundaki, oʻsha davr shoirlari tilida istehmolda boʻlgan leksik birliklarning ayrimlari turkiy tillarning ayrim guruhlariga, aytaylik, oʻgʻuz va qipchoq guruh-lariga tegishli ekanligi bilan xarakterlanadi. Jumladan, shoirlarimiz tilida uchraydigan **əl** (qoʻl), **dudaq** (lab), **delu** (telba), **ittürmək** (yoʻqotmoq), **süchük** (shirin, chuchuk), **uyumaq** // **uyuqlamaq** (uxlamoq) kabi soʻzlar turkiy tillarning janubi- gʻarbiy, yahni oʻgʻuz guruhiga mansub usmonli turk, ozarbayjon kabi tillarga xos leksik birliklar boʻlsa, **üsruk** (mast), **iyəmənək** (tortinmoq, uyalmoq), **bosagʻa** (boʻsagʻa, oston), **telbə** (telba), **erin** (lab),

kəzgü (oyna), **chiroy** (chiroy, chehra, bet), **yirav** (jirov, shoir, baxshi) kabi soʻzlar qipchoq tillariga xosdir.

Baʼzan soʻzlarning qaysi til yoki dialektga (lahjaga) mansub ekanligini aniqlash qiyin, chunki ular oʻgʻuz tillarida ham, qipchoq tillarida ham barovar ishlatilaveradi. Masalan: **uyat** (uyat), **eski** (eski), **tuzaq** (tuzaq), **qoldash** (oʻrtoq, doʻst, yordamchi), **arī** (sof, toza).

Ayniqsa, Lutfiy asarlari tilida oʻgʻuzcha va qipchoqcha ayrim feʼl shakllari parallel ishlatilganligini koʻramiz: **olmaq** va **bolmaq**, **uynamaq** va **uygʻanmaq**, **oturmaq** va **olturmaq** kabi.

SHunday qilib, Lutfiy, Atoiy, Sakkokiy asarlarida biz ancha taraqqiy qilgan va boy leksik nazmiy adabiy tilni koʻramiz. Bu adabiy tilning qoraxoniylar davri mumtoz uygʻur adabiy tili bilan va XIII-XIV asrlarda Oʻrda atroflarida amalda boʻlgan turkiy adabiy tilning oʻgʻuz-qipchoq koʻrinishi bilan maʼlum darajada aloqasi boʻlgan. Mazkur poetik adabiy til taraqqiyotining yuqori choʻqqisi esa Alisher Navoiy va Bobur asarlari tilida koʻrinadi.

Badiiy nutqning estetik taʼsiri. Obrazli til. Poetik til. Badiiy til va adabiy norma. Obraz va obrazlilik. Badiiy asar tili oʻz mohiyati bilan obrazli tildir. Demak, badiiy obrazlilik tushunchasi ifoda vositalariga bogʻliq, soʻzlardagi emotsionallik, buyukdorlik, taʼsirchanlik kabi holatlar ham muhim oʻrin tutadi..

Tashna yashadik biz mehrga mutloq

Ishqqa, muhabbatga tashna oʻtdik biz (A.Oripov)

Keltirilgan parchada ishq - muhabbat soʻzlari garchi oʻzaro mahnodosh boʻlsa-da, bir-biridan farq qiladi. Yahni ishq soʻzida belgi- xususiyat mahnosi muhabbat soʻziga nisbatan kuchliroq.

SHuning uchun ularning yonma-yon qoʻllanilishi tashna soʻzi-ning misrada takror keltirilishi ifodaviy taʼsirchanlikka va obrazlilikka xizmat qilgan.

Xuddi shuningdek, H.Olimjonning quyidagi misralari badiiy obrazlilikni vujudga kelishi uchun mahnodosh soʻz-larning takror qoʻllanilishi asosiy vosita boʻlib kelgan.

Balo, ofatlarni yengib oʻrgangan,

Muhabbating ulugʻ, yuraging kengdir.

Bunday xususiyat badiiy asarning yoki badiiy nutqning asosiy vazifasi boʻlgan estetik taʼsirchanlikni kuchaytiruvchi vositalar qatoriga kiradi. Badiiy nutqning yoki badiiy asar tilining yana bir xususiyati maxsus nutq qurilishiga ega ekanligidir.

Badiiy adabiyot tili adabiy matn bilan uzviy bog'liq holda o'sha matn badiiy adabiyotining asosini tashkil etadi: «Yo'q, hech kimdan sazo chiqmadi. Hamma jim, o'z ishi bilan band» (X.To'x-taboev «Sariq devni minib»). Keltirilgan parchada uchta til vositasi inkor uchun xizmat qilyapti. Ular bir - birini kuchaytiradi. (Yo'q, hech kim, - ma)

Keltirilgan parchada **sazo** so'zi o'rniga uning paronimi **sado** qo'llanilishi lozim edi. Lekin bu matnda so'zlarning bunday noo'rin almashinuvi fikrning aniqligi, matnning ta'sirchan-ligini oshirishga xizmat qilgan.

S.Siyoevning yozishiga qaraganda badiiy til deganda biz avvalo timsolni, majozni tushunamiz. «Adabiyotimizda - deb yozadi yozuvchi,-ko'payib borayotgan illatlardan yana biri ezma-likdir».

Umuman, badiiy asar tilini umumxalq tilining negizi deb tushunish va idrok etish lozim.

«... Hamma jim qoldi. Bu sukunatni yetmish yoshlardagi bir chol buzdi. U, mulla Norqo'ziga qo'lni paxsa qilib dedi:

- Sadqai odam keting-e, ayb emasmi?! Xotin qilish qo'lingizdan kelmasa, taloq qiling! Qo'ying-e, ko'chib keting mahalladan, yo biz ko'chib ketamiz!

Devor ustida turgan 12 yoshdagi bir qiz devordan kesak ko'chirib olib mulla Norqo'ziga o'qtaldi

- Ha, o'l, turqing qursin! Boshinga solaymi shu bilan! Mahallada sasib, o'quvchi qizlarga kun bermaysanu, o'zing noto'g'ri ish qilasan...»

Keltirilgan parchada og'zaki so'zlashuv tilining vositalari- chol tilidagi «**sadqai odam keting-e**», «**ko'chib keting mahal-ladan, yo biz ko'chib ketaylik**», yosh qizcha tilidan aytilgan «**o'l, turqing qursin**», «**boshinga solaymi shu bilan**», «**o'quvchi qizlarga kun bermaysanu, o'zing noto'g'ri ish qilasan**» kabilarning qo'llanishi bilan asarning xalq so'zlashuv tiliga yaqinligi ta'minlangan. Bu keksa chol va yosh bola nutqining o'ziga xosligini berishda va uning ravon hamda aniq ifodalash uchun zamin hozirlagan.

Adabiy til normasining shakllanib, rivojlanib bori-shida badiiy asar tili alohida o'rin tutadi, yahni badiiy asar tili, umuman, badiiy adabiyot uchun o'ziga xos laboratoriya sana-ladi. U shunday laboratoriyaki, umumxalq tilining nutqiy vosi-talari badiiy asar tarkibida qayta ishlanadi:

*«Unsin yelkasiga maymun mingan **daqiqada** naqadar qo'rqqan bo'lsa, hozir shu qadar **tinchidi, xotirjam** bo'ldi: demak, qandoq berahm bo'lsa ham shu atrofda odam bor!*

*Unsin go'ristondan chiqib, katta yo'lga tushib oldi, yarim yo'lga borganida chap qo'lga qattiq og'riq kirganini sezdi. Og'riq qumg'onni eslatdi. CHap qo'lida qumg'on bor edi, qani? Unsin bir to'xtadi-yu, choynakni ikala qo'li bilan bag'riga bosib, **darmoni yetguncha jadalladi.***

*Tushida yuugurganday uning yo'li ko'paymas, **ikki oyog'i** gavdasidan keyinda qolar, qo'lidagi choynak tobora og'irlashib borar edi».*

Daqiqa o'rnida **payt, vaqt, darmon** o'rnida **kuch yoki quvvat, jadalladi** o'rnida **tez yurdi, ikki oyog'i** o'rnida **oyoqlari** so'zlarini ishlatga bo'lar edi. Lekin yozuvchi ishlatmadi. Chunki muallif tanlagan so'zlarning ushbu matndagi jozibasi, kuchi, estetik vazifasi boshqacharoq. Bu so'zlarda yozuvchi ko'nglidagi mahnolar mujassamlashgan. Keltirilgan parchada mahnodosh so'zlar (**tinchidi, xotirjam bo'ldi**) va antonimlar (**qo'rqdi - tinchidi**) yonma-yon qo'llanilishi badiiy matnning uslubiy qimmatini ta'minlagan, obrazlilikni kuchaytirishga vosita bo'lgan.

Nabilar, rasullar, dohiylar oldida

Qabrlar, qasrlar turgandi qator

(A.Oripov «Ona sayyora»)

Nabilar, rasullar, dohiylar - sinonim, **qabrlar, qasrlar** -antonim. Bu parchada o'zaro ohangdosh so'zlar bilan yonma - yon mazmun jihatdan zid bo'lgan paronim so'zlar qo'llanilgan bo'lib, uslubiy ta'sirchanlikni vujudga keltirgan, bu o'rinda **qabr** va **qasr** so'zlari kontekstual antonimlar sanaladi.

O'qilur sevgingga qora janoza ...

Sen bormasang, qora mozor.

(H.Olimjon «Ofeliyaning o'limi»)

Bu parchalarda mozor va janoza so'zlari musibat, o'lim qayg'u alamni ifodalaydi. Lekin shoir bu so'zlar yonida qora so'zini keltirish bilan ularning mahnosini bo'rttirish va kuchaytirishga muvaffaq bo'ldi.

Bu ham badiiy asar tilining adabiy til uchun o'ziga xos ijtimoiy laboratoriya ekanligidan dalolat beradi.

Til paydo bo'lishidan va insoniyatga baxshida etilganidan buyon jamiyatning mahsuli sifatida insonga, uning ezgu-niyatlariga, kelajagiga, hoziriga, taraqqiyotiga, jamiyatning gullab yashnashiga, ilm-fanning ravnaq topib kelishga xizmat qilmoqda. Inson dunyoni til va ongi orqali tanidi va bildi. Tabiat va uning inhomlarini til vositasida o'zlashtirdi. Inson til vositasida turli tillarda va dillarda so'zlashuvchi kishilar qalbiga yo'l topdi. Bir so'z bilan aytganda til – tengi yo'q boylik, bebaho xazina, «ko'ngil mahza-nining qulfi va ko'ngul mahzaning qulfi va ul mahzanning kali-ti»dir.

O'zbek adabiy tilining asoschisi, g'azal mulkining sul-toni – Mavlono Nizomiddin Mir Alisher Navoiy nafaqat she'riyat osmonidagi quyosh, nafaqat nazm bahridagi g'ovvos, balki til va so'z bilag'oni, til madaniyatini keng mahnoda tushungan olim ham edi. Shoirning tahbircha:

Ma'dani inson gavhari so'z durur,

Gulshani odam samari so'z durur.

Navoiy o'z davrida notqlik san'atini yuksak darajaga ko'tardi. So'zning estetik darajasini va vazifasini to'g'ri angla-gan shoir, so'z qudratiga juda katta baho beradi. Notiq yaxshi so'zlashi, fikrini bexato yetkazishi, suhbatdoshi yoki tinglov-chisini o'ziga qarata olishi uchun har bir so'zning salmog'ini o'lchab gapirish, tushunarli va ta'sirchan tilda so'zlash lozimligini qayd qiladi. Buning uchun fikr bayonidagi gaplar tarki-bidagi so'zlar ta'sirchan va kishi ruhiyatiga bevosita yetib boradigan va uni «qitiqlaydigan» bo'lishi kerakligini uqti-radi. Har bir so'z badiiyligidan tashqari, tushanarli va chuqur mahnoli bo'lishi lozimligini aytadi.

Nazorat savollari.

1. Nutqning uslubiy turlarining shakllanishiga qanday asoslar sabab bo'lgan?
2. So'zlashuv uslubining asosiy xususiyatlari nimalardan iborat?
3. Rasmiy uslubning qanday xususiyatlari bor?
4. Ilmiy-uslubning qanday xususiyatlari bor?
5. publitsistik va badiiy uslubning qanday jihatlarini bilasiz?

DRAMADA RITM VA OHANG

Reja:

1. Dramatik asarda ritm va ohangning yetakchi mavqeda turishi. Dramatik asardagi muallif nutqi asosiy ritm va ohang regulyatori vazifasini bajarishi.
2. Qahramonlararo dialogda monolog va ichki nutq talqinida notiqlik san'atiga xos marom o'zgarishlarining muqarrarligi.
3. Shu nuqtayi nazardan voizlik va dramatik janrlarning mustahkam aloqadorligi.
4. Dramatik asarlarda notiqlik va deklorativ bayonning ahamiyati.

Tayanch so'zlar: *drama, nutq madaniyati, ritm, ohang, muallif nutqi, ritm va ohang regulyatori, qahramonlararo dialog, monolog, ichki nutq, notiqlik san'ati, voizlik, dramatik janrlar.*

Notiqning umumiy nutqiy madaniyatining eng muhim uzvlaridan biri ovozning sifati, tovush qurilishi bilan bog'liq xususiyatlardir. Jonli, tovushli nutq va uning barcha unsurlarini to'g'ri voqelantirish ko'nikma va malakalarining jami tilshunoslikda nutq texnikasi deb umumlashtiriladi. Bunda ovozning sifati, nutq jarayonida to'g'ri nafas olish, tovush va tovush qo'shilmalarini aniq talaffuz qilish, aniq diktsiya kabi bir qator hodisalar nazarda tutiladi. Albatta, bundagi bosh masala ovoz masalasidir. Asosiy quroli nutq bo'lgan har qanday odam uchun ovoz hal qiluvchi ahamiyatta molikdir.

XIII asr SHarqining ulkan adibi SHayx Sahdiy SHeroziyning mashhur «Guliston» asarida shunday bir hikoyat bor: «Sanjariyya masjidida bir kishi rag'bat bilan azon aytar erdi, bir ovozi bilanki, eshitganlar andin nafrat etardilar. Masjidning sohibi bir amir erdi, odil va xushxulqlik. Xohlamas erdiki, aning ko'nglini mukaddar aylasa, aydi: «Ey javonmard, bu masjidning qadimgi muazzinlari borki, har birining besh tillo vazifasi bordur. Senga o'n tillo berurmen, tokim bo'lak mahallaga ketarsen». Bu so'zg'a ittifoq ayladilar va muazzin ketdi. Bir muddatdin so'ngra amirning huzuriga qaytib keldi va aydi: «Ey amir, menga zulmu sitam ayladingki, o'n tillo bilan meni bu mahalladin jo'natding. Ul mahallaki, men bordim, menga yigirma tillo berdilarki, bo'lak mahallaga ketsam qabul etayurmen». Amir kuldi va aydi: «Aslo olmag'aysen, zeroiki ellik tillog'a ham rozi bo'lurlar». (Sahdiy SHeroziy. Guliston (Mullo Murodxo'ja tarjimasini). - Toshkent: Fan, 2005. — 177—179-betlar.) Yoqimsiz ovoz kishilarni o'ziga jalb qilmaydi, chaqirmaydigina emas, balki bunday ovozdan barcha qochadi, hamma vaqt har kim undan qutulmoq payidan bo'ladi.

Mashhur rus olimi M.V.Lomonosov o'zining «Notqlik bo'yicha qisqacha qo'llanma»sida notiq bo'lish uchun, avvalo, tabiiy qobiliyat zarurligini, tabiiy qobiliyat esa ruhiy va jismoniy turlarga bo'li-nishini aytadi. Olim jismoniy qobiliyat deganda baland va yoqimli ovoz, uzun nafas va baquvvat ko'krak, shuningdek, sog'lom tana va kelishgan qomatni nazarda tutadi. (Lomonosov M.V. Sochineniya. — M.: Sovremennik, 1987. — 238-bet.)

Butungi kunda siyosatchilarning imiji («qiyofasi»)ni yaratishda bir qancha tashqi omillar qatorida ularning ovoz temбри ham muhim ekanligi alohida ta'kidlanadi. (Abdullaev B. «Qiyofalar» jangi yoxud imijni kim yaratadi? — «Hurriyat», 2006 yil 6 dekabrg'.) Umumam siyosatchimi, o'qituvchimi, aktyormi, jurnalistmi, kim bo'lishidaya qathi nazar, uning og'zaki nutqida barcha kommunikativ sifatlari mavjud bo'lsayu ovozida u yoki bu nuqson sezilsa, bunday nutq ta'sir| kuchini kamida yarmiga yo'qotadi. Aytish mumkinki, bir kishigami, yuz kishigami, boringki, ming kishigami, buning farqi yo'q, o'zgaga xitoban aytilgan har qanday nutqda ovozning, ovoz sifatining o'rtnsh favqulodda muhimdir.

«Tabiiy jismoniy qobiliyat» sifatidagi, aytaylik, xirqiroq, chiyildoq, shang'iroq kabi ovozlarining yoqimli bo'lolmasligi, yahni tinglovchi qulog'ini qiynashi tayin. Bunday yoqimsiz ovozdan «libos kiygan» fikrning kattagina qismi nutq idrokining o'ta sezgir va nozik darvozasi bo'lmish quloqdan o'tolmay tashqarida qoladi. Bu, albatta, nutq egasi ko'zlagan maqsad - muayyan bir axborotni tinglovchiga tugal va ta'sirli tarzda yetkazish uchun qulay sharoit yaratmaydi, balki unga monelik qiladi. Bu eski haqiqatni aslo; yoddan chiqarmaslik lozim. Tabiatan ana shunday «quloqni qiynaydigan» ovozga ega bo'lgan odam o'z ishining samarasidan chinakam huzur tuyishi, SHayx Sahdiyning «Guliston»idagi muazzin holiga tushmasligi uchun faoliyatining asosiy quroli nutq bo'lmagan boshqa kasblarning etagini tutgani mahqul.

Sir emaski, faoliyatining asosiy quroli nutq bo'lgan kasblar orasida aktyorlik birinchi o'rinda turadi, buning ustiga, aktyorlar soni ham ayni tur kasblarning boshqalarida mashg'ul bo'lganlar sonidan sezilarli darajada ortikdir.

Aktyorning ovozi, talaffuzi, diktsiyasi, umuman, tirik nutqi hamisha tinglovchilar, ayniqsa, teatrdagi tinglovchilar uchun o'ziga xos etalon, namuna vazifasini bajaradi. Aktyorning tirik nutqidagi kattadir, kichikdir, har qanday nuqson tinglovchi nazaridan chetda qolmaydi, darhol uning diqqatini tortadi. Bunday nuqson aktyor nutqida muntazam kuzatilsa, tinglovchi aktyordan nohaq bo'lsa-da, ranjigan hollarida mazkur nuqson asosida uni sirtdan kalaka, mazax qilishgacha borishi mumkin. Masalan, tinglovchilar o'zaro ana shunday aktyor haqida gaplashganda, uni mazkur nuqsonli ovoz, talaffuz yoki diktsiya bilan eslashadiki, bu umumiy tarbiya jarayoni uchun ham ijobiy holat emas, albatta.

Kasbga sadoqatli aktyor o'z tinglovchisi ko'zi o'ngida qusursiz va qadrli ideal imijini yaratish, uni saqlash uchun hamisha nutqining fonetik rasoligi haqida qayg'urishi zarur. To'g'ri,

tug'ma xirqiroqlik, chiyildoqlik kabi ovozni yoqimsiz qiladigan jihatlardan tamoman qutulishning iloji yo'q. Ammo nutq texnikasini yetarli darajada bilmaslik oqibatida yuzaga keladigan nuqsonlardan fonetik bilimlardan xabardorlik, ovozni yo'lga qo'yish (ruschada «postanovka golosa»), aniq talaffuz qilish, nutq jarayonida to'g'ri nafas olish bo'yicha turli mashqlar yordamida imkon qadar xalos bo'lish mumkin. Mashhur qadimgi yunon notig'i Demosfenning dastlab ovozi past, talaffuzi yomon, nafasi qisqa bo'lganligidan chiroyli va ta'sirli nutq ayta olmaganligi haqida tarixchilar yozganlar. Bu sohani chuqur o'rgangan olim S.Inomxo'jaev ta'kidlaganidek (Inomxo'jaev S. Notqlik san'ati asoslari. - Toshkent: «Aktyor», 1982. - 86-87-betlar.), keyinroq Demosfen nutq texnikasi asoslarini egallashga juda jiddiy kirishgan. U bir yerto'la qazib, shu yerto'lada ovozi rivojlantirish, diktsiya, deklamatsiya bo'yicha oylab mashqlar qiladi. Talaffuzidagi nuqsonlar, «r» tovushini aytolmaslik, ba'zi tovushlarni noaniq aytish kabilarni bartaraf etish maqsadida og'ziga mayda toshlarni solib, she'rlar, turli matnlarni o'qish bilan shug'ullanadi. Ovozi rivojlantirish, ovoz apparatlarini chiniqtirish uchun esa tepaliklarga yugurib chiqib, yugurib tushib, nafasini ushlab turgan holda she'rlarni deklamatsiya qiladi. Demosfen gapirayotganda bir yelkasini hadeb ko'taraverish odatidan qutulish uchun yerto'lasining shiftiga uchi o'tkir xanjarni osib qo'yib, yelkasini xanjarning ayni uchiga to'g'rilab turib, mashqlarini davom ettiradi. Ana shunday mashaqqatli va muntazam mashqlar tufayli Demosfen notqlikning yuksak cho'qqisini zabt ettan.

Aktyor nutqida kuzatiladigan kamchiliklardan biri fonatsiya jarayonida, ya'ni nutq hosil bo'lish paytida nafas olishdagi tartibsizliklar bilan bog'liq. Fonatsiya jarayonida nafas olish va nafas chiqarish fazalari shunday yo'lga qo'yilishi kerakki, nafas olish zo'riqishsiz, bir qadar jadalroq, nafas chiqarish esa tekis, bir me'yorda va davomliroq kechishi lozim. Nafas chiqarish qanchalik davomli, uzun bo'lsa, shunchalik yaxshi. Zotan, tovush, nutq ayni shu nafas chiqarish jarayonida hosil bo'ladi.

Fonatsiyada nafas olish va nafas chiqarish fazalarining ketma-ketligi, almashinish tartibini to'g'ri tasavvur etmoq kerak. Bu fazalar bilan nutqning hajmiy va, albatta, mazmuniy-estetik qurilishi o'rtasidagi mutanosiblikni to'g'ri belgilamaslik oqibatida nafasning yetmay qolishi, shunga ko'ra bir nafas bilan yaxlit aytilishi lozim bo'lgan nutq parchasining bo'linib ketishi, mantiqiy mazmunni buzadigan noo'rin pauzaning paydo bo'lishi kabi nuqsonlar o'rta qiqadi. Masalan, Qadimiy va boy tilimizning sofliginsh sakdash xdr birimizning burchimizdir jumlasini aytilarkan, masalan har so'zidan keyin nafas tugab qolsa, ilojisiz, nafas olish uchun to'xtalish majburiyati paydo bo'ladi, bu esa jumlaning noto'g'ri bo'linishiga olib keladi. Yoki ba'zan noto'g'ri taqsimlangan nafas, jumlaning oxiriga borib yetmay qolsa, jumladagi so'nggi so'z «yamlanib» talaffuz qilinadi, so'zlovchi xuddi bo'g'ilib qolganday, juda qiynalganday tuyuladi, bu tinglovchi uchun ham sezilarli darajada qiynov tug'diradi.

Yana bir misol. Odam o'ta hayajonlanganida, qattiq qo'rqqanida yoki og'ir musibat ichida bo'lganida, umuman, turli hissiy holatlarga tushganida so'zlarkan, nafas olish va nafas chiqarish fazalarini nazorat qila olmay qoladi. Buning natijasida normal fonatsiya uchun nafasi to'g'ri taqsimlanmaydi, ko'pincha oddiy bir so'z uchun ham nafasi yetmay qoladi. Tabiiyki, uning nutqi, so'zlari, tovushlari g'ayriodatiy bir shakllarda voqelanadi. Aktyor bunday holatlarni ham hisobga olishi maqsadga muvofiq. U namoyish jarayonida keraksiz hissiyot va hayajonlarini jilovlab olishi kerak, aks holda bu holatlar uning nutqiga o'zining salbiy ta'sirini o'tkazishi mumkin.

Nutq texnikasini egallashda umumiy tarzda bo'lsa-da, fonetik bilimlardan boxabarlik zarur. Ma'lumki, tovushning fizik-akustik xususiyatlari uning balandligi, kuchi, tembri (bo'yoqdorligi), cho'ziqligi kabi sifatlardan tarkib topadi. Har qanday og'zaki nutqning yashashini ta'minlaydigan intonatsiyaning prosodik unsurlari bo'lmish nutq melodikasi, nutq ritmi, nutq tempi (tezligi), nutq tembri kabi tushunchalar asosida ham mazkur fizik-akustik xususiyatlar yotadi. Masalan, «nutqda ovozning (tonning) baland-past tarzda to'liqlanishi melodikani yuzaga keltiradi, melodika esa gapning ifoda maqsadiga yoki emotsionallikka ko'ra turlarini belgilashda, sintagmalarni, kirish so'z yoki kiritma gaplarni ifodalashda muhim vosita sanaladi. SHuni alohida ta'kidlash kerakki, tebranish chastotasi nutqda boshqa akustik vositalar (urg'u, tembr, temp kabilar) bilan munosabatga kirishib, murakkab tovushni hosil qilishi ham mumkin, bunday murakkab tovushlardan esa turli ekspressiv-stilistik maqsadlarda, ayniqsa, she'riy misralardagi tovush tovlanishlarini tarkib toptirishda foydalaniladi» (Jamolxonov X.,A. Hozirgi o'zbek adabiy tili. 1-qism. — Toshkent, 2004. — 23-bet.). Aktyor o'z nutqida bu fonetik imkoniyatlar va qonuniyatlarni to'g'ri va o'rinli namoyon eta bilishi lozim.

Ayrim aktyorlar ko'pincha namoyish jarayonida boshqa joylardagiga qaraganda anchayin baland ovozda gapiradilar. Bu yo'l bilan go'yoki sinfdagi shovqinni «bosib» qo'yganday bo'ladilar. Ammo bu usulning ta'siri baribir u qadar katta bo'lmaydi, faqat aktyorning ovoz apparati keraksiz zo'riqadi, o'zi tez charchaydi. Yana ba'zi aktyorlar borki, ular namoyishda deyarli past ovozda so'zlaydilar. Bunda ham aktyorning o'zi qiynaladi, ammo sezilarli samaraga erishmaydi, faqat bunday ovoz bo'g'iqlik, tussiz eshitiladi va tinglovchining diqqatini ushlab turmaydi.

Tajribali aktyor faqat baland yoki faqat past ovozda namoyish o'tmaydi. Tovushlarning balandligi, kuchi, tembri va cho'ziqligidan iborat akustik sifatlarining turli darajalari (bu darajalarning diapazoni juda keng)ni bayon qilayotgan axborotning mazmuni va tabiati, ayni paytda sinfdagi tinglovchilarning ruhi-kayfiyatiga muvofiq ravishda modulyatsiya qiladi, yahni almashtirib turadi. Ana shu tarzda monoton, quruq, ifodalilikdan mahrum nutq shaklidan qutuladi va nutqning ohangdorligi, ta'sirchanligiga erishadi.

Aktyorning nutq texnikasi bilan bog'liq nuqsonlardan yana biri nutq tempi, tezligini to'g'ri belgilamaslik yoki tezlik-sekinlikning maqsadga ko'ra mo'htadilligini saqlay olmaslikdan iborat. Nutqning tempi, albatta, bayon qilinayotgan materialning mohiyatiga, ifoda-lanayotgan fikr strukturasiga uyg'un bo'lishi maqsadga muvofiq, aks holda, yahni aktyor materialni faqat jadal tempda bayon qilsa, tinglovchi axborotni o'ziniki qilib olishga, axborot tarkibidagi muhim jihatlarni o'z vaqtida ilgipashga, to'la idrok etishga qiynaladi. Boshqacha qilib aytganda, tinglovchining idrok surhati aktyorning nutqi tezligidan orqada qoladi, unga «etib yurolmaydi». Zotan, aktyor nutqidagi me'yoridan ortiq jadal temp namoyish berish meto-dikasi qoidalari uchun ham begonadir. Aktyor tinglovchilarning o'zlashtirish qobiliyatlari, ayni namoyish paytidagi ruhiyati, charchagan yoki charchamaganligi, materialni kanday qabul qilayotganligidan kelib chiqqan holda nutq tempini tanlasa, uni o'rni bilan o'zgartirib tursa, ham pedagogik, ham psixologik jihatdan to'g'ri bo'ladi.

Nutq texnikasida diktsiya masalasi ham aloxida o'rin tutadi. Har bir tovush, so'zning to'g'ri va aniq talaffuz qilinishi, nutq oqimida so'z shakllari va gaplarning «chaynalmaligi», ayniqsa, aktyor nutqi uchun jiddiy talablardandir. Taassufki, ba'zan aktyorlar nutqida ham diktsiya noaniqligi bilan bog'liq nuqsonlar kuzatiladi. Masalan, ba'zan «z» tovushini jarangsiz «s» tovushiga moyil tarzda talaffuz qilish uchraydi: siz ~ sis, eshitdingiz — eshitdingis kabi. Bu va bu singari nuqsonlar nutq tovushlarining hosil bo'lish o'rinlarini yaxshi bilmaslik va artikulyatsion apparat (tovush hosil qilishda ishtirok etadigan nutq ahzolari)ning yetarli darajada faol emasligi natijasida paydo bo'ladi. Noto'g'ri yoki noaniq talaffuz qilinadigan tovushning hosil bo'lishida ishtirok etadigan nutq ahzolarining faolligini oshirish yo'li bilan kishi nutqidagi ana shunday diktsion xatolarni tuzatish mumkin. Buning uchun xilma-xiya mashqlar yaxshi yordam beradi. Masalan, turli tez aytishlar, maqssh va matallar, turli mazmundagi matnlarni muntazam ovoz chiqarisi takrorlash ana shunday mashqlarning bir ko'rinishidir.

Xulosa shuki, notiq, xususan, aktyor o'zining nutk texnikasinya takomillashtirish borasida doimiy qayg'urishi, tilning tovunn qurilishi bilan bog'liq bilimlardan umumiy tarzda bo'lsa-da,,, xabardor bo'lishi, kerak bo'lganda, o'z nutqidagi nuqsonlarni| bartaraf etishga yordam beradigan mashqlardan muttasil foydalanib) borishi maqsadga muvofiq. CHunki tugal nutq texnikasisiz aktyorning, har bir nutq tuzuvchining og'zaki nutqi madaniyatini) aslo raso deb bo'lmaydi.

Savollar:

1. Nutq texnikasi deganda nimani tushunasiz?
2. **Notiq (aktyor)ning talaffuzi qanday bo'lishi kerak?**
3. **Nutq texnikasi necha xil bopladi?**
4. **Kognitiv ta'lim tizimi afzalliklari nimada?**

5. Sahna odobi deganda nimani tushunasiz?
6. Fikrni qanday ifodalash usullari mavjud?
7. Aktyorning nutq odobi bilan o'zining odobi haqida qanday bog'liqlik bor?

EPIK IJODDA NUTQ VA MUTOLAA MASALASI

Reja:

1. Epik ijod namunalarining mutolaa san'ati bilan mushtarak holatda yashashi qonuniyligi.
2. Mutolaa jarayonida notqlikka xos marom, ohang, urg'u, talaffuz va shakllari, pafos bilan bog'liq nutq ko'rinishlari uchrashi.
3. Epik asarlarda badiiy nutq masalasi. Qahramon etikasi va notqlik munosabati haqida. Personaj nutqida muallif axloqiy qarashlarining aks etishi.
4. Epik asarlarni ifodali o'qish. Liro-epik asarlar mutolaa qilishda ritmning o'rni. Epik asarlarni mutolaa qilishda ritmli nasr-sa'jning o'rni. Sa'jli o'qish-notqlik madaniyatini rivojlantiruvchi muhim omil sifatida.

Tayanch so'zlar: *epik ijod, mutolaa san'ati, marom, ohang, urg'u, talaffuz va ifoda, retseptiv vazifa, obraz, personaj, ifoda shakllari, pafos.*

Mohir so'z san'atkori har bir so'zning xalq orasidagi, muayyan sotsial tabaqa, kattalar va bolalar o'rtasidagi qo'llanishidagi mahno qirralarini ham muntazam ko'rsata oladi. Mana, «Mayiz yemagan xotin» hikoyasidan parcha: Xu o'l, turqing qursin! Boshingga solaymi shu bilan! Mahallada sasib, o'kuvchi qizlarga kun bermay-san-u, o'zing noto'g'ri ish qilasan...

Parchadagi gaplar o'n ikki yoshlardagi o'quvchi qizning gaplari, ayniqsa, oxirgi gapdagi noto'g'ri so'zining o'quvchi tasavvuriga xos bir mahno qirradi yaqqol sezilib turibdi. Ayni o'rinda noto'g'ri so'zining mahno hajmi anchayin katta. Yosh o'quvchi tasavvuriga ko'ra jamiki yomon, nomaqbul ishlar noto'g'ri ishlardir, shuning uchun ham o'quvchi nutqidagi bu so'zda ham nafrat, ham kichik bir o'ch mujassam. Kattalar nutqida ayni so'z mazmunan bunday hajmga ega emas, yozuvchi bu kabi farqlarni ziyraklik bilan his qiladi.

A.Qahhorning bir jumlasida qo'llangan so'z keyingi jumla mazmuni fonida yana ham tiniqlashadi, naqadar o'z o'rnida ekanligi ravshanlashadi. «Bemor» hikoyasining birinchi jumlasida shunday: Sotiboldining xotini og'rib kirdi. Ma'lumki, og'rib kolmok fe'lining anchagina sinonimi bor (betob bo'lmoq kasal bo'lmok) tobi qochmoq mazasi qochmok va hokazo), lekin yozuvchi aynan shu fe'lni qo'llaydi. Hikoyadagi ikkinchi jumla: Sotiboldi kasalni o'qitdi bo'lmadi, tabibga ko'rsatdi. Bu jumla og'rib qolmok fe'lining mahnosini yanada ta'kidlaydi, og'riqning - ham tan, ham qalb og'rig'ining chuqurligi va bu og'riq oldida Sotiboldining chorasizligi alohida urg'u oladi.

Endi yozuvchining «Tomoshabog'» hikoyasiga ehtibor qilaylik. Hikoya shunday boshlanadi: Hamroqulning tobi qochdi. Tabiiyki, tobi qochmoq iborasi ham og'rib qolmoq fe'li

mansub bo'lgan sinonimik katorga kiradi, lekin yozuvchi bu o'rinda ayni iborani tanlagan. Hikoyaning ikkinchi jumlasida bunday: *Kim biladi, kecha kechkurungi xudoyi osh yokjadimi, yo ertalab choynak qadaqlatib ketgan kishining nosida bir gap bor ekanmi...* Mana shu ikkinchi jumlaning o'ziyoq mazkur o'rinda tobi qochmoq iborasining joiz ekanligini ko'rsatib turibdi.

CHunki bu tip qo'shma gap uzvlarining o'zaro bog'lanishi bog'langan qo'shma gaplardagiga qaraganda ancha zich va mustahkam bo'ladi. Umuman, gaplarning lisoniy va mantiqiy bog'lanishi A.Qahhor hikoyalarida benihoya raso, bir gap o'zidan keyingi gapni, albatta, mazmuniy-mantiqiy jihatdan qathiy taqozo etib turadi. Bu qathiy bog'lanish esa hikoyadagi voqea va aytilmoqchi bo'lgan g'oyaga mutlaqo uyg'un bo'lib tushadi, hikoyadagi umumiy intonatsiyaning, biror darajada bo'lsin, susayishiga yo'l qo'ymaydi. Ana shular uchun bo'lsa kerak, Abdulla Qahhorning benazir hikoyalarini hatto xuddi she'riy asar kabi to'laligicha yod olish mumkin.

Badiiy tasvir vositasi sifatida nutqqa olib kiriladigan o'xshatish ham fikr mantig'i va hissiy-ruhiy holat bilan to'liq uyg'unlik kasb etmasa, nutqning jo'yaliligi haqida gapirish qiyin. Atoqli rus adibi M.Yu.Lermontov o'zining mashhur «Zamonamiz qahramoni» romanining dastlabki variantida oshiq ofitser Grushnitskiyning mundiridagi epoletlar (maxsus pogon) ni kotletga o'xshatadi. Romanning keyingi tahririda esa adib bu o'xshatishdan voz kechadi va oshiq Grushnitskiyning epoletlarini Amurning qanotchalariga o'xshatadi. Albatta, birinchi o'xshatish juda ham aniq va konkret, chindan ham, epoletlar shaklan kotletga juda ham o'xshaydi, ammo oshiq qahramonning hissiy-ruhiy holati bilan mutlaqo bog'lanmaydi; ikkinchi o'xshatish esa oshiqning ruhiy holati bilan hissiy aloqadorlikka ega, yahni Amur - yunon afsonalarida sevgi xudosi demakdir. SHuning uchun ham ayni shu keyingi o'xshatish bejo yoki beta'sir emas, balki behad jo'yali va ta'sirlidir.

Nutqdagi har qanday qiyoslash ham o'z o'rnida bo'lishi lozim. Noo'rin qullangan qiyoslash nutqning jo'yaliligiga salbiy ta'sir qiladi. Masalan mana bu jumladagi qiyoslashni jo'yali deb bo'lmaydi: Kishi hayotini saqlab qolish yetti qavatli imorat qurishdan ham murakkabroq, deyishadi («Xurriyat», 2006 yil 5 iyulg'). Avvalo, hech kim bunday demaydi, xalq orasida bunday matalnamo ibora yo'q, demak, deyishadi so'z shakli joiz emas. Bunday qiyoslashning jo'yali emasligi shundaki, kishi hayotini saqlab qolish, albatta, murakkab va sharaflil*ish, ammo uning murakkabligini aynan yetti qavatli imorat qurish bilan solishtirishning biron-bir mantiqiy asosi ham, me'yorga daxldor mahnosi ham yo'q. Nega olti yoki sakkiz, o'n, Yirirma qavatli imorat qurish qiyos etaloni sifatida olinmagan? Ko'rinadiki, mazkur jumlada nutqning jo'yalilik sifati oqsoq.

Mana bu parchaga ehtibor beraylik:

— *Kechirasiz, o'zingizni tanishtirmadingiz.*

— *Asli fargonalikman. Ismim Kamola. Hozirda ikkinchi oilam bilan Toshkentda yashayman.*

— *O'z tugilgan joyingdan olisda yashashning ham azoblari bor...*

— *Albatta. O'zga yurtida shox, bo'lguncha, o'z yurtida gado bo'l deganlari haq ekan («Xonadon», 2006 yil 24 avgust).*

Bu nutqiy parchadagi O'zga yurtida shox bo'lguncha, o'z yurtida gado bo'l maqoli o'z o'rnida qo'llanmagan, chunki bu kabi vaziyatlarga maqolning mazmuni muvofiq kelmaydi. Tabiiyki, Farg'ona va Toshkent boshqa-boshqa yurtlardagi shaharlar emas. Nutqqa olib kiriladigan maqol-mataldir, turli hikmatli so'zlardir yoki asarlardan olingan iqtiboslardir, albatta, nutq vaziyati, ruhiyati va mantig'i bilan uyg'un bo'lsagina, jo'yali nutq sifatini ola biladi.

Kichkintoylar nutqini o'stirishga bag'pishlangan bir qo'llanmada (S.Jo'raev, H.Qodirov) jo'yalilik sifatidan mahrum bo'lgan ancha-muncha jumalarni ko'rish mumkin. Masalan, bog'cha bolalari uchun Sog'likda ko'rishaylik! Omon bo'lsak, albatta, ko'rishamiz! kabi iiboralarni o'rganish tavsiya etilgan. Holbuki, bu jumlar bog'cha yoshidagi bola nutqi uchun mutlaqo xos emas, bola tilida ular jo'yali nutq sifatiga sohib bo'la olmaydi. Ular bola nutqida hatto chuchmal, kulgili eshutilishini isbotlash kerak emas. Bunday jumlar kattalar, keksalar nutqidagina mazkur sifatni ola biladi. Yoki yana bir jumlani ko'raylik: Mashg'ulot davomida «yaxshi» va «ahlo» baqolar olgan bolalarni pedagog o'z oldiga chakirib, minnatdorchilik bildiradi. Bu jumlada minnatdorchilik bildirmoq iborasi noo'rin qo'llangan, shuning uchun nutqni jo'yali deb bo'lmaydi. Bog'cha bolasi va pedagog o'rtasidagi yosh va maqom farqi mazkur iborani | qo'llashga monelik qiladi, bunday o'rinda jo'yalilik sifati rag'bat-] lantirmoq so'zini ishlatishni taqozo etadi.

Qisqasi, nutqning jo'yalilik sifatini ta'minlash uchun nutq tuzuvchi nutqiy vaziyatni, ifodalanmoqchi mazmunni, tinglovchi xususiyatlarini, muloqotning axloqiy-estetik jihatlarini yetarli darajada tasavvur etmog'i lozim.

Nazorat savollari.

1. Til vositalari deganda nimalarni tushunasiz?
2. Tilning tasviriy vositalaridan foydalanishda qanday shartlarga rioya qilinadi?
3. Trop nima? Uning qanday turlari bor?
4. Uslubiy figuralarning qanday turlari bor?

LIRIK JANRLARDA MAROM VA OHANG

Reja:

1. Lirik janrlar asosida marom va ohang turishi, voiz nutqida ham marom va ohang ishtirokiga alohida e'tibor qaratilishi.
2. Ritor tanlagan mavzuga qarab lirik janrlarga xos tez, sekin, yuqori yoki past ohanglarning o'rin almashib turishi.
3. She'r vaznlariga xos maromning nutq materiali semantikasiga bevosita ta'sir etishi.
4. Ifodali o'qish va mutolaa san'ati. Aruz alifbosi. Aruz vazni nazariyasi. Aruz vaznida lirik asarlarni ifodali o'qish.
5. Barmoq va sarbast she'rlarini ifodali o'qish muammolari. Badiiy asar mutolaasi. Badiiy asar mutolaasiga qo'yiladigan talablar.

Tayanch so'zlar: *Lirik janrlar, marom, ohang, voiz, ritor, ohang, she'r, vazn, turoq*

Ma'lumki, ifodali o'qiladigan asar matni qanchalik mukammal bo'lmasin, u talqin etilishiga qarab, muayyan ta'sir kuchiga ega bo'ladi, talqin jarayoni esa asarni ifodali o'quvchining jismoniy va ruhiy holatlaridir. Demak, talqin jarayonida ifodali o'quvchining butun vujudi talqin vositasi bo'lib xizmat qiladi. Ijrochining jismoniy va ruhiy holatini chiniqtiruvchi mashqlar kom'leksni nutq texnikasi deyiladi.

Nutq texnikasi, o'z ob'yekti va funktsiyasiga ko'ra to'rt muhim qismga bo'linadi: ovoz, nafas artikulyatsiyasi va diktsiya.

Ovoz inson oily nerv sistemasining msuli bo'lib, uning manbai tomoqda joylashgan tovush 'oychalaridir. Oliy nerv sistemasining muayyan signali bilan tovush paychalari titraydi, cho'ziladi, qisqaradi, g'oyat nafis harakatlar kom'leksini bajaradi, natijada tovush paydo bo'ladi, tashqariga chiqqunchga qadar turli qaytargich (rezenator) larga urilib chiqqan tovush ovoz deyiladi.

Nutq so'zlash jarayonida ovozning balandlashi va pasayib turishi modulyatsiya deb yuritiladi.

Ovoz baland-pastligi, yo'g'on-ingichkaligiga qarab tepor, bariton, bas, soprano, messo-soprano, alt kabi turlarga bo'linadi.

Ovozning nutq, tovush doirasida va muayyan vaqt birligi davomida tovlanishi ohang (intonatsiya) deyiladi.

Nafas nutq texnikasining muhim qismidir. Nafas ovoz va nutqni tinglovchiga yetkazish, ovoz kuchini tashkil etish vositasidir. Nafas uch turga – ko`krak, qorin yoki o`rta va diafrag`mal nafas turlariga bo`linadi.

Artukulyatsiya deb, nutq a`zolarining faol, passiv, normal harakat qilinishiga qarab artikulyatsiya yaxshi, yomon, normal bo`lishi mumkin.

Nutq so`zlanayotgan vaqtda nuqsonsiz bo`lgan artukulyatsiya normal hisoblanadi. Ammo ifodali o`qish uchun uning o`zi kifoya qilmaydi. Shunga ko`ra normal artikulyatsiya mashqlar vositasida takomillashtiriladi. Artikulyatsiyani yaxshilash uchun o`tkaziladigan mashqlar artikulyatsion gimnastika deyiladi. Ular quyidagilardir:

4. Lab mashqlari
5. Til mashqlari
6. Jag` mashqlari

Diktsiya nutq mashqlarining talaffuz etish me`yorlaridir. Nutq tovushlaridagi nuqsonlarni bartaraf etish, talaffuzni aniq va yorqinlashtirish maqsadida uyushtirilgan mashq diktsion mashq deyiladi.

Ifodali o`qishning ruhiy-grammatik asoslari

Sur`at. Nutqning muayyan tezlikda matn mazmuniga mos ravishda aytilishi sur`at deyiladi.

Sur`at uch turga ajratiladi:

- d) o`rtacha;
- e) tezlanuvchan;
- f) pasayuvchi sur`at (o`qituvchi she`riy va nasriy asarlardagi sur`at turlariga amal qilib ifodali o`qib izohlaydi).

TO`XTAM To`xtam (pauza) ovozning vaqtincha to`xtatish (to`xtab qolish, dam olish, oraliq) bo`lib, bu davrda nutq a`zolari artukulyatsiyadan to`xtaydi va nutq oqimi uziladi. To`xtam davrida nafas olinadi va nutqning navbatdagi qismini talaffuz etishga hozirlik ko`riladi.

To`xtamdan turli maqsadlarda foydalaniladi. Shunga ko`ra u quyidagi turlarga bo`linadi:

- j) nafasni rostlash to`xtami.

Nutqning bir nafas tugaguncha aytilgan qismidan so`ng yangi nafas olish uchun qilingan to`xtamni nafasni rostlash to`xtami deyiladi. Bu to`xtamda o`kaga havo olinadi. Shuni ta`kidlash joizki, matnning duch kelgan joyida nafas rostlanmaydi.

- k) mantiqiy to`xtam.

Mantiqiy to'xtam nutqning mantiq tomoni bilan bog'liq bo'lib, so'z guruhlarini bir-biridan aniq ajratish, matnning ma'nosini to'la ochish uchun xizmat qiladi. Bu to'xtam mantiq qonunlariga bo'ysunib, sintaktik talablarga rioya qilinmaydi.

Orazin yo'g'och ko'zimdin sochilur har lza yosh,
Bo'ylakim paydo bo'lur yulduz nihon bo'lg'och quyosh.

l) ruhiy to'xtam

So'zlovchining kuchli hayajonini, borliq voqea hodisalaridan olgan taassurotlarin ifodalovchi to'xtam ruhiy to'xtam deyiladi. (misollar she'riy va nasriy matnlar asosida keltiriladi).

m) normal to'xtam.

Ritmik birliklarning bog'lanish o'rniga mos keladigan to'xtam normal to'xtam deyiladi. Normal to'xtam nutqning hajm va ohang jihatidan bir-biriga teng qismlari orasidagi to'xtalishdir. Normal to'xtam she'riy nutqda ko'zlangan mazmunni ohangni yuzaga chiqarishda muhim ahamiyatga ega.

Tog'lardagi qip-qizil lola!
Bo'lib go'yo yoqut payola!
Buloqlardan uzatadi suv!
El ko'zidan qochadi uyqu!

n) tobe to'xtam

Tobe to'xtam sintaktik tobelik munosabatini ifodalaydi. Odatda, ergash gaplar tobelik to'xtami orqali bosh gapdan ajratiladi: Kimning aravasiga o'tirsang, o'shaning qo'shig'ini ayt.

o) ogohlantiruvchi to'xtam.

O'zidan keyin nutqqa yangi qism kiritilishini ko'rsatish uchun xizmat qiladigan to'xtam ogohlantiruvchi to'xtam deb yuritiladi. Yozuvda bunday to'xtamni ko'rsatish uchun ikki nuqta qo'yiladi:

Bir qaraysan: bog'u ko'lda qayiqlar suzar,
Qayrag'ochlar soyalarin suvlarga cho'zar.

p) ajratuvchi to'xtam.

Nutqda ishtirok etuvchi sintaktik birliklarni bir-biridan farqlashni ifodalaydigan pauza ajratuvchi to'xtam deyiladi. Bu to'xtam ikki xil.

3. Sintaktik birliklarni ajratuvchi to'xtam.

4. Gaplarni ajratuvchi to'xtam (misollar she'riy yoki nasriy asarlar yordamida keltiriladi).

q) Kesim to'xtami

predikativlik aloqasini ifodalovchi to`xtam kesim to`xtam deyiladi:

Uning otasi – tadbirkor.

r) Birlashtiruvchi to`xtam.

O`rnida biriktiruvchi bog`lovchilarni qo`shish mumkin bo`lgan to`xtam birlashtiruvchi to`xtam deyiladi.

Tildagi eng sodda, tabiiy va qadimiy so`zlar tovushga yoki obrazga taqlid asosida yuzaga kelgan so`zlar hisoblanadi. Tilshunoslikda tilning paydo bo`lishi bilan bog`liq talqinlarda taqlidiy so`zlar masalasiga ham alohida o`rin beriladi. Hatto til tabiatdagi mavjud xilma-xil tovushlarga taqlid qilish asosida yuzaga kelgan degan qarash ham yo`q emas. Aytish mumkinki, muayyan predmetta xos bo`lgan tovushli harakat, asosan, taqlidiy fe`l bilan ifodalanadi. Bunday so`zlar tegishli predmetni juda aniq-tiniq tasavvur qilish imkonini beradi, o`sha predmetning ovozi yoki obrazi quloqlar ostida aks sado berib turadi. Ana shu mahnoda taqlidiy so`zlarning badiiylik quvvati beqiyosdir. Xuddi shunday so`zlar she`riy misralarda qofiyalanib kelganda, bu quvvat yanada bo`rtib ko`rinadi. Mana Alpomishning Barchinni ozod qilishga otlanib, shijoat bilan yelib borayotgani tasviri:

«Dubulg`a boshda dungullab,
Kark qubba qalqon qarqillab,
Tilla poyanak urilgan
Uzangilarga sharqillab,
Bedov otlari dirkillab,
Olg`ir qushdayin charqillab,
Qo`lda nayzasi so`lqillab,
Yurmoqchi uzoq yo`liga,
Qaramay o`ngu so`liga,
Yetsam deb yorning eliga
Siltab yuradi Boychibor...
Yo`l yurar davlatli shunqor...»

Asardagi deyarli barcha she`riy satrlar til badiiyati jihatidan shu qadar sayqallangan, mantiq va mahno teranligi jihatidan shu qadar ishlangan, majozlar mazmun ko`lamdorligi va hayotiy voqelikka mutanosibligi jihatidan shu qadar pishiqtirilganki, ularning aksariyati xalq donoligining qoliqlangan durdonalari - hikmatlar shaklini olgan. Ulardagi xalqimiz ming mashaqqatlar bilan ko`rib-ko`rib boshidan o`tkazgan tajribalar asosida yuzaga kelgan xulosalar qaymog`ining quyuqligi, qayralgan mantiq va so`z salobati kishini hayratga soladi:

«To o`lguncha so`ylab qolgan til bo`lsin,
G`animning shavkati kuyib kul bo`lsin»;

«Kuchuk bosmas yo'lbars - sherning izini,
Esi bor biladi gapning tuzini»;
«Dam shu damdir, o'zga damni dam dema,
Boshing eson, davlatingni kam dema»;
«Davlat qo'nsa bir chibinning boshiga,
Semurg' qushlar salom berar qoshiga»;
«Sozandalar sozin chertar qo'l bilan,
Yomon odam kuydiradi til bilan»;
«Xazon bo'lsa zog'lar qo'nar gulshanga»;
«Gul ketar bo'lsa, guliston emranar,
SHahar vayron bo'lsa, sulton tebranar,
Mol borida hamma odam do'st edi,
Boshdan davlat qaytsa, tuqqan emranar».

So'z san'atkori muayyan bir tilda dunyoni badiiy obrazlar orqali qayta gavdalantiradi, ammo dunyoni bunday badiiy qayta gavdalan-tirish barcha ijodkorlarda aynan bir xil, aynan bir yo'sinda bo'ladigan bo'lsa, buning oddiy taqlidchilikdan farqi qolmaydi. SHuning uchun ham muayyan bir tilda ijod qiladigan ikki ijodkorning dunyoni ko'rishi, eshitishi va badiiy idrok qilishida o'ziga xos farq mavjud bo'lishi lozimligi barkamol badiiyatning azaliy talabidir. Zotan, ana shu farq ijodkor mahorati, uning til va uslubdagi ustaligi, o'ziga xosligi tarozisining shayini bo'lib keladi. Tabiiyki, dunyoni o'ziga xos ko'rish, eshitish va badiiy idrok etish, eng avvalo, badiiy tilda zuhur etadi. SHayxzoda she'riyati benazir so'z mo'hjizalari sifatida buning to'liq va bo'liq shahodatidir.

SHayxzodaning «SHoir qalbi dunyoni tinglar» she'rida shunday misralar bor:

SHoir qalbin darchalaridan
talay tovush kelib kiradi.
Tovushlarning kichik, ulug'i,
tovushlarning hidi — bo'yi bor.
Tovushlarning sovuq, ilig'i,
tovushlarning rangi-ro'yi bor.
Tovushlarning shirin-achchig'i,
bordir hatto yumshoq, qattig'i.
SHoir rassom bo'lsaydi agar,
chizar edi shundan lavhalar.

SHoirning «Tovushlar» she'ridan olingan quyidagi parchalarda bunday so'zlar yaratgan simfoniyani tinglab, huzurlanmaslikning imkoni yo'q:

SHo'rtepaning alohida bir gashti bor kechasi...

Alalxusus avgust chog'i

Oy suzilib kularkan...

Undan ko'ra xastaga

Ko'roydin tunlar mahqul.

Ko'rmayсан, lekin eshitasan olamni.

Kezmaysan, lekin sezasan olamni..

Razm solib tinglayman...

Har tovushning bor hikmati va o'z sababi...

Ana ko'ppak esnab-esnab uvullaydi...

Ana mashinaning o'lchovlik nafasi...

Balki jar yoqasidan

Havolandi ashula...

Ana tovush:

Sinchalaklar chiyillar,

CHigirtkalar charchamasdan chirillar..

Ana boshqa tovushlar bor hovuzda,

Vak.irlar qurbaqalar...

Q,axshxalar yangrab ketar olisdan...

Vizillaydi endi yuvosh shabboda.

Tovushida uyqularning Ipak xiromonligi...

Faqat bu savolning aksi sadosi —

«Ki-im ke-raaaak...»

Borib qo'nar teraklarning shoxiga...

SHarillaydi suvlari shirin-shirin...

Traktor tarillaydi dalada...

Tovushlar bor, demak, hayot bor...

Demak, biz hammamiz tirikmiz...

Ko'zlarni yumib, uyg'oq dunyoni Tinglamoq lozim!..

Nozik kuzatishlar natijasida yaratilgan o'xshatishlar Oybek she'riyatida juda ko'p, mana ulardan yana ayrimlari:

Do'konlar qalashgan ari iniday,

Qay tomon qarasang - ziynat buyumlar... («Bayrut»)

Mana suvga tushar polvon qiz,

To'lqinlarni hech pisand qilmay...

Sochlar suvda krra ilonday («Kizlar»).

Oltin go'za po'choklar

Singari ochilgandi

Ko'kda g'uj-g'uj yulduzlar («Yangi oy chikkanda»).

Nazorat savollari

8. Suhbat oldiga qanday talablar qo'yiladi?
9. Muhokama nutqi oldiga qanday talablar qo'yiladi?
10. Munozara nutqi oldiga qanday talablar qo'yiladi?
11. Notiqlik va uning oldiga qo'yilgan talablar haqida ma'lumot bering.
12. Ifodali o'qish deb qanday o'qishga aytiladi?
13. Ifodali o'qishning texnik asoslari deb nimalarga aytiladi?
14. Ifodali o'qishning ruhiy-grammatik asosi nimalardan iborat?

MUTOLAA JARAYONIDA JUMLA, SO'Z VA TOVUSHNING VAZIFASI

Reja:

1. Mutolaa jarayonida jumla, so'z va tovushning vazifasi bir nechta bosqichlardan iborat ekanligi.
2. Birinchi bosqichning psixologik funksiyaga yo'naltirilishi. Bunda jumla va so'zning psixologik ta'sir kuchiga ega bo'lishi, ikkinchidan, ayni matn bo'laklarining semantik-struktural vazifalarni bajarishi.
3. Obraz mohiyatini ochishda va tushunib yetishda jumla, so'z va tovushning zarur retseptiv komponent vazifasini bajarishi.

Tayanch so'zlar: mutolaa, jumla, so'z, tovush, psixologik funktsiya, ohang.

Badiiy asar tili haqidagi fanning bosh masalasi til va obraz (xarakter) munosabati masalasidir. CHunki badiiy nutq obrazli nutq ko'rinishi sanaladi. So'z bilan obraz o'zaro bog'liq bo'lsa ham ular bir-birini qoplaydigan, bir-biriga teng kela-digan tushunchalar emas. CHunki so'z til birligi, obraz esa san'at hodisasidir.

Badiiy adabiyotda so'z va gap obraz manzara yaratishning o'ziga xos libosi, materiali bo'lib xizmat qiladi. Yozuvchining qalami sehri ostida so'zlar hayotdagi narsa va hodisalarni biz-ning ongimizda aniq tiklaydigan, o'ziday qilib gavdalan-tiradigan vositaga aylanadi. Masalan, "Ming bir jon" (A.Qah-hor) asarida o'n yillik og'ir kasallikdan sog'aygan, hayotga cheksiz muhabbati tufayli o'limni ham yenga olgan obraz, yahni Mastura obrazi yaratilgan.

Yozuvchi bu obrazning og'ir dardini va bu darddan g'olib chiqqanligini ta'kidlash uchun so'zlarning badiiy xususiyat-laridan unumli foydalangan: *"Palataga kirdik. SHu payt oftob yana bir bulut ostiga kirdiyu palatani shom - qorong'iligi bosdi. Oftob yana yorishdi. Masturani baralla ko'rdik ... Ko'z o'ngimizda xasta emas, o'lik, haqiqiy o'lik, sap - sariq teriyu suyakdan iborat ko'zlarini katta ochib botib ketgan ko'zlarini katta ochib yotar edi..."* Bu parchada yozuvchi kashf etgan oddiy bir detal (nim qorong'i palataning birdan yorishib ketishi) va bu detalni ravshan ifodalaydigan so'zlar palatani, uning burchagidagi kat-takon krovatni, bu krovatda yotgan Masturani kitobxonga aniq yorqin ko'rsatishga imkon bergan.

Badiiy nutq faqat ko'chma mahnodagi so'zlardan iborat bo'lmaydi. CHunki majoziy vositalar, so'zlarning ko'chma mahnoda qo'llanishi badiiy nutqning o'ziga xos yordamchi, ko'makchi vosita-laridir, xolos.

Agar adabiy til umumiy me'yorlardan, qonun - qoidalaridan tashqari chiqmasa bunday qonun - qoidalar chekinish hollari tez -tez ko'zga tashlanadi. CHunki badiiy nutq janr va uslub jihatdan yagona tamoyillarga bo'ysinuvchi nutq emas. Badiiy nutqda xilma -xil ko'rinishlar

mavjud ("Bemor" asaridagi yosh bola, "SHay-tanat"dagi o'g'rilar, otarchilar nutqining o'ziga xos xususiyat-larini eslang).

O'zbek prozasining nutqi davrlar o'tishi bilan o'zgarib, rivojlanib bordi. Tom mahnodagi o'zbek proza nutqi 20- yil-larda "O'tgan kunlar", "Mehrobdan chayon" asarlari zahirida shakllangan. Lekin bu asarlar leksikasida poetik nutq leksika-sining ayrim ko'rinishlari ko'zga tashlanadi. Chunki bu asarlarda badiiy obrazlarning lirik tasviri ham mavjud. To'y tasvirini ko'z oldingizga keltiring.

30-yillarga kelib A.Qahhorning asarlarida epik tasvir-ning his tuyg'udan ko'ra hikoya bayonining ustunligi yorqin seziladi. Bunday epik tasvirda betaraflik, xolislikka intilish muallif nutqida aniq ko'zga tashlanadi: *"Siddiqjon oilaviy mojarosini hozircha aytmoqchi emas edi. Buni kayfiyatidan, biror gapidan bildirib qo'ymaslik uchun ertalab to'ydan keyin yor jo'ralarini ko'rib kelish bahonasi bilan uydan chiqib ketdi ..."* A.Qahhor bu asarda Siddiqjon obrazining o'sish dinami-kasini mantiqan to'g'ri aks ettirishda til vositalaridan foydalanadi. Masalan, bunda yozuvchiga "etagini ushlamoq" iborasi katta yordam bergan.

Badiiy asarda leksik va frazeologik vositalar obrazning xatti - harakatini boshqa obrazlar bilan munosabatini ko'rsatishga xizmat qiladi. Masalan, Oybekning "Qutlug' qon" romanida butun tasvir xalq orasidan chiqqan, hayotni ob'ektiv baholaydigan ziyoli nuqtayi nazaridan olib boriladi: "Qahraton qishda yalangoyoq muz bosib, saratonda qizigan qum kechib, issiqda sovuqda obdon pishgan yigitni (Yo'lchi) kun hiyla betoqat qilgan edi". Bu romanda barcha voqealar, obrazlar ana shu ziyoli nutqi nuqtayi nazari va ruhiga moslab tanlanadi.

Badiiy asarda muallif nutqining personajlar nutqiga hamohang bo'lishi ham alohida ahamiyatga ega.

Badiiy nutq muallif nutqi, personajlar nutqi va hikoyachi bayonidan iboratdir. Badiiy nutqning bu elementlari tuzilishi, ohang va tarkibidagi til vositalarining qo'llanilishiga ko'ra bir - biridan farq qiladi. Agar badiiy ijodda bu elementlar birlashtirilsa, ma'lum bir badiiy asarning yagona uslubi vujudga keladi. Ana shu uslubning shakllanishida muallif nutqi obrazi asosiy o'rin egallaydi.

Badiiy asar stilistikasining markaziy muammolaridan biri muallif nutqi va personaj nutqining o'zaro aloqador-ligidir. Masalan, Oybekning "Qutlug' qon" romanida butun tasvir ziyoli nuqtayi nazaridan olib borilsa ham unda juda xilma xil personajlar nutqi ham ishtirok etadi. Ana shu personajlarning voqea - hodisaga bo'lgai munosabatini yaxlit holda aks ettirishda asardagi bayonchi nuqtayi nazari muhim o'rin tutadi. XX asr o'zbek adabiyotida Oybek va G'.G'ulom tasvirda bayon elementlaridan o'rinli foydalangan yozuvchilar hisoblanadi: *"Yozning issiq kunlari. Egnimda yengilgina ko'ksi ochiq, yoqasiga pilta oshgan surp yaktak. Boshimda*

cho'st do'ppi, belimda shohi qiyiq, oyog'imda nimposhna xrom etik. Uzun, tor, bog' ko'chalarning birisida ketmoqdaman"

Keltirilgan bu parcha hikoyachi nutqining namunasi bo'lib, bayonning uziga xos shaklidir. Bu yerda ham hikoyachining, ham personajning nutqi bor. Xalq og'zaki so'zlashuv nutqida oddiy muomala nutqiga xos so'zlar mavjud. Lekin bu parchani sof og'zaki nutq namunasi deb bo'lmaydi. Chunki bu parchada badiiy tasvirning kuchli nafasi seziladi. G'.G'ulomning "Yodgor" qissasi boshdan oxirigacha ana shu usulda yozilgan.

Personaj nutqi esa bunday xususiyatga ega emas. Chunki personaj nutqi boshdan oxirigacha individual og'zaki nutqi namunasi sanaladi. Bu nutq o'zining tuzilishi, ohangi bilan muallif nutqidan va hikoyachi bayonidan farq qiladi.

XX asr o'zbek adabiyotida har bir personaj nutqini individual shaklda ifodalashda yozuvchi A.Qahhor juda ulkan namuna ko'rsatgan.

Badiiy asar qahramonlarining xarakterlarini ularning nutqi, gapirish usuli orqali ochib berish A.Qahhor talantining eng kuchli tomoni sanaladi. Masalan, "O'g'ri" hikoyasidagi oddiy dehqon Qobil bobo, amaldorlar, ellikboshi va Aminning nutq-lari buning yorqin dalillari bo'la oladi. Bu o'rinda Aminning tabiati, uning Qobil boboni ortiqcha sensirashdan hayiqishi nutqi orqali ochib berilgan (Yig'lanmasin).

A.Qahhorning "Millatchilar" hikoyasida ziyolilar Mirzo Bahrom va Tahvidiylarning har biri o'ziga xos ohangda gapira-dilar. O'zlarini ziyoli deb hisoblovchi, umrini millat xizma-tiga sarf etgan Mirzo Bahromning silliq kitobiy so'zlari, uning o'ziga xos xarakterini ochishga xizmat qiladi. Bundan ko'rinadiki, A.Qahhorning hikoyalaridagi turli tabaqa vakil-larining nutqlari bir - biridan o'ziga xos til vositalari yordamida farq qiladi. Yozuvchi esa bunday vositalardan o'rinli foydalanadi.

A.Qahhor personaj nutqini individuallashtirishda yirik asarlarida ham mahorat namunalarini ko'rsatgan. "Sinchalak" qissasidagi Saida, Eshon, Huriniso kabilarning nutqlarida ularning xakteri va tabiati o'zining yorqin ifodasini topgan. Masalan, Saidaning nutqida xushmuomala odamning samimiy so'zlari ko'p uchraydi. Eshonning nutqida esa boshliqlarga nisbatan laganbardorlik yaqqol sezilib turadi: bir yil, nihoyat bir yil ishlab berar emishman xolajon (Saida nutqi)

Eshon nutqida esa biz uning ovozi eshitgandek bo'lamiz. Yozuvchining Eshonga bo'lgan salbiy munosabati "Xuddi xumga yo'talganday do'ngillab" kabi so'zlar bilan ifodalanadi. Eshon xotini haqida so'zlaganda ham uning qo'rsiligi, o'z qadr-qimma-tini mutlaqo bilmasligi ochiq ko'rinadi. Eshon boshliqlariga xushomad qilishda o'ziga xos yo'l tutadi. Yahni uning har bir so'zidan ovqat qilishga ustaligi va shu bilan mulozimati ko'rsa-tishi yorqin ifodalangan. A.Qahhor yaratgan personajlar o'z nutqlarida xalq og'zaki so'zlashuv tili

elementlarini ko'proq qo'llashga urinadilar. Tilimizda *"panja orasidan qaramoq"* degan ibora mavjud. SHu iboraning *"barmoq orasidan qaramoq"* shakli personajlar tilida ko'p uchraydi. Birinchisi muallif nutqida *ko'proq uchraydi. Xuddi shunday holat "Elkasiga oftob tegsin", "Orqasiga oftob tegsin", "Peshonasini silamoq", "Boshini silamoq"* kabi iboralarni qo'llashda ham seziladi. Bu iboralarning birinchisi A.Qahhor asarlarida muallif nutqida, keyingisi personaj nutqida uchraydi.

A.Qahhor komediyalarida ham personajlar nutqiga alohida ahamiyat beradi. Masalan, Xolniso bilan Hamrobuvi 40 yillik devor darmiyon qo'shni, ularning xulq-atvorlarida, gapirishida umumiylik ko'p («SHohi so'zana»). Lekin ularning har biri dialoglarda o'z nutqiy xususiyatlarini namoyon etgan. Bu komediyada Hamrobuvi eski urf - odatlar, diniy ehtiqodlarga ko'proq amal qiladi, shuning uchun uning nutqida *"Bandai mo'min", "astaxfurullo"* degan so'zlar ko'proq uchraydi. Xolniso *"gazeta" "shezd", "agitator"* kabi so'zlarni ko'p qo'llaydi. AQahhorning keyingi dramatik asarlarida (*"Og'riq tishlar", "Tobutdan tovush"*) personaj nutqini individullatirish sohasida boshqacha yo'l tutilgan. Bu komediyalarda personajlar o'z so'zlari bilan o'zlarini fosh etadilar.

Nazorat savollari

9. Nutq madaniyati bilan notiqlik san'atining qanday bog'liqlik tomonlari bor?
10. Notiqlik san'atining asosiy vazifalari nima?
11. Notiq bilishning qanday asosiy yo'llari mavjud?
12. Komil notiq tushunchasi?
13. Har qanday shaxs ham notiq bo'lishi mumkinmi?
14. Sharqda notiq qanday nom bilan atalgan?
15. Notiqlik san'atining o'rganilish tarixi bormi?
16. Bugungi kunda notiqlik san'atiga bo'lgan munosabat?

	Mustaqil ta'lim (MT) mashg'ulotlari	
MT 1	Sofistlar, ulamingnotiqliksan'atirivojidagixizmatlari	4
MT2	AlisherNavoiyijodidanutqmadaniyativanotiqliksan'atimasalalaritalqini.	4
MT3	Navoiyning "Hayratul-abror" dostonidaso'z, nutqmadaniyatihagidagifikrlar.	4
MT4	Navoiyning "LaylivaMajnun" dostonidaso'zningulug'lanishi.	4
MT5	"Mahbubul-qulub" asaridasharqonamuomalamadaniyati.	4
MT6	Navoiyning "Majolus un-nafas"asaridavoizlarhaqidagima'lumotlar.	4
MT 7	TursunoySodiqovaningnutqidasharqonaodobmasalalariningaksetishi	4
MT 8	Protagor, uningnotiqliksohasidagixizmatlari	4
MT9	Suqrot, uningnotiqliksan'atioldidagixizmatlari.	4
MT10	QoziO'shiynotiqligi.	4
MT11	Platonningnotiqliksan'atihaqidagiqarashlari.	4
MT12	Demosfen - buyuknotiq.	4
MT13	Sitseronningnotiqliknazariyasi.	4
MT14	Hadislardanutqodobimasalalari.	4
MT15	A.Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanidao'zbekonanutqodobiningaksetilishi.	4
MT16	Akademiknotiqlik.	2
MT17	Diniynotiqlik.	2
MT18	Barak Obamaningsiyosiyliderligidanotiqlikmahorati.	2
MT19	O'rtaasrlardaMarkaziyOsiyodavoizliksan'atirivoji.	2
MT20	Sudnotiqligi.	2
MT21	Arastuningritorikahaqidagita'limoti.	2
MT22	Nutqmadaniyativanutqboyliqi.	2
MT23	Abdulla Oripovningso'zqo'llashmahorati.	2
MT24	Bobumingnutqmadaniyatito'g'risidaqarashlari.	2
MT25	Nutqsofligivauningma'naviyjihatlari.	2

MT26	Tohir Malik - buyuknotiq	2
MT27	DeylKamegivauningnotiqliksan'atohaqidagiqarashlari.	2
MT28	Said Ahmadningso'zqo'llashmahorati	2
MT29	Konfutsiyta'limotidanitqmadaniyatimasalasi.	2
MT30	OzodSharafiddinovningtilmadaniyativanotiqlikmahorati.	2
	Jami:	90

Asosiy va qo'shimcha adabiyotlar hamda axborot manbalari

Asosiy adabiyotlar:

1. Махмудов Н. Укитувчи нутки маданияти. - Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистан Миллий кутубхонаси нашриёти, 2007.
2. Тухлиев Б. Ифодали укиш. - Тошкент: Баёз, 2008.
3. Bekmirzayev N. Notiqlik san'ati.- Toshkent, 2008.

Qo'shimcha adabiyotlar:

4. Ш. Мирзиёев. Эркин ва фаровон демократик Ўзбекистан давлатини биргаликда барпо этамиз. Т.: Ўзбекистон, 2016.
- 5 Ш. Мирзиёев. Бую к келажакимизни мард ва олижаноб хапкимиз билан бирга кураммиз. Т.: Ўзбекистон, 2017.
6. Ш.Мирзиёев. К,онун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш — юрт тараккиёти ва халк фаровонлигининг гарови. Т.: Ўзбекистон, 2017.
7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари” тугрисида (Халк сузи 2017 йил, 21 апрель). 6 Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чоратадбирлари” тугрисида (Халк сузи 2017 йил, 21 апрель).
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni. -T.: O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda.
9. Бахтин М. Романда замой ва хронотоп шакллари. Рус тилидан УЖуракулов таржимаси. -Т.: Akademnashr, 2015.
10. Жабборов Н. Маърифат надир. -Т.: Маънавият, 2010.
11. Журакулов У. Назарий поэтика масалалари. -Т.: Ф.Гулом, 2015.

12. Masharipova Z. Ifodali o'qish praktikumi. - Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2011.
13. Карнеги Д. Нутк сузлаш санъати.-Тошкент: Адабиётчунлари, 2018.
14. Исламов У. Алишер Навоий асарларида нутк маданияти талкини. Филол. ф.н. дисс автореферати.-Тошкент, 2011.
15. Йулдошев К., Ёник суз. - Т.: Янги аср авлоди, 2006.
16. Каримов Н. XX аср адабиёти манзаралари - Т.: Узбекистан, 2008.-536 б.
17. Киличев Э., Киличев Б. Нутк маданияти ва услубияти асослари. - Бухоро, 2002.
18. Махмудов Н. Тилимизнинг тилла сандиги. - Тошкент: Гафур Гулом номидаги нашриёт-матбаа уйи, 2012.
19. Махмудов Н., Рафиев А., Йулдошев И. Нутк маданияти ва давлат тилида иш юритиш. - Тошкент: Чулпон, 2012.
20. Норматов У. Тафаккур ёгдуси. -Т.: Фикр-медиа, 2005.
21. Орипов Абдулла. Тулик асарлар туплами. Турт жилдлик. - Т.: Г.Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2001.
22. Расулов Р., Хусанов Н., Муйдинов К., Нутк маданияти ва нотикдик санъати. - Тошкент, 2006.
23. Рустамий А. Адиблар одобидан адаблар. - Тошкент: Маънавият, 2003.
24. Саидов У. Нутк маданияти ва нотикдик санъати. - Тошкент: Академия, 2007. -Б. 224.
25. Тожиев Е., Маллабоев М. Узбек нутки маданияти ва услубият асослари. -Тошкент: Иктисодиёт, 2006.
26. Холмирзаев Шукур. Уч жилдлик. - Т.: Шарк. 2003.

GLOSSARIY

Allyuziya – (lot. Allusion – ighora, hazil). Muayyan til birligi vositasida biror adabiy yoki ijtimoiy-tarixiy faktga qilighlikdan iborat uslubiy vosita.

Antropolingvistika –

1. SHimoliy Amerikaning tub aholisi tilini tadqiq etish bilan bog'liq holda Amerika tilshunosligida yuzaga kelgan, lingvistik, madaniy va etnografik yondashuvlarni umumlashtirgan tadqiqot yo'nalishi.

2. Inson tafakkuri taraqqiyotini uning til taraqqiyoti, xususan, lingvistikada aks etishi bilan bog'liq holda o'rganuvghi soha.

Intonasiya – urg'u, temp, ritm, to'xtam, ovozning baland-pastligining yig'indisi.

Intonatsion vositalar- temp, tembr, urg'u.

Nutq tempi turlari-sekin, o'rta, tez.

Marom (a. – istak, intilish) Biror ish, faoliyat yoki jarayonning me'yoriy o'lchovi, me'yor.

Monolog – yunongha bir kishining javob tab qilinmaydugan nutqi.

Ohang (f. – kelishuv, hamjihatlik, yoqimli tovush, kuy)

Ritorika – yunongha ritor – notiq, orator, gapdon.

Talaffuz stillari- neytral, kitobiy (tantanali), so'zlashuv.

Notiq - arabcha, nutq so'zlovchi, gapga chechan, so'zamol kishi.

Voiz - arabcha «va'z» («dahvat», «xitob» ma'nosida) odamlarni ezgulikka va yaxshilikka chaqiruvchi, jamoat oldida nutq so'zlovchi shaxs.

Maddoh - arabcha «madh» («maqtov», «ta'rif») biror shaxs yoki narsa, voqeani madh etuvchidir.

Suxandon - forsha «suxan» («so'z») so'zga chechan, so'z ustasi.

Qissago'y – (qissaxon) - afsona, ertak, dostonlarni ravon va ifodali o'qiydigan kishi.

Qiroatxon - ta'sirchan, ifodali o'qiydigan shaxs bo'lib, qissaxon uning bir ko'rinishidir. Qiroat musiqiylikka moyil-ligi bilan ajralib turadi.

Badihago'y - arabcha badiha - go'y - so'zlovchi, hozirjavob va chechan kishilarning she'riy yo'sinda birdaniga so'z, she'r yoki qo'shiq aytishidir.

Invensiya - nima haqida gapirishni bilish.

Kompozitsiya - aytmoqchi bo'lgan fikrni tartiblash.

Elokutsiya -fikrga mos shakl tanlash.

Memorio - jarayonni xotirada saqlash.

Aksio - talaffuz qilish.

Lirika – (yun.**lyra** –qadimgi yunon musiqa asbobi nomi) badiiy adabiyotdagi 3 asosiy turdan biri. Lirikada epik va dramatik turdan farqli o'laroq, voqelik shaxsning his-tuyg'ulari, kechinmalari idroki orqali aks ettiriladi.

Lirik janr - kichik hajmga ega bo'lgan eng hozirjavob, faol va ommaviy tur. Hozirgi o'zbek she'riyatida lirik turga mansub yetmishga yaqin janrlar mavjud.

Lirik asar - nisbatian zamonaviy adabiyotda **rubobiy asar** termini ham qo'llaniladi.

Simfoniya - (yun. – ohangdoshlik).

Epik, epopeya (yunon. EPOS – so'z, hikoya) – yirik hajmli asar.

Dionis-qadimgi yunonlarning may va shodlik mahbudi.

Pafos-tasvirlanayotgan xarakterlarni milliy va umuminsoniy ahamiyatini e'tiborda tutgan holda g'oyaviy-hissiy idrok etish hamda baholash natijasi o'laroq yuzaga kelgan, asarning butun to'qimasiga **singdirilgan ruh**.

Asosiy va qo‘shimcha adabiyotlar hamda axborot manbalari

Asosiy adabiyotlar:

1. Махмудов Н. Укитувчи нутки маданияти. - Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2007.
2. Тухлиев Б. Ифодали укиш. - Тошкент: Баёз, 2008.
3. Bekmirzayev N. Notiqlik sanʼati.- Toshkent, 2008.

Qo‘shimcha adabiyotlar:

4. Ш. Мирзиёев. Эркин ва фаровон демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Т.: Ўзбекистон, 2016.
- 5 Ш. Мирзиёев. Бую к келажакимизни мард ва олижаноб хапкимиз билан бирга курамиз. Т.: Ўзбекистон, 2017.
6. Ш.Мирзиёев. К,онун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш — юрт тараккиёти ва халк фаровонлигининг гарови. Т.: Ўзбекистон, 2017.
7. Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари” тугрисида (Халк сузи 2017 йил, 21 апрель). 6 Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чоратадбирлари” тугрисида (Халк сузи 2017 йил, 21 апрель).
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni. -T.: O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son, 70-modda.
9. Бахтин М. Романда замой ва хронотоп шакллари. Рус тилидан УЖуракулов таржимаси. -Т.: Akademnashr, 2015.
10. Жабборов Н. Маърифат надир. -Т.: Маънавият, 2010.
11. Журакулов У. Назарий поэтика масалалари. -Т.: Ф.Гулом, 2015.
12. Masharipova Z. Ifodali o‘qish praktikumi. - Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2011.
13. Карнеги Д. Нутк сузлаш санъати.-Тошкент: Адабиётчукунлари, 2018.
14. Исламов У. Алишер Навоий асарларида нутк маданияти талкини. Филол. ф.н. дисс автореферати.-Тошкент, 2011.
15. Йулдошев К., Ёник суз. - Т.: Янги аср авлоди, 2006.
16. Каримов Н. XX аср адабиёти манзаралари - Т.: Ўзбекистан, 2008.-536 б.
17. Киличев Э., Киличев Б. Нутк маданияти ва услубияти асослари. - Бухоро, 2002.

18. Махмудов Н. Тилимизнинг тилла сандиги. - Тошкент: Гафур Гулом номидаги нашриёт-матбаа уйи, 2012.
19. Махмудов Н., Рафиев А., Йулдошев И. Нутк маданияти ва давлат тилида иш юритиш. - Тошкент: Чулпон, 2012.
20. Норматов У. Тафаккур ёгдуси. -Т.: Фикр-медиа, 2005.
21. Орипов Абдулла. Тулик асарлар туплами. Турт жилдлик. - Т.: Г.Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2001.
22. Расулов Р., Хусанов Н., Муйдинов К., Нутк маданияти ва нотикдик санъати. - Тошкент, 2006.
23. Рустамий А. Адиблар одобидан адаблар. - Тошкент: Маънавият, 2003.
24. Саидов У. Нутк маданияти ва нотикдик санъати. - Тошкент: Академия, 2007. -Б. 224.
25. Тожиев Е., Маллабоев М. Узбек нутки маданияти ва услубият асослари. -Тошкент: Иктисодиёт, 2006.
26. Холмирзаев Шукур. Уч жилдлик. - Т.: Шарк. 2003.

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI KAFEDRASI**

«TASDIQLAYMAN»

O'quvishlaribo'yichaprorektor

_____ D.Xolmatov

«___» _____ 2021-yil

**«Nutqmadaniyatvamutolaasan`ati»
fanining**

2021/2022o'quvyilikunduzgita'limshakli, 2-kurslari uchun

Bilimsohasi: 200000 – GumanitarSoha

Ta'limsohasi: 230000 – GumanitarFanlar

Bakalavryo'nalishi: 60230100– O`zbektili

O'QUV DASTURI

(O'quvdasturikafedraning 2021-yil "___" _____dagi

_____sonlimajlisidamuhokamaqilinganvatasdiqlangan

NAMANGAN – 2021

Ushbu o'quv dastur Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining. _____-yildagi -sonlibuyrug'i bilan tasdiqlangan namunaviy o'quv dastur asosida tuzilgan.

Tuzuvchi: D.Boboxonova

Fanning o'quvdastur o'zbek til va adabiyotika kafedrasining 2021-yil __-avgustdagi 1-sonli yig'ilishida muhokama dan o'tgan va fakultet Kengashida ko'rib chiqish uchun tavsiya etilgan.

Kafedra mudiri: U.Qo'ziyev

O'quv dastur filologiya fakultetining 2021-yil __-avgustdagi 1-sonli Kengashida ko'rib chiqilgan va foydalanishga tavsiya etilgan.

Fakultet kengashi raisi: R. Zamilova

Kelishildi:

O'quv-uslubiy boshqarmaboshlig'i: H.Mirzaahmedov

Modul/fan sillabusi Filologiya fakulteti 2-kurs bakalavr(kunduzgi)			
Fan/modulkodi 200LM2M	O'quvyili 2021-2022	Semestr 3-4	ECTS -Kreditlar 5
Fan/modulturi <i>Tanlov</i>	Ta'limtili O'zbek		Haftadagidarsssoati 4
Fan nomi	Auditoriya mashg'ulotlari(soat)	Mustaqilta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
“Nutq madaniyati va mutolaa san’ati”	90	90	180
Kurshaqidaqisqachama'lumot (QM)			
QM1	I. Fanning mazmuni Fanni o`qitishning maqsadi</b> –“Nutq madaniyati va mutolaa san’ati” moduli maqsadi talabalar e’tiborini jalb qilish mohiyatiga ega bo’lgan nutq yaratish, me’yoriylikka asoslangan og’zaki va yozma nutq ko’nikmalarini shakllantirishdan iborat</p> <p><b>Fanni o`qitishning vazifalari.- bolajak mutaxassislarning o’z kasblari sohasida o’zbek tilidagi og’zaki va yozma savodxonligini o’stirish, ularda o’z fikrlarini tushunarli tilda bayon qilish ko’nikmalarini shakllantirish. - birinchidan, bo’lajak mutaxassislarning yozma savodxonligini yuqori pog’onaga ko’tarish, ikkinchidan, ularning og’zaki nutqini adabiy o’zbek tili me’orlari asosida sifat jihatdan yaxshilash. -so'zlami o'rinli qo'llay olishi, o'qish va keyingi mehnat faoliyati jarayonida o'zbek tilida muloqotga kirisha olishi, yetarli yozma va og'zaki savodxonlikka ega bo'lish; -o'zbek nutqining barcha uslublarida bitilgan matnlarni o'rganishda o'z bilim va ko'nikmalarini qo'llash, o'zbek tilida ish yuritish ko'nikmalarini faoliyatiga tadbiiq eta olish va ixtisosligi		

	sohasidagi kitob, maqolaga taqriz yoza bilish, u yoki bu munosabat bilan o'z fikrini o'zbek tilida asosan bayon qilish ko'nikmasiga ega qilish. Dasturning asosiy maqsadi talabalarning o'zbek tilining sohada qo'llanilishi tanlangan ixtisosliklari doirasida davlat tilini puxta bilishlariga yordamlashish, nutqlarini kasbiy atamalar bilan boyitish, o'zbek tilidan yuqori darajada nutqiy savodxonlikni ta'minlashga erishishdir. Ushbu nuqtai nazardan dastur o'qituvchi va talaba oldiga qator vazifalarni qo'yadiki, bular mutaxassisning kundalik mehnat faoliyati hamda turmushida zarur bo'lgan nutqiy mavzularda o'zbek tilida mustaqil so'zlay olishlari va yozishlari, ixtisoslikka oid turli nutq uslublarida matn tuza olish uni o'zgartira bilish malakalarini shakllantirishni ko'zda tutadi. Dasturni tuzishda ana shunga e'tibor bergan holda muayyan nutqiy mavzular doirasida zaruriy grammatik bilimlarni berish, ixtisoslik doirasida og'zaki va yozma nutqni o'stirish, turlicha tipdagi matnlarni erkin tuza olish malakalarini o'stirish vazifasi qo'yilgan. Dasturni tuzishda oliy ta'limda davlat tilini o'qitishning zamonaviy texnologiyasi inobatga olindi hamda talabalarni akademik lisey va kollejlarda o'zbek tilidan egallashlari shart bo'lgan bilimlar ko'lamini va darajasiga asoslanildi.
Kursga qo'yiladigan boshlang'ich talablar	
1.	➤ “Nutq madaniyati va mutolaa san’ati” fani tarixi, notiqlik san’ati, notiqlar faoliyatini; ➤ nutq bo'limlari, notiqlik san’atining asosiy tushunchalarini; ➤ nutq madaniyatining asoslarini; ➤ nutq madaniyatining umumiy va o'zigacha xususiyatlarini; ➤ nutq sifatlarini haqidagi muhim ma'lumotlarni; nutq madaniyatining slixa san’atini qiyofasini belgilovchi omillardan biri ekanligini bilishni talab etadi.

Ta’limnatijalari (TN)	
TN1	“Nutq madaniyati va mutolaa san’ati” fani tarixi, notqlik san’ati, notiqqlar faoliyatini o`rganish.
TN1	“Nutq madaniyati va mutolaa san’ati” o`quv fanining predmeti, maqsadi va vazifalari, nazariy-metodologik tamoyillarini shakllantirish
TN2	“Nutq madaniyati va mutolaa san’ati” o`quv fanining terminologik apparati, boshqa fanlar bilan kesishgan nuqtalari haqida bilim va ko`nikmalarini shakllantirish.
TN3	O`zbek tilidamatnyaratishvamatnustidaishlashnio`rganish.
TN4	Nutq me’yorlari va mutaxassislik bo’yicha nutq bayyoni tayyorlash.
TN5	O'zbek tilining rasmiy ish qog'ozlari uslubi, morfologik xususiyatlari, sintaktik xususiyatlarini bilish.
TN6	Rivojlangan mamlakatlarda hujjatchilik ularning o'ziga xosligi, Yevropa va Osiyoda hujjatchik va ularning o'xshash va farqli tomonlari tushuntirish.
TN7	Rasmiy-idoraviy uslub, uning o'ziga xos xususiyatlari, gap qurilishi tahlil qilishni o`rganish.
TN8	Farmoyish hujjatlari turlari. O'ziga xos xususiyatlari va ahamiyati o`rganish.
TN9	Shaxsiy ish qog'ozlari turlari, o'ziga xos tomonlarini muhokama qilish
TN10	Hujjat atamasi. Qo'llanish qonun-qoidalari. Tili va uslubni o`rganish.

Mashg'ulotlarshakli: ma'ruza(M)		Soat
M1	“Nutqmadaniyati” fanigakirish. Nutqmadaniyatitushunchasi, tarixi.	2
M2	Notiqliksan’atitarixi	2
M3	Nutqmadaniyativaadabiytilme’yorlari	2
M4	Nutqningkommunikativsifatlari	2
M5	Nutqshakllarivaturlari	2
M6	Nutqmadaniyativauslubiyat	2
M7	Tilningtasviriyvositalari	2

M8	MutolaavavoizlikningG‘arbmadaniytafakkuridatutgano‘rni	2
M9	MutolaavavoizlikningSharqmadaniytafakkuridatutgano‘rni	2
M10	Nutq texnikasi va orfoepiya	2
M11	Ritorika va zamonaviy adabiyot	2
M12	Dramadaritmvaohang	2
M13	Epikijoddanutqvamutolaamasalasi	2
M14	Lirikjanrlardamaromvaohang	2
M15	Mutolaajarayonidajumla, so‘zvatovushningvazifasi	2
	JAMI:	30
Mashg‘ulotlarshakli: amaliy (A)		Soat
A1	Mumtoz yozma yodgorliklarda nutq madaniyati va notqlik masalalari.	2
A2	Og ‘zaki nutqda adabiy til me‘yorlariga amal qilish	2
A3	Yozma nutq me‘yorlari yuzasidan trening	2
A4	Nutq sifatlari bo'yicha matn tahlili	4
A5	Nutq uslublari va ularga xos xususiyatlar.	4
A6	Nutqning badiiy tasvir vositalari.	4
A7	Nutqdagi tipik xatolar ustida ishlash.	2
A8	Ritorika va adabiyotning o‘zaro munosabati	2
A9	Notqlik san’atini egallsh omillari	4
A10	Yozma nutq xususiyatlari	2
A11	Nutq madaniyatining shakllanishida mutolaaning o‘rni	2
	JAMI:	30

	Mashg‘ulotlarshakli:seminar(S)	
S1	“Nutqmadaniyati” fanigakirish. Nutqmadaniyatitushunchasi, tarixi.	2
S2	Notqliksan’atitarixi	2
S3	Nutqmadaniyativaadabiytilme‘yorlari	2

S4	Nutqning kommunikativ sifatlari	2
S5	Nutq shakllarivatlari	2
S6	Nutq madaniyati va uslubiyati	2
S7	Tilning tasviri vositalari	2
S8	Mutlaq avoizlikning G'arb madaniyati ta'kidatutgan o'rni	2
S9	Mutlaq avoizlikning Sharq madaniyati ta'kidatutgan o'rni	2
S10	Nutq texnikasi va orfoepiya	2
S11	Ritorika va zamonaviy adabiyot	2
S12	Dramad ritmi va ohang	2
S13	Epik ijoddan nutq va mutlaq masalasi	2
S14	Lirik janrlar dastur va ohang	2
S15	Mutlaq arayonidajumla, so'z vatovushning vazifasi	2
	JAMI:	30
	Mustaqil ta'lim (MT)	
MT 1	Sofistlar, ularning notiqlik san'atirivojida xizmatlari	4
MT2	Alisher Navoiy ijodidan nutq madaniyati va notiqlik san'atimasalalaritalqini.	4
MT3	Navoiyning "Hayratul-abror" dostonidaso'z, nutq madaniyati haqidagi fikrlar.	4
MT4	Navoiyning "Layli va Majnun" dostonidaso'zning ulug'lanishi.	4
MT5	"Mahbubul-qulub" asaridasharqonamuomalamadaniyati.	4
